

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARKAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**“XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr  
boshi Turkiston tarixchi olimlarining  
ilmiy merosi”**

**FANIDAN**

**MA'RUZALAR MATNI**

**Samarqand-2016**

# 1-Mab3y: Kirish. Fanning maqsad va vazifasi.

## Reja

1. Fanning maqsadi va dolzarbligi.
2. Fanning tarixshunosligi.

**Fanning dolzarbligi.** O'zbekiston jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi bo'lib, mustaqil davlat sifatida 24 yildan oshiq davr ichida faoliyat olib bormoqda. Yurtimiz qadim sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi tarixiy tadqiqotlarda o'z isbotini topdi va uni butun dunyo e'tirof etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi va mustabid boshqaruv tizimining joriy etilishi natijasida ijtimoiy hayotda tobelik, qoloqlik, bir yoqlama xom ashyo yetishtirishga asoslangan turmush tarzining shakllanishi salbiy oqibatlarga olib keldi.

O'rta osiyo xalqlarining kolonizatsiya qilinishini Rossiya imperiyasining o'sha davrdagi siyosatchilari, olimlari, bu o'lka aholisiga sivilizatsiyaning kirib kelishi bilan oqlab ko'rsatishga har qancha urinmasinlar bu harakat o'zining ijtimoiy va siyosiy xususiyatlari bilan bosqinchilik harakterda ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Kolonial-mustabid tuzum qadim dunyo tarixidagi, yunon yoki finikiyaliklarning koloniyalaridan farqli o'laroq o'zining XIX asr ikkinchi yarmida bosqinchilik talonchilik, milliy kamsitilish va salbiy oqibatlari bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston uchun milliy davlatchiligini tiklash, jamoatni demokratik isohotlar orqali yangilash, erkin bozor munosabatlari asosida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlanishi mashaqqatli yaratuvchanlik mehnati natijasida barpo etildi. yangi jamiyat asoslarini yaratishda tarixiy o'tmishdan saboqlarni hisobga olmasdan, O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos xususiyatlari va tajribalarini hisobga olmasdan, hozirgi davrdagi islohotlar davrini, erishilgan yutuqlarni, kelajak istiqbollarni aniq bilmay, mohiyat va ahamiyatni to'liq baholash mumkin bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida islohotlarning tashabbuskori, prezident I.A.Karimov "Tarix xotirasi, xalqning jonajon o'lkaning, davlatimizhududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi" degan fikrlari mustaqillikning ma'naviy qadriyatlarni tiklashda tarix sohasidagi vazifalarini anglatadi. Prezidentimizning tarix fani mutaxasislari bilan uchrashuvlaridagi "... davlatimiz, millatimiz degan haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muxim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"- degan so'zlari bevosita tarixchi olimlarimiz, tarix sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar oldiga qo'yilgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1998 yil iyul oyida qabul qilgan qaroriga binoan "o'zbek xalqi va uning davlarchiligi tarixini tadqiq qilishda bir yoqlama yondashuv, o'tmishni sohtalashtirish, mustamlakachilik mafkurasini tag'ib qilish"dan qochish zarurligini belgilab berdi. Yuqorida davlatimiz prezidenti asrlari va Vazirlar Maxkamasining qarorida keltirilgan yo'riqlar asosid tarixchi izlanuvchilar uchun asosiy xarakat dasturi "...kechagi tarixdan, o'tmishga sodir bo'lgan voqea-hodisalardan to'g'ri xulosa chiqarib, ta'bir joiz bo'lsa, uni bugungi va ertangi kun uchun qo'llanma sifatida ishlata olish"dan iborat bo'lmog'i zamon talablaridan biridir.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasining istilo etilishi xususida bu harakatning siyosiy tomonlarini hisobga olmaganda, asosiy ikkita faktorni aniq belgilab ko'rsatish

mumkin. Ularning birinchisi : imperiyaning davlat xarakatlarini to'ldirib boruvchi moliyaviy manba bo'lsa; ikkinchidan : kolonial siyosat nuqtaiy nazaridan qaraganda imperiyaning markaziy guberniyalaridan ortiqcha aholini ko'chirish makoni hisoblangan. Rossiya siyosiy amaldorlarining ochiqdan –ochiq bildirgan ma'lumoti zahirida Turkistonda mahalliy ziyolilar tomonida o'lkani imperiya istilosiga nisbatan berilgan baholari ushbu magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilab beruvchi asiy omillaridan hisoblanadi. Turkiston tarixchi olimlarining XIX asrning ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida e'lon qilingan , chorizm senzurasidan omon qolgan tarixiy asrlarini umumiyashtirib ularda keltirilgan malumotlarning umummetadologik o'xshashlik tomonlari va ajralib turadigan jixrlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish muammolarini yoritish rejalashtirilgan.

Mazkur kypc Turkistonda 1867-1917 yllarda bo'lib o'tgan tarixiy davrni qamrab oladi. Bunda asosan Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi va mustabid boshqaruv tizimining o'rnatilishi oqibatidagi ijtimoiy hayotdagi bo'lib o'tgan tub o'zgarishlar natijasida milliy davlatchiligimizning “markaz” xoxlagan andozasidagi tuzum o'rnatilishi voqealarini o'z ichiga oladi.

**Fanning tarixshunosligi:** Xozirgi davrda O'zbekiston tarixi tarixshunosligi va manbashunosligining Rossiya imperiyasi mustamlaka davriga oid ko'plab ilmiy bilim asoslari yaratilmoqda. Hatto O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida maxsus “XIX asr ikkinchi yarmi- XX asr boshi” bo'limi faoliyat olib bormoqda . Shuni ta'kidlash joizki mahalliy tarixchi olimlarning ushbu davrga oid asrlarini umumlashtirib ularda o'lka ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlari ilmiyligi tahlil qilinishi magistrlik dissertatsiyasi darajasida kam o'rganilgan. Shu sababli mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni asosan 3 ta davrga ajratib taxlil qilish mumkin. Bular 1. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida nashr etilgan tadqiqotlar; 2. Sobiq sovetlar davrida nashr etilgan adabiyotlar; 3. O'zbekiston mustaqilligi yillarida nashr etilgan tarixiy asrlar.

Mazkur fan doirasida ilmiy adabiyotlarning birinchi davrini XIX asrning ikkinchi yarmi –XX asr boshida nashr etilgan tarixiy asarlar tashkil etadi. Bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo etilishiga oid o'sha davr rus tarixchi olimlarining asarlarini keltirish mumkin . Ularda Turkiston o'lkasi istilo etilishining dastlabki davrlaridan boshlab , o'rnatilgan mustabid boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayotga oid bo'lgan ma'lumotlar o'z aksini topgan .

Tarixiy manbalarning ko'pchiligini sobiq sovetlar davrida nashr etilgan adabiyotlar tashkil etadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari shundaki sovet olimlari o'zlari yashagan davrning ustunligini namoyon etish uchun Rossiya imperiyasi davrini keng mafkuraviy tanqid iskanjasiga oladilar.O'zbekiston Mustaqilligi davrida o'zbek olimlari tomonidan nashr etilgan ilmiy asarlar, monografiyalar va maqolalar ham o'zining ko'p qirraligi bilan ajralib turadi.

### **Adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т., «Ўзбекистон», 1992.
2. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т., 1991
3. Саъдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистонда илк ёзма манбалар. Т., 1996.

## 2- MAVZU: ASHTARXONIYLAR VA MANG'ITLAR TARIXIGA OID TARIXIY ASARLAR

### Reja

- 1.O'rta Osiyoning bosib olinishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishiga oid manbalar.
- 2.Chorizmning mustamlakachilik siyosatiga oid manbalar.
- 3.Turkistonning rus-tadqiqotchi olimlari (geograflar, tipograflar, etnograflar, arxeologlar, turkologlarning) roli va ularning asarlari manba sifatida.

**Tayanch iboralar:** Bosqinchi, mulk ug'risi, fon Kaufman, Perovski, Ahmad Donish, Yusuf Bayoniy, Salimbek, arxeologlar, etnograflar, sharqshunos.

**Mirza Abduazim Somiy Bo'stoniy.** Ham buxorolik mashhur o'lkashunoslik tarixchi olim (1833-1914). U amir Muzaffarning shaxsiy kotibi bo'lib xizmat qilgan. U amir Abdulahad hukmronligining (1885-1910) so'ngi davrlarda podsholikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrini oxirini nochorlikda kechirgan. «Mirgot ul-xayol» (Xayol ko'zgusi), «Insho», «Podsho tuhfasini», «Tarixi Salotini Mang'itiya» (Mangit hukmdorlari tarixi) shular jumlasidandir. «Tarixi salotini Sangitiya» asarining muhim tomoni shundaki, unda Buxoro xonligining O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, Buxoro-Rossiya munosabatlari ancha kam yoritilgan.

**Muhammad Solih** va uning «Tarix jadidayi Toshqand» asaridir. U 1830 yil tug'ilgan. 1840 yildan 1863 yilgacha Toshkent, Qo'qon, Buxoroning nufuzli madrasalarida ta'lim olgan, arab, fors tillarini mukammal bilgan.

Tarixchi olim Muhammad Solih ulkani tarixini o'rganishda 25 yildan ortiq vaqt sarfladi. Nihoyat 1863-1888 yilgacha izlanishlar samarasi sifatida uning «Tarix jadidayi Toshqand» (Toshkentning yangi tarixi) asari yozildi. U ikki jildidan iboratdir. Asarning ilmiyligi shundaki, Toshkent shahri va viloyatiga doir tarixiy, jug'rofiy ma'lumotlar atroflicha, izchillikda berilib, Toshkentning XIX asr qiyofasi shu asar orqali mukammal yozildi. Shaharning devor va qo'rg'onlari, ularning orasidagi masofa, toponimik ma'lumotlar, shaharning 12 darvozasi, dahalari, masjid-madrasalari, hammomlari, bozorlari, hunarmandchilik sohalari, qishloq xo'jalik, kabriston va makbaralari, suv ta'minot shahobchalari, bog'lar, mevasabzavotlar, ekin-tekinlari siyosiy tarzda bayon qilingan.

**Arxeologiya sohasiga qiziqishning ortishi.** Chor hukumati, ularning harbiy va tashqi ishlari vazirligi Rossiya Akademiyasiga to'ppa-to'g'ri buyurtma va ko'rsatma berib, Turkistonni har jixatdan ilmiy o'rganish, nihoyat hukumat uchun talab etilgan ilmiy xulosalar berish vazifasini yukladi, shuni xolisona baholash lozimki, Rossiyadan safarbar etilgan taniqli olimlar ikki guruhga bo'linadi. Ularning birinchi guruhiga mansub olimlar o'z hukumati topshirigini bajarib, o'lkani behisob boyliklarini o'zlashtirish, tezroq tashib ketishda jonbozlik ko'rsatganlar kirar edi. Ikkinchi guruh Turkiston o'lkasi, xalq hayoti, er osti va er usti boyliklarini haqiqiy ilm-fan nuqtai nazaridan o'rganib, fan ravnaqiga katta hissa qo'shish, jahon xalqlarini o'lkani hayoti, madaniyati, tabiatiga doir noyob sir-sinoatlari bilan tanishtirishdek olimlik burchini bajaruvchilardan iborat edi. Ammo bunday toifali olimlar barmoq bilan samarali darajada kam bo'lib, hatto eng taniqli

rus olimlari ham mustamlakachilik g'oyalar va bosqinchilik urushlariga moyillik bildirar edilar.

Vijdoni va ilmiy haqiqatga xilof ish qilishni istamagan rus ilg'or olimlari o'lkada ilmiy faoliyatlarini davom qildilar. Aksincha, chor hukumati ijtimoiy-tarixiy fanlar oldiga reakcion ruhdagi tub joy xalqlari turmush tarzini etnik jihatdan o'rganish, urug'lar o'rtasidagi munosabatlarni urganib, mazkur xalqlarni idora kilishda foydalanish vazifasi qo'yildi. Rus arxeologlari oldiga oltin, kumu shva boshqa turdagi noyob manbalarni aniklab, ularni Rossiyaga zudlik bilan junatish choralari kurish vazifalari turar edi.

Xar bir mutaxassis O'rta Osiyoda nimani kulga kiritish va uni Rossiyadagi qaysi ilmiy yoki davlat yukori tashkilotlariga junatish kerakligi to'g'risidagi yo'riknomalarga ega edilar. SHuning uchun ulkada turli soxa mutaxassislari tashlandi. Ular mazkur yuriklar asosida ish kurib, nodir zargarlik, miskorlik, duradgorlik, nakkoshlik, xattotlik, muxrxanlik, numizmatika va boshqalarga oid buyumlar namunalarini yig'ishga qirishib ketdilar.

Ular bunday keng kulamli ishda maxalliy ziyolilar yordamiga tayandilar. SHunga kura kuplab maxalliy ziyoliy kishilar xam bu ishlarga jalb etildilar. Rus olimlari ularni tazilayotgan turli ilmiy jamiyatlarga a'zo qilib oldilar. Masalan: arxeologiyajamiatiga a'zo qilingan Toshkentlik schavdogar Akrom Askarov tangashunoslik soxasidagi bungan yakkol misol bo'ladi. Uning faoliyati rus arxeologiya jamiyati tomonidan kumush nishon bilan taqdirlandi. U tanlangan 14 mingdan ziyod nodir oltin, kumush, miss tangalar va 200ga yakin noyob antikalar Peterburg Ermitajidan o'rin olgan.

SHayboniyxon madrasasida mudarrislik qilgan Abu Said Maxsum xam qadimgi buyumlar xavasmandi va tuplovchisi bo'lgan. I.I. Vasilevskiy so'ziga qaraganda, Mirza Abu Said Maxsum mahalliy kishilar o'rtasida «musulmon adabiyotida eng o'qimishli kishilardan biri» bo'lgan. Bu o'qimishlilik uning o'z qadrdon shahrining o'tmish tarixi, tarixiy-madaniy yodgorliklarini bilishga bo'lgan samimiy munosabati bilan qo'shilib ketgan va fors yozuvi, tilini mukammal bilgan Abu Said Samarqandiyning tarixiy, me'moriy yodgorliklarda saqlanib qolingan va o'qish ancha qiyin bo'lgan yodgorliklardan nusxa olishda muvaffaqiyatli ravishda sinab ko'rdi. Vyatkinga rasadxonaning aniq geografik o'rnini Abu Said ko'rsatgan bo'lib, qazish ishlari boshlangan edi.

**Mirza Abdulla Buxoriy** kasbi bo'yicha savdogar bo'lib, mahalliy ipak, jun, hamda ip-gazlama buyumlari fabrikasining xo'jayini edi. 1878 yil u Toshkentda ko'rgazma tashkil etishda ishtirok etadi va ko'rgazmaga xonatlas, turli rangdagi ayollar bosh kiyimlari va har xil ro'mollardan iborat noyob to'plam taqdim etadi. Mirza Abdulla savdogar Muhammad SHokir bilan birga «ipak buyumlari ishlab chiqarish ancha takomillatirilgani va kengaytirilgani» uchun oltin nishonga sazovor bo'ladi. U 1886 yil Turkiston ko'rgazmasida qatnashdi. N.I. Vaselovskiy Mirza Abdulla noyob to'plamini ko'rib chiqib, undan 1202 ta buyum, shu jumladan 11ta tillova 77 ta kumu shtanga, 951 dona chaqa, 18 ta muhr hamda odamlar, hayvonlar va boshqa narsalar tasvirlangan 6 ta nodir tosh sotib olgan...

**Mirza Abduazim Somiy Bo'stoniy** (1838-39-1914 y. keyin) Buxorolik mashhur tarixshunos olim va shoir. Somiy bir necha tarixiy asar yozib qoldirgan, jumladan «Tuhfayi shohiy» (Podshoning tuhfasi), «Tarixi salotini Mang'itiya» (Mang'it hukmdorlari tarixi) asarlaridir. Uning «Tuhfayi shohiy» (1900-1902 yy.)

ham, «Tarixi salotini Mang'itiya» (1907) ham bir davr tarixiga, Buxoro amirligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag'ishlangan. Biroq ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. «Tarixi salotini Mang'itiya» nisbatan ob'ektiv yozilgan. Asarning ahamiyati shundaki, unda Buxoro xonligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasida iqtisodiy va siyosiy ahvoli, Buxoro-Rossiya munosabatlari bir muncha keng yoritilgan.

**Niyoz Muhammad Qo'qandiy.** XIX asrda o'tgan Farg'onalik tarixchi, 1803 yili Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan, Xudoyorxon qo'shinida xizmat qilgan, 60-yillar boshlarida iste'foga chiqib, ilmiy ish olib borgan. Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo'lib, «Niyoziy» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Lekin yirik tarixiy asari «Tarixi Shoxruxiy» (Shoxruxbek tarixi) bilan ko'prok mashhurdir. Asarda Qo'qon xonligining qaram bo'lgan boshqa o'lkalarning (Toshkent, Qirg'iziston, Qozog'iston janubiy qismi) ijtimoiy – siyosiy tarixi kam bayon etilgan. Asarda Qo'qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa nomlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalari haqida ham kimmatli ma'lumotlar bor.

Turkiston o'lkasini o'rganishda statistika komitetlari ham ma'lum rol o'ynaydi. 1868 yil yanvarida Turkiston statistik komiteti tuzildi. Uning tashabbusi bilan 1872 yilda «Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar» chiqarila boshlandi (1872-1876 yillarda hammasi bo'lib besh to'plam chiqarildi). 1887 yil 1 yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkent), Samarqand (Sam), Farg'ona (Yangi Marg'ilonda) oblastlarida statistika komitetlari tuzildi. Komitetlar oblastlarda xos obzorlar nashr qilib, ularda «tabiiy va ishlab chiqarish kuchlari», xalq xo'jaligi irrigatsiya sistemalari yo'llari, sog'likni saqlash va maorif jamoat obodonchiligi, ob-havo kuzatishlari va xalq haqidagi mufassal ma'lumotlar berilgan. 1886-1913 yillarga oid «Sirdaryo oblasti obzorlari» nashr qilingan edi.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan ilmiy va o'lkashunoslikka bag'ishlangan turli xil xabarlar va maqolalar «Turkistanskije vedomosti» gazetasi (Toshkent 1870-1917 y.) va boshqa mahalliy matbuotda muntazam bosilib turdi.

1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozir A. Navoiy) o'lkani urganish bilan shugullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa ma'alliy xodimlar uchun katta ahamiyatiga tega bo'ldi. Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan «O'rta Osiyoga ayniqsa Turkiston o'lkasiga taaluqli Turkiston asarlar va maqolalar to'plami» juda ham qimmatli asar bo'lib, hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu tuplamni tuzish ishlarini ko'zga ko'ringan rus bibliografii V.I. Mejov Peterburgda 1868 yilda bosib, 20 yil davomida olib borgan. 1888 yilda to'plamga kirgan katta-katta tomlarning soni 416 taga etganda (bular 1667-1887 yy.) o'lkadagi chor ma'muriyatining buyrug'i bilan «mablag yo'qligi sababli» bu ishlar to'xtatilgan edi. V.I. Mejov «Turkiston to'plami»ga uch kitobdan iborat sistematik va alfavit ko'rsatgich tuzgan.

1872 yilda A.L. Kun va boshqa sharqshunoslar mashhur «Turkiston albomi» (Turkiston o'lkasining tipografiya, filologiya, kasb-hunar va tarixiga doir su'ratli albomni tuzib tamomladilar).

### **Savol va topshiriqlar:**

- 1.O'rta Osiyoning bosib olinishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishiga oid manbalarni aytib bering?
- 2.Turkistonda tashkil qilingan arxeologiya havaskorlari to'g'aragining faoliyati nimalarda ko'rinadi?
- 3.Ulug'bek rasadxonasi kim tomonidan va qachon topildi?
- 4.«Turkiston to'plami» qachondan boshlab chiqaboshladi va necha soni chiqdi?

### **Adabiyotlar.**

- 1.Ibraximov A., Sultonov X., Jo'raev N. «Vatan to'yg'usi». T., 1996 y.
- 2.Raximov N. «Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi». T., 1990 y.
- 3.Ibrat «Farg'onatarixi». T., 1991 y.
- 4.Bobobekov X. «Qo'qon tarixi». T., 1996 y.
- 5.Ziyoev X. «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash». T., 1998 y.
- 6.O'rinboev A., Buriev O. «Toshkent Muhammad Solih tavsifida». T., 1983 y.

## **3-MAVZU:TURKISTONGA KELGAN ELCHILAR VA SAYYOHLARNING MA'LUMOTLARI**

### **REJA**

1. Antonio Jenkinson sayohati, I.Maqsudov missiyasi, I.D.Xoxlov elchixonasi materiallari.
2. O'rta Osiyo bo'yicha ingliz ekspeditsiyasi va missiyalarining materiallari.
3. Rus sayyohlari, olimlari, diplomantlarining asar va yozuvlari.
4. 1717 yil Florio Beneveni elchiligi.

**Tayanch iboralari:** sayyohat, missiya, elchi, Filipp Nazarov, asar, yozuvlar ekspeditsiya, Buxoro, Xiva.

O'rta Osiyo xonliklarining boshqa mamalakatlar bilan o'zaro aloqalarida chet el elchilari muhim rol o'ynaydi. XVI asr - XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Osiyo va Evropaning olis hamda yaqin mamlakatlarining turli podsholari yuborgan ko'p elchilar tashrif buyurdilar. O'rta Osiyo va xonliklarining Moskva davlati bilan elchilik aloqalariga doir ma'lumotlar katta qiziqish uyg'otadi. Yozma manbalarga ko'ra, 1558 yildan 1702 yilgacha 12 ta XVIII asr davomida 9 ta rus elchisi ma'lumdir. Elchilar odatda muayyan siyosiy muammoni hal etish uchun yuboriladi.Ko'pincha elchilar savdo bilan bog'liq muammoni hal etganlari uchun ularga tajribali savdogarlar boshchilik qilganlar. Ko'pchilik aloqalar O'rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli, savdoning holati va istiqbollari, savdo yo'llarining asosiy yo'nalishlari, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar to'g'risida axborot, ya'ni siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan axborot tolish imkonini berardi. Chunonchi, XVII asrda O'rta Osiyodagi rus elchilarining faoliyati O'rta Osiyo xonliklari to'g'risida ma'lumotlar to'plash imkonini berdi. Bunga O'rta Osiyoga yuborilgan A.Jenkinson, I.D.Xoxlov va Florio-Becveni elchiliklari yorqin misol bo'la oladi.

**A.Jenkinson elchiligi.** Moskva davlati mulklarida joylashgan Volga yo'lidan O'rta Osiyo va Eron orqali Hindiston bilan savdo aloqalari olib borish maqsadida foydalanish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bunda 1555 yilda paydobo'lib XVI – XVII asrlarda ingliz-rus aloqalari muhim hissa qo'shgan «Moskva kompaniyasi»

katta rol o'ynaydi. Bu kompaniya yordamida inglizlar Rossiya orqali Sharqiy O'rta Osiyo va Eronga yo'l ochishga mayassar bo'ldilar, bu erda 1558 yilda 7 ta ingliz sayyohatchilari tashrif buyurib, ular orasida Xiva va Buxoroga borgan Antonii Jenkinson ham bor edi. A.Jenkinson to'g'risida juda biografik ma'lumotlar kam. A.Jenkinson va uning hamrohlari (Richard va Robert Jonsonlar hamda tarjimon tatar Aziz) sayyohatni 21 oy (1558 y. aprelidan 1559 y. 2 sentyabrgacha) davom etdi.

A.Jenkinson «Rossiyadagi Moskva shahridan Baktriyadagi Buxoro shahrigacha 1558 yildagi sayyohati» bayonini qoldirgan. A.Jenkinson o'zining O'rta Osiyoga bo'lganligidan Xitoyga olib boriladigan yo'llar to'g'risida ma'lumotlar to'plash maqsadida foydalangan. U Buxorova butun O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq imkoniyatlarini oshirib ko'rsatmagan. A.Jenkinsonning Saroychik, Xorazm shaharlari – Vazir va Urgench to'g'risidagi ma'lumotlari qimmatlidir, ular A.Jenkinson bu shaharlarda bo'lgan Vazir Xorazmning markazi bo'lib, Urgench inqirozi yuz tutganligini tasdiqlaydi.

A.Jenkinson va uning hamrohlari Buxoroda uch oy bo'ldilar. U shahar uning ijtimoiy va iqtisodiy turmushi, xon hamda uning hokimiyati to'g'risida juda qiziqarli ma'lumotlar qoldirdi. Jenkinson Buxoroning xalqaro savdodagi roli va o'rini belgilashga katta ahamiyat beradi.

Qo'lida rus podshosining shahodatnomalari bo'lgan A.Jenkinsonni Abdullaxon qabul qiladi. Buxoro xoni Rossiyadagina emas, balki Turkiya, Angliyadagi ahvol, shuningdek Evropa armiyalari qurollari bilan ham qiziqadi.

A.Jenkinson, Ridard Jonson bilan birga Buxorodan Xitoygacha boradigan yo'llar to'g'risida ma'lumotlar to'pladi, Astraxandan Xitoygacha bo'lgan yo'lni aniqladi. Bu elchilikning natijalari Rossiya uchun ham O'rta Osiyo uchun ham katta ahamiyat kasb etib, natijada Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida faol diplomatik savdo aloqalari boshlanib ketgan edi.

**I.Maqsudov missiyasi.** XVIII asrning ikkinchi yarmi Rossiya Buxoro savdo va diplomatik aloqalari tarixida Rossiya elchiligining 1774-1776 yillarda Rossiyaga borishlik katta qiziqish uyg'otdi. Shu bilan birga bu elchilik siyosiy ahamiyati ham bor edi. I.Maqsudov rus hukumatiga qilgan takliflariga ko'ra, Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalari yanada rivojlantirish uchun qozoq juzlarida Rossiya mavqeini mustahkamlash zarur edi. Imperator kengashi majlisida ko'rib chiqilgan bu taklif Rossiya diqqatini jalb etdi. Rus hukumati I.Maqsudov elchiligida katta e'tibor berar edi. 1779-1780 yillarda I.Maqsudov Rossiyaga ikkinchi elchilik boshlig'i bo'lib bordi. 1797 yilda esa Rossiyaga Shomurodning elchisi Polvonqul qurchi tashrif buyurdi.

**Ivan Xoxlov elchiligi.** 1620-1622 yillarda rus podshosi Mixail Fyodorovich Ruslano Buxoroga boyon Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligida elchilik yuboradi. U 1620 yildan boshlab diplomatik xarakterdagi turli xil topshiriqlarni bajarib kelardi. Ivan Xoxlov Eron elchisi Pirqulibekka nazoratchilardan biri etib tayinlanib, uni Saratovga kuzatib qo'ygandi. Usha vaqtda Ivan Xoxlov akasi Vasiliy bilan birga «o'z vatani bo'lmish Qozonda davlat xizmatidagi strelec boshliqlar hisoblanardilar». Ivan Xoxlov n Buxoro xoni Imomqulixonga elchi etib tayinlangan... 1620 yildayoq tilga olingan.

Ivan Xoxlov elchi sifatida Buxoro elchisi bilan birga Imomqulixon huzuriga yuboriladi. U Rossiya bilan savdo va elchilik aloqalarini mustahkamlash, rus



asirlarini ozod qilish to'g'risida xon bilan olib boriladigan muzokaralar muvaffaqiyatini ta'minlash, shuningdek Buxoroning tashqi siyosati ahvoli to'g'risida ma'lumotlar to'plashi kerak edi. U xonni Rossiyaning kuch-qudrati va ulug'vorligiga ishonitirib, u bilan savdo hamda siyosiy aloqalarni mustahkamlashga ko'ndirishi lozim edi. Elchiga, xususan buxoroliklarga turli narsalar bilan savdo qilishga ijozat berish hamda ularni «siquvlar va ranjitishlaridan» himoya qilish to'g'risida Qozon va Astraxan askarboshilariga, shuningdek boshqa shaharlar askarboshilariga podsho farmoyishi bilan beriladigan xonni xabardor qilish qiziqtirar edi.

Ivan Xoxlovning elchiligi 1620 yil 21 iyulda Buxorova Xiva elchilari Odambiy va Rahimqul bilan birga Qozondan jo'nab ketadi. Elchilik tarkibida tarjimonlar Ivan Tirkov va Semeyki Gerasimovlar bor edi. Elchilik bosib o'tgan yo'l Astraxan Kaspiy dengizi – Tupkaragan pristani – Xayrobod-Buxoro orqali tushgan edi. Xoxlov va uning hamrohlari yo'lga ketgan vaqtini hisoblaganda 30 oyga (1620 yil 21 iyuldan 1622 yil 12 dekabrga) qadar bo'lgan edilar.

Ivan Xoxlov hisobidan ma'lum bo'lashicha elchilik o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishgan edi. Elchilik qaytib ketayotganida Xivada unga Imomqulixonning elchisi Odambiy boy sovg'alar bilan etib oladi. Elchilik Moskva podshosi uchun «ikki arg'umoq, chodir uy, pichoq, toshlar bilan bezatilgan qinlar, oltita baxmal, to'qqizta ipak, tuya» beriladi. Imomqulixon unga yo'l xarajatlari uchun 400 tanga, o'zi uchun boy sovg'alar – egar va yuganlik arg'umoq, tilla ip bilan tikilgan shohi belbog' bergan edi. U o'z saroyidagi 23 nafar rusni ozod etgan edi. Elchilikning moddama-modda ro'yxati va boshqa hujjatlarda ikkala O'rta Osiyo xonligi – Xiva va Buxoro xonliklarining XVII asr birinchi choragidagi ichki va xalqaro ahvoli to'g'risida eng qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**1717 yil Florio Beneveni elchiligi.** 1717 yil 17 iyulda Peterburgga Buxoro elchisi Qulibek o'z hamrohlari bilan keladi. U Buxoroga qaytishida Qulibek bilan birga Florio Beneveni elchiligi yuboriladi. Petr I ishonch yorliqlarini 1718 yil 9 iyulda imzolaydi. Elchilik 8 kishidan iborat bo'lib, uni xizmatkorlar va harbiy soqchilar kuzatib bordi.

Asli kelib chiqishi italyan bo'lgan F. Beneveni Buxoro xoniga topshirish uchun podno yorlig'i berilgan elchiga yana bir muhim, maxfiy hujjat uning Buxorodagi faoliyatiga taaluqli 7 banddan iborat yo'l-yo'riq yoki dastur topshirildi. Bunda eng muhimi – sharqqa eltadigan suv va quruqlik yo'llarini, rus savdosini qanday qilib kengaytirish mumkinligini surishtirib bilish, xonni Rossiya bilan harbiy ittifoq tuzishga ko'ndirish va unga rus askarlari gvardiyasini taklif etish, oltin to'g'risida qaerdan, qancha qazib olishligini bilishdan iborat edi. Buxoro qurolli kuchlari tuzilmasini hamda ularning holatini ham aniqlash zarur edi. Elchi Buxoroning Eron, Xiva va Turkiya bilan o'zaro aloqalarini o'rganishga ham e'tibor berishi kerak edi.

F. Beneveni elchiligi Buxoroda jami 3,5 yil (1721 6 noyabrda 1725 yil 8 aprelgacha) turdi. Elchilik xodimlari boy haqiqiy material to'plab, uni Sankt-Peterburg ochiq xat va shifrlangan matn tarzida junatib turdilar.

XVII asrda turkiston Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi, O'rta juz, Qichiq juz hamda Qashkariya (Sharqiy Turkiston) xonliklarini bo'linib ketgan edi. Siyosiy tarqoqlik hamda savdo yo'li va ipak yo'li o'z yunalishlarini o'zgartirib, dengiz muhitlariga ko'chishi turkistonning iqtisodiy, madaniy jihatdan tushunlikka

olib kelgan sabablaridan biridir. Ikkinchidan, xonliklar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar ham barcha xonliklarga xo'jalik va madaniy hayotini orqaga qaytishiga olib keladi.

Shunday davrda «shajarai tarokima» yozma obidaning muallifi Xiva xoni, Abulg'oziy Arab Muhammadxon o'g'li hijriy 1012 yil 15 Rabbiyul avval oyida, milodiy sana 1603 yil 12 avgustda XVII asrdagi Xiva xonligi poytaxti Urgench shahrida tavallud topgan, o'zbek elatining Qo'ngirot urug'idandir. Abulg'oziy bahodirxonning asarlari ichida «Shajarai Tarokimiy» (Turkmanlar shajarasi) «Shajarai turk» (Turklar shajarasi) muhim o'rinni egallaydi.

Muallifning aytishiga qaraganda, «Shajarai tarokima» turkman oqsoqollari va ulug' boshliqlarning taklifiga ko'ra oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o'g'loni ham anglaydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari Muhammad alayhissalom payg'ambarning Xom, Som, Efon hamda uni o'g'li Turk haqida hikoya qilinadi, Turk, mug'ul xalqlari turixi so'zlanadi. Qoraxon o'g'li Uguzxon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'guz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larning bir-biri bilan bog'langan nutqlari, tarixiy-etnogenezi ko'rsatib o'tishadi.

Shuningdek, Xiva xonligi bilan Turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tilgan «Shajarai tarokima» asari Abulg'oziy Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'ganidan so'ng yozilganligi ta'kidlanadi. Bu ma'lumotga qaraganda 1660-1661 yillar orasida ijod qilgan «Shajarai tarokima» yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat etish uchun olib borgan kurashlar bayon etilgan, O'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilish ko'rsatilgan.

### **Savollar**

- 1.A.Jenkinson elchiligi asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?
- 2.Ivan Xoxlov elchiligida erishilgan natijalar ioxiyati nimada edi?
- 3.Chet ellik sayyohlarning malumotarida xonliklar tarixining yoritilish darajasi qanday buldi?

## **4-MAVZU: XIX ASR BIRINCHI CHORAGIDA BUXORO VA ROSSIYA MUNOSABATLARIGA DOIR NASHR ETILGAN TARIXIY MANBALAR.**

### **Режа**

1. Meyndorfning «Orenburgdan Buxoroga sayyohat» asari.
2. A. Bernsning 1821-1833 yillarda Buxoroga qilgan «sayyohatidan».
3. N. Xanikovning «Opisanie Buxarskogo xanstva» nomli asari.

**Tayanch iboralari:** Meyndorf, A. Berns, sayyohat, missiya, elchi, asar, yozuvlar ekspeditsiya, Buxoro, Xiva.

XIX asrning birinchi choragida Buxoro va Rossiya munosabatlariga doir nashr etilgan manbalarni o'rganishda, bu ikki davlat aloqalari ishtirokchilarining asarlari asosiy o'rinni tutib, ular ichida 1820 yilda A.F. Negri boshchiligida Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya tarkibida qatnashgan G. Meyndorf, E. Eversman va Budrin asarlari ayniqsa xarakterlidir. Bu asarlarda XIX

asrning birinchi choragida Buxoro va Rossiya o'ratsida olib borilgan savdo va diplomatik aloqalarning umumiy holatini; o'zaro savdoda chiqariladigan va olib kelinadigan mollarning turi, hajmi, narxlari va savdo oborotida ularning tutgan o'rni hamda diplomatik missiyasi va elchiliklarning yuborilish sabablari, ularning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalari va keltirilgan natijalarini aniqlab beruvchi juda qimmatbaho ma'lumotlar keltirilgan.

**1.Meyndorfning «Orenburgdan Buxoroga sayyohat»** nomli asari Francuz tilida turkolog Amediy Jobert taxriri astida 1826 yili Parijda nashr etilib, shu yilning o'zidayoq nemis tilidagi tarjimasi K. Xerm va V. Sheyder tahriri bilan chiqilgan.

Kitob uch qismdan iborat bo'lib, kitobning eng ajoyib va qimmatli qismi uchinchi qismi bo'lib, unda Buxoro xonligining geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzilishi sistematik ravishda bayon qilingan. Asarning bu qismida Buxoro xonligining iqtisodig, etnografiyasiga, tarixiga hamda tashqi davlatlar jumladan Rossiya bilan olib borgan savdo va diplomatik aloqalariga bag'ishlangan maxsus qimmatli bo'lim bo'lib, ularda Buxoroning aholisi, mashg'ulotlari, qishloq xo'jalik sug'orish sistemasi, hunarmandlarning, ayniqsa xotin-qizlarning ahvoliga oid juda ko'p qimmatbaho ma'lumotlar keltiriladi.

G. Meyndorfning asari, asosan avtorning shaxsiy mulohazasi, kishilardan eshitgan va so'rab bilgan ma'lumotlari asosida yozilib, kitobda keltirilgan ko'pdan-kop izohlar va dalillar G. Meyndorfning O'rta Osiyo mahalliy tarixiy asarlaridan hamda O'rta Osiyoga o'zidan avval kelgan Evropalik sayyohatchilarning yozib qoldirgan xotiralaridan keng foydalanganligini ko'rsatadi.

Buxoro va Rossiya munosabatlari tarixini bayon qilishda avtor A. Jenkinson (1558 y.), Bekovich Cherkasskiy (1714-1718 yy.), F. Beneveni (1720-1725 y.) elchilari to'g'risida yozilgan adabiyotlar hamda O'rta Osiyo geografiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Meyndorf bu asarni yozishdan oldin 1819 yilda Xiva Xonligiga yuborilgan rus elchilari N. Muravyov, R. Danibek, E. Eversman asarlaridan hatto Ulug'bek, Abulg'ozzi asarlaridan foydalanilgan.

G. Meyndorf o'z asarlarida Buxoro va Rossiya munosabatlari ustida to'xtalib, ularning tarixiga oid juda kizik materiallar keltiradi. Ular orasida qadimgi Sharqiy Evropadan sharq mamlakatlari: Hindiston, Xitoyga o'tgan tranzit savdo yuli Buxoro orqali o'tib, bu savdo Buxoroning vositachilik rolini ko'rsatuvchi ma'lumotlar bor. Avtor Buxoroning sharqiy evropa davlatlari bilan bo'lgan savdo aloqalari eramizgacha bo'lgan III asrlardan boshlab, somoniylar davriga kelib (X) ayniqsa rivojlanganligi. Chingizxon davrida buzilib Temur tomonidan yana qayta tiklanganligi to'g'risida yozadi.

Asarda o'rta asrlarda Buxoro va Rossiya munosabatlarining Sibir va Astraxan orqali olib borilishi va rus podsholari Temuriylar bilan savdo munosabatlari olib borganliklari tug'risida juda ko'p qiziqarli materiallar berilgan. Avtorning yozishicha, Buxoro savdogarlari XVIII asrgacha Tara, Tomsk va Tobol shaharlariga borib, o'z gazlamalarini Sibir mo'ynalariga va temirga ayirbosh qilardilar.

Meyndorf o'z asarida XIX asrning boshida Buxoro savdogarlari uchun Rossiyada yaratib berilgan engilliklar va yarmarkalarda buxoroliklarning olib borgan savdo operaciyalari to'g'risida ko'pdan-qo'p ajoyib ma'lumotlar keltiradi.

Uning yozishicha: Buxoro savdogarlari Rossiyaning O'rta Osiyo bilan chegaradosh shaharlarida 1807 yildan boshlab esa Nijgorod, Ibriy yarmarkalarda savdo qilish imtiyoziga ega edilar.

Meyndorfning fikricha: Buxoro savdogarlari uchun Rossiyanin gichki bozorlarida ochiq savdo qilishiga ruxsat etilishi birinchidan chegara shaharlaridagi chakana savdoning bir muncha qiskarib ketishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchidan buxoroliklarni rus mollarining haqiqiy bahosi bilan tanishtirib, rus savdogarlarining buxoroliklar bilan bo'lgan savdodan oladigan foydalaridan anchagina mahrum etgan edi.

Asarda keltirilgan faktik ma'lumotlar Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mollarning asosini paxta, yigirilgan ip, mahalliy iplar, bo'z, kashimir shoi ro'mollari, quruq mevalar, qorako'l va madaniy mollar tashkil etishini ko'rsatib berdi. M-n: Bu ro'yxat bo'yicha 1819 yilda Buxorodan Orenburg orqali Rossiyaga 16 ming 813 pud paxta, 18 ming 928 pud yigirilgan ip, 20 ming 410 to'p ip-gazlama, ya'ni bo'z, 151 ming 600 to'p, har to'pi 24 metrdan rangli gazlama va boshqalar chiqarilgan edi.

Meyndorf Buxoro bilan Rossiya savdo munosabatlariga baho berib, bu savdoning XIX asrning birinchi choragida juda ham rivojlanganligi va uzoq vaqt mana shu davom etishi mumkinligi to'g'risida yozadi. Avtorning fikricha bu ikki davlatning savdo aloqalari bir tomonidan Rossiyaning janubiy rayonlarida paxtachilik va ipakchilik rivojlanmaguncha, ikkinchidan Buxoro xonligida sanoat, ayniqsa misni ishlab chiqarish va to'qimachilik rivojlanmaguncha mana shunday rivojlana borardi.

Haqiqatdan ham G. Meyndorfning Buxoro-Rossiya munosabatlari to'g'risida bergan mana shu fikri juda ham to'g'ri bo'lib, sanoat rivojlanib, paxta va ipak singari xomashyoga muhtoj bo'lgan Rossiya ham o'zida metal va sanoat mollari ishlab chiqarishga ega bo'lmagan va ularga muhtoj bo'lgan Buxoro xonligi ham bu savdodan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

**2.A. Bernsning 1821-1833 yillarda Buxoroga qilgan «sayyohatidan».**XIX asrning 30-40 yillarida buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa diplomatik aloqalarning ayrim holatlari ustida to'xtalar ekanmiz, xuddi shu vaqtlarda O'rta osiyo bozorlariga ingdiz sanoat mollarining kirib kelishi va bu erda ingliz raqobatchilarining olib borgan qo'poruvchilik ishlari kabi misollarning umumiy holatini aniqlab olishga to'g'ri keladi.

Chunki, XIX asrning 30-yillariga kelganda Rossiya O'rta Osiyo bozorlarida kapitalistik jihatdan juda rivojlangan davlat Angliya bilan to'qnashgan edi. Mana shuning uchun ham xalqaro miqyosida paydo bo'lgan bu vaziyatda Rossiyaning O'rta osiyoga nisbatan olib borayotgan siyosatiga shuningdek, Buxoro bilan bo'lgan munosobatlarga katta ta'sir ko'rsatgan edi.

XIX asrning 30 yillarida ingliz siyosatchilari va diplomatlari O'rta Osiyo hamda unga qo'shni bo'lgan davlatchilarni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rish bilan bir vaqtda, go'yo Rossiya Hindistonga qarshi yurish uchun zo'r berib tayrgarlik ko'rsatayotgan emish, deb butun dunyoga ovozlarini barala qo'yib baqirar edilar. Shu bilan birga, ular Rossiya bosib kelayotgani uchun Angliya faqat «o'zining Hindistonni» himoya qilayapti, deb isbot qilishga zo'r berib urinadilar. Haqiqatda esa bu bilan ular o'zlarining O'rta Osiyoni bosib olish uchun qilayotgan agressiv harakatlarini bekitmoqchi bo'lgan edilar.

Inglizlar O'rta Osiyoda, jumladan Buxoro xonligida o'z hukmronligini o'rnatish uchun, hammadan avval, bir tomonidan bu rayonlar bilan iqtisodiy aloqalar bog'lab, O'rta Osiyo bozorlarini Angliya ta'siriga olish, ikkinchidan diplomatik munosabatlar bilan siqib, u erda o'z hukmronligini o'rnatishni ko'zda tutgan edilar.

Savdogarlarning bergan ayrim ma'lumotlariga qaraganda, Angliyaning sanoat mollari O'rta Osiyo bozorlarida birinchi marta 1820 yillarda paydo bo'lgan edi.

Ingliz mollarining O'rta Osiyo bozorlariga kirib kelishi bilan Rossiyada paydo bo'lgan bezovatalik Ost-Ind kompaniyasining leytenant A. Bernsning 1821-1833 yillarda Buxoroga qilgan «sayyohatidan» keyin kuchayadi. Chunki, A. Bernsning oldiga qo'yilgan vazifalaridan biri Hind daryosi bo'ylab O'rta osiyoga Hindistondan yangi savdo yo'lini ochish va bu daryo orqali mollar olib borish uchun Hind hokimi bilan shartnoma tuzishdan iborat edi.

Shubhasiz, inglizlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi uchun bu yangi yo'lning barpo etilishi xonlikdagi rus savdo munosabatlariga bevosita xavf tug'dirardi. Shunday qilib, XIX asrning 30-yillaridan boshlab, O'rta Osiyoga ingliz-rus savdo raqobati vujudga keldi.

Berns o'zini arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan Berns Qushbegi bilan aloqa bog'lay oldi. U Qushbegi bilan olib borgan suhbatlarida Angliya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo rivojlanishi masasalarini muhokama qildi. Byorns ta'kidlashicha, qushbegi uning yana elchi bo'lib kelishi mumkinligicha ijobiy qaragan va harbiy kuch to'g'risida so'roqlab bilib olgan. Byorns qaytayotganida joyning topografiyasini, uning tabiiy sharoiti, oziq-ovqat hamda em-xashak zaxiralari, daryo kechuvalari va hokazolarni o'rganib oldi.

Aslida, XIX asrning 20 yillarida O'rta Osiyoga yuborilgan ingliz missiyalari asosan, Angliya burjuaziyasi tomonidan yuborilib, 30 yillarga kelganda burjuaziya Britaniya hukumatini o'zi bevosita rahbarlik qila boshlaydi. Bu voqea inglizlarning agressiv rejalarini amalga oshirish O'rta Osiyoga qa'tiiy suratda kirib kelishidan darak berar edi.

Buning asosiy sababi 1825 yilda Angliyada boshlangan krizis bo'lib, u butun Angliya sanoatining deyarli ko'pgina qismini o'z ichiga olgan edi. Oqibatda mamlakatning butun iqtisodiyoti katta zarar qurgan edi. Bu og'ir ahvoldan qutulish uchun ingliz hukumati XIX asrning 30-yillarida butun O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo bo'ylab keng savdo va diplomatik yurish qilishga boshlaydi.

Shunday yurishning muhim etaplaridan biri 1831-1833 yillarda Hindistondan ingliz-hind harbiy va siyosiy razvedkasining agent A. Byorns Qobulga va Buxoroga yuborilishidan boshlanadi.

A. Byorns o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun har xil va'dalar, hamda vaqti kelganda «ochiqo'llik» bilan oltin ulashish kabi yo'llarni qo'llaydi. U Buxoroda xonlikni ingliz hokimligiga bo'ysundirish uchun kerak bo'lgan har xil iqtisodiy, siyosiy va harbiy ma'lumotlarni to'playdi. Buxoroda u O'rta Osiyo savdosi to'g'risida, savdo yo'llari va markazlari, chiqariladigan va olib kelinadigan asosiy mollar, ayniqsa uni O'rta Osiyoga Rossiyadan keltiriladigan sanoat mollari qiziqtirar edi. Hatto Buxoro bozorlariga olib kelingan rus sayyohlari mollarining ro'yxatini ham olgan edi.

Keyin A. Byorns Turkmaniston va Eron orqali Hindistonga qaytib kelib, general gubernator Uilyam Bentinkaga o'z safari to'g'risida batafsil hisobotini taqdim etdi.

Shunday qilib, A. Byorns Buxoroda, umuman O'rta Osiyoda juda chuqur razvedka olib bordi va inglizlarning O'rta Osiyoning eng ichkari rayonlariga bosib kirish va O'rta Osiyo xalqlarini qul qilish rejalarini amalga oshirish uchun juda kerakli ma'lumotlar bilan Britaniya hukumatini voqif etadi.

**3. N.Xanikovning «Opisanie Buxarskogo xanstva» nomli asari.** Abdullasamad asta-sekin amir Nasrullo oldida shunchalik obro'yga ega bo'ladiki, hatto 1842 yilda Buxoroda bo'lgan N. Xanikov, birdan-bir u xonlikda ta'sirga ega bo'lgan kishi deb yozgan edi. Shu vaqtlarda amir unga noiblik vazifasini beradi. U Buxoro xonligini butun harbiy qo'shini ustidan qo'mondonlikni o'z qo'liga olib, Buxoro amirining yurishlarida ishtirok eta boshlaydi. Uning to'plari va yangi tartibdagi otryadlari vositasi bilan Xujand, O'ratepa shaharlari, Shom va mahram qal'alari bosib olinadi.

Ammo, oradan ko'p vaqt o'tmasdan Buxoroda Abdusamadning haqiqiy basharasi ochilib qoladi. Chunki u bu vaqtlarda Buxoroga kelgan ingliz agentlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ingliz agenturasi foydasiga ish olib bormoqda edi. U keyin Buxoro amiri tomonidan zindonga tashlanadi va keyinchalik osib o'ldiriladi.

1841 yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatik missiyaning bergan ilmiy natijalaridan biri N. Xanikovning «Opisanie Buxarskogo xanstva» nomli asari bo'lib, u XIX asrning ikkinchi choragi davomida bu ikki davlatning o'zaro munosabatlarining ayrim tomonlarini o'rganishda bizni qimmatbaxo, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'min etadi.

N. Xanikov asari 1843 yilda Peterburgda nashr etilib, asosan avtorning Buxoroda olib borgan shaxsiy kuzatilishlari va kishilardan eshitgan ma'lumotlari asosida yozilgan. Bundan tashkari, avtor o'zidan avval Buxoro xonligida bo'lgan sayyohatchilarning Buxoro to'g'risida yozib qoldirgan xotiranomalaridan ham foydalangan.

Asar 8 bobdan iborat bo'lib, uning oxirida Buxoro xonligining xaritasi, Buxoro va Samarqand shaharlarining plani berilgan. Adabiyotlarda ko'rsatilishiga qaramasdan, bu xarita va planlar rus diplomatik missiyasining sostavida qatnashgan poliograf Yakovlev tomonidan to'plangan materiallari asosida tuzilgan edi.

Xanikovning asari Buxoro xonligini hamma tomonlariga tasvir etuvchi asar bo'lib, u XIX asrning 30-40 yillariga oid Buxoro xonligining tarixi, shuningdek ayni zamonda Buxoro va Rossiya munosabatlarini o'rganishda birinchi darajali manbadir.

Bu asarning oldiga qo'ygan asosiy vazifa, manbalarda Buxoro xonligi bilan Rossiya o'ratsidagi munosabatlarga oid bergan ma'lumotlarni xarakterlab berish bo'lgani sababli, N. Xanikovning asari ustida to'xtalganda, avvalo uning mana shu yuqorida ko'rsatilgan masalaga doir ma'lumotlarini xarakterlab, so'ngra Buxoro xonligining tarixiga oid ma'lumotlari ustida biroz to'xtashga to'g'ri keladi.

Agarda avtor Rossiya va Buxoro savdosida qatnaydigan karvonsaroylarning Buxorodan chiqishi va Rossiyadan qaytishi vaqtalirin, savdo qilish punktlarini birma-bir qayd qilib o'tadi. Shu bilan birga, asrda Buxorodan Rossiyaga va

aksincha Rossiyadan Buxoroga chiqariladigan asosiy mahsulotlar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Bulardan tashqari, N. Xanikov asarida Rossiya va Buxoro o'rtasidagi savdoning umumiy hajmi to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi. Uning bergan ma'lumotlariga ko'ra Buxorodan Rossiyaga o'rtacha hisob bilan yiliga 5-6 mingga yaqin tuyada olib borilib, har bir tuyaga 18-20 put yuk ortilar edi. Uning bergan ma'lumotlari bo'yicha, Buxorodan o'rtacha hisob bilan yiliga 3,5 yoki 4 mln. so'mlik mol olib borilgan.

Avtor Buxoroda sotiladigan mollarning narxini keltirar ekan, rus chitlari bilan ingliz chitlarining ham bahosini beradi. Rus chitining 47-48 arshinli ikki oltinga sotilsa, ingliz chitining 35-36 arshinli tup 2.25 va 3 oltingacha sotilar edi.

N. Xanikovning asari asosan Buxoro xonligining tarixini o'rganishda birinchi darajali manba bo'lib, unda mamlakatning geografik o'rni, territoriyasi, geografiyasi, toglari, daryosi, iqlimi, xalqlari va ularning mashg'uloti, mamlakatning siyosati, ma'muriy bulinishi va ma'rifati sistematik ravishda juda mufassal qilib tasvir etilgan.

Haqiqatdan ham N. Xanikovning kitobi o'z vaqtida Buxoro xonligi to'g'risida juda boy va yangi ma'lumotlar asosida rus tilida yozilgan asar bo'lib, to hozirgi vaqtlargacha XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligi va uning iqtisodini o'rganuvchi tarixchilar uchun birinchi darajali qo'llanma sifatida xizmat qilib keladi.

N. Xanikov o'sha vaqtlarda birinchi bo'lib Buxoro xonligida erga bo'lgan xususiy mulkchilik to'g'risida ma'lumot berib, er egaligi turlarini tasvir etadi. Asarda Buxoro xonligida bo'lgan mansablar, unvonlar to'g'risida ham ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan tashqari, avtor Buxoro xonligining davlat tuzilishini juda yaxshi tasvir etadi. Shunday qilib, N. Xanikovning asari XIX asrning ikkinchi choraidga Buxoro xonligining tarixi, iqtisodi, siyosiy tuzilishi, shuningdek geografik o'rni, aholisini o'rganishda birinchi darajali manbalardandir.

XIX asrning 30-40 yillarida ingliz burjuaziyasi mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga muhim rolga ega bo'ldi, yangi mustamlaka bozorlarini va xomashyo manbalarini qo'lga kiritishga, hamda zaif, orqada qolgan mamlakatlarni bosib olishga, u erdagi xalqlarni qul qilib ularning bu yellariga mustamlakachilari XIX asrning birinchi va ikkinchi choraklarida Hindistondagi hali bosib olinmagan mustaqil davlatlarni bosib olish bilan boshqa qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazishga katta e'tibor berdilar. Shuningdek harbiy, siyosiy qo'poruvchilik maqsadlari bilan O'rta Osiyoga o'z elchi missiyalarini yuborib, qo'shni davlatlarning ichki va tashqi ishlariga aralashadilar.

Ingliz mustamlakachilari Afgoniston, Buxoro, Xiva va Qo'qonga Britaniyaning bo'lajak koloniyasi va shuningdek Rossiyaga hujum qilishda qulay placdarm deb qaradilar.

XIX asrning 30-yillar oxiri 40 yillarning boshida O'rta Osiyoga Stert, polkovnik Stoddart, Artur, Konolli, Abbat, Shekspir va boshqa bir qancha ingliz agentlari yuboriladi. Bu shaxslarning asosiy vazifalari O'rta Osiyo xonliklarini Angliya ta'siriga tortish, O'rta Osiyo va unga chegaradosh bo'lgan erlarda razvedka ishlarini olib borish, ingliz agenturasi uchun ma'lumotlar to'plash, Rossiyaga qarshi tashvikot va targ'ibot tarqatish, Rossiyaga qarshi koloniya tuzish

va O'rta Osiyoni Rossiyaga qarshi kurashishda tayanch nuqtaga aylantirishdan iborat edi.

1839 yili Xirotda Doren Todd yuboriladi. Toddning asosiy faoliyati O'rta Osiyoda ingliz kolonial va agressiv siyosatini amalga oshirishdan iborat bo'ldi.

Doren Todd tomonidan 1835 yili polkovnik Stoddart, 1841 yili Kanolli razvedka va qo'poruvchilik ishlarini olib borish uchun Buxoro xonligiga yuboriladi. Ammo bu shaxslar Buxoroda to'la mag'lubiyatga uchraydi.

Ingliz bosqinchilari Buxoroda mag'lubiyatga uchraganlaridan so'ng, Xiva xonligi bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi ixtiloflardan va Petrovskiyning Xivaga yurishi munosabati bilan Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashganligidan foydalanib, Xiva xonligiga suqilib kirish maksadiga tushadir. Ular avvalo 1839 yilda Mulla Xusaynni Xivaga yuboriladi. Mulla Xusayn qaytib kelgandan so'ng, tez fursatda Todd kapitan Abbot boshchiligida Xivaga yurish uchun yangi ekspediciya tashkil qiladi. Bu ekspediciya 1840 yili Xivaga kelib xon bilan uchrashadi. Ularning xon bilan olib borgan muzokaralari haqida Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy Xiva tarixiga oid kqo'lyozma asarlarida ma'lumotlar beriladi.

Xiva tarixchisi Ogahiy uz asarlarida Abbotning xon bilan olib borgan muzokaralari ustida to'xtab o'tmasa ham, uning shohona hadyalari olib kelganligini va xon tomonidan qabul qilinganligini eslatib o'tadi.

Yuqoridagi manbalarga nisbatan ingliz josusi Abbotning yaramas ishlarini fosh etishda va ingliz istilochilari faqat O'rta Osiyodagina emas, balki Rossiyaning ham shunday dushmani ekanliklarini kursatishda Xiva tarixchisi Muhammadyusuf Bayoniyning «Shajarai Xorazm shohi» nomli qo'lyozma asarida bergan ma'lumoti katta ilmiy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Shekspir va Abbot singari o'zining qabix niyatlarini amalga oshira olmasdan, Rossiya orqali Londonga qaytib ketadi. 1841 yilda Buxoroda zindonga tashlangan Britaniya agenturasining vakili polkovnik Stoddartni qutkarish bahonasi bilan Konolli Xiva xonligiga keladi.

Xulosa qilib aytganimizda, XIX asrning 40-50 yillarida ingliz mustamlakachilarining Xiva xonligidagi tajovuzkorlik ishlarini tasvir etishda charxlangan manbalar juda katta ashyoviy va ilmiy ahamiyatga ega.

### **Savol va topshiriklar:**

1. Rossiyadan O'rta Osiyoga kelgan Bekovich-Cherkasskiy ekspediciyasi nima bilan tugagan edi?
2. Ingliz Antonio Jenkinson qanaqa kompaniyaning vaqili va nima maqsadda Buxoroga kelgan edi?
3. O'rta Osiyo bo'yicha ingliz ekspediciyasi va missiyasining xujjatlari nimalardan iborat edi?
4. «Orenburgdan Buxoroga sayyohat» asarining muharriri kim?



## 5-Mab3y: Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajaraiy Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asari.

### Reja

1. Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti va ijodiy faoliyati.
2. “Shajaraiy Xorazmshohiy” asari.
3. “Xorazm tarixi” asarida Xorazim-Rossiya munosabatlari Muhammad Yusuf Bayoniy ijodida o’rganilishi.

**Tayanch iboralari:** Muhammad Yusuf Bayoniy, “Shajaraiy Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi”, Chun Ernazar otaliq, Muhammad Rahimboy.

**Muhmamad Yusuf Bayoniy.** (1923 yili vafot etgan) –XX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida o’tgan xorazmlik adabiyotshunos va tarixshunos olim. To’liq ismi-sharifi Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniy. U el-ulush o’tmishini keyingi avlodlarga yozib qolidirish an’anasi o’lkada «Avesto»dan boshlanadi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Muhammad Solih, Munis Xorazmiy, Ogahiy kabi allomalar yozib qoldirgan savob va ezgu ishini Muhammad Bayoniy davom qildirdi (1840-1923). Butun Turkiston, jumladan Xorazm hududida milliy davlatchilik o’rnida mustamlakachilik tartiblariga so’ssiz itoat qiluvchi vassallik shartlariga bo’ysundirilgan, siyosiy kishanlangan davlat fuqarosi sifatida tarix yozishdek og’ir vazifani Muhammad Yusuf o’z zimmasiga oldi. Bayoniy qanchalik azobli va mashaqatli bo’lmasin kelgusi avlodlar yurt bo’yiniga mustamlakachilik sirtmog’ini dahshatli tarzda kiydirilishini tarix haqiqati asosida yozmoq uchun Xorazm vohasidan Eron sarhadlarigacha turkman hududlarini yayov kezib chiqdi. O’lkaning mustamlakachilar tomonidan g’orat qilinishiga doir manbalar, dalillar yig’di. Muhammad Yusuf Bayoniy tarix faniga – moziy ilmiga ma’rifat va haqiqat chirog’i deb qiradi. Bayoniy tarixiy hodisalar g’oyat to’g’ri va ishonchli yozilishini tarbiyaviy ma’rifat ahamiyati haqida shunday yozadi: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozishda tarafdorlik etmasdan, bo’lgan hodislarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rasmiylik bilan bayon etmasa, uning so’zlari gech bir odamga ma’qul bo’lmaydi».

Bayoniy shularga amal qilib ikkita tarixiy asar «Xorazm tarixi» va «Shajaraiy Xorazmshohiy» deb nomlangan asarlaridir. Haqiqatdan ham Baniy o’z davrining haqiqiy muharriri bo’lib, Xiva xonligining chor Rossiyasi bosib olinishi va talon-taroj etilishini atroflicha sodda xalk tilida yozib bera olgan yirik tarixchi darajasiga kitariladi.

Uning “Shajaraiy Xorazmshohiy” (Xorazm podshohlarining shajarasi) nomli katta muhim tarixiy asar. Mazkur asar 16 bobdan iborat bo’lib, uning birinchi bobida Odam alayhissalomdan turk-mug’ul xalqlarining afsonaviy avlodi Yofas o’g’longacha kechgan tarixi bayon etiladi, undan keyin tadrijiy tartibda Xorazmning 1913-14 yilgacha bo’lgan tarixi zikir etilgan. Asarning katta qismi Munisning “Zubdat ut-tavorix” asarlari materiallariga tayanib yozilgan. Uning bir qismi Muhammad Aminxon (1846-1855) va Isfandiyorxon davrining yetti yilgacha (1913-14) bo’lgan voqealarni ko’rgan-bilganlarning hikoyalari bilan birga muallifning o’zi ko’rgan voqealari asosida yozilgan.

Asar hali to'la ravishda chop etilmagan. Qo'lyozma nusxalari (tartib raqami: 607/9596; 515 varaq; 742; 91 varaq to'la emas) O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi.

**Xorazim-Rossiya munosabatlari Muhammad Yusuf Bayoniy ijodida o'rganilishi.** Vaqtikem, yamut bilan yarashtilar, devonbegi qaytib kelib mulozamatg'a yetib avotifi xusravona bila sarafroz bo'ldi. Mundin so'ng aslo yamut yamonlik etmadi. Hijratning ming ikki yuz sakson beshlanchisida bahri Hazar kenorida baliqchilik etib yurigan Rusiya fuqarolaridan bazilarini Manqishloq qozoqlaridan bir jamoa asir etib keltirub, Xevaqda sotmoq boshladilar. Ikki yil oradin o'tib, asirlar yigirma birga yetdi.

Hijratning ming ikki yuz sakson yettilanchi yilida Rusiya davlati mundin ogoh bo'lib elchi yoborib, ul asirlarni tiladi. Elchi kelib xon xazratlarini noma mazmunidan ogoh bo'lib arkoni davlat bilan maslahat etib, asirlarni bermay elchining yonig'a qalfoq Ernazar otaliq kenagasni rldchi yusunida qo'shib yubordilar.

Chun Ernazar otaliq borib keldi, xon xazratlarini Rusiya bila modaro qilmoqg'a ko'p targ'ib etdi. Oning so'ziga quloq solmadilar. Mundin necha muddat o'tgandin so'ng, yana Rusiya davlati tarafidan Davlat to'ra ibn Bushoy to'ra otaliq bir qozoq elchi bo'lib keldi va xon xazratlarini ko'rib, peshkashlarin o'tkarib nomani berdi. Mazmuni bu edikim: "Siz jamoa bila bizlar burundin dustliq bila ravish etib yurur erduk. Alhol, eshiturmizki, bir necha o'g'ri va avboshlar biz jamoadin bir necha kishini asir etib, eltib, ul taraflarda nazarda tutilgan sotg'on emishlar. Tavaqqu uldurkim, burung'i do'stliqning rioyasini tutib ul asirlarni berib yuborgaysiz. Qozonlidin ul tarafi sizning haddingiz va bu tarafi bizga mutaaliqdir. Mundin so'ng aslo bir-birimizning haddimizga muta'ariz bo'lamay, do'stona sulukni maslik tutg'aymiz. Odam avlodi aziz va mukarram jamoadurlar. O'larni chorpoy qatorlarida bozorg'a solib hech viloyatda yo'qdur. Sizlar ham mundog' ishini etmasangiz yaxshiroqdir. Bu so'zlarki qabul etanagiz, biz jamoaning boisi minnaddorliqimizdir. Vagarna mundog' ishlarning oxiri nizo va harbg'a munjar bo'lur, vassalom".

Chun xon xazratlari noma mazmunidan ogoh bo'ldilar, yana Muhammadmurod devonbegi boshliq arkoni davlatga mashvarat etdilar. Ba'zilar asirlarni berib yubormakni hushladilar. Ba'zilar dedilar: "Agar asirlarni berib yuborsak, bizlarni xavfnok bo'ldi deb, bizga daler bulurlar. Bas, oni bermagan avlodur". Xon xazratlariga shiqqi soniy maqbul tushib asirlarni ermay elchini Benil Gavharmurod qaytarib yubordilar. Ushbu yili Rusiya davlati dubora Jazol G'ombirufni bir miqdor lashkar bila yuborib, Samarqandi zarafshon vodiylarini zabt etib, Ho'qand bila Buxoro oralig'iga kirdi va ushbu yil Nazar qushbegi jahoni foniyg'a vido qilib, ondin to'rt o'g'il qoldi. Avvalgisi Xudoyorbek, ikkilanchi Olloyorbek, uchlanchi Mahdiyobek, to'rtlanchi Davlatyorbek. Xon xazratlari Xudoyorbekni otasining o'rnig'a qushbegi etdilar va ushbu yil amir Muzaffarning o'g'li to'ra otasig'a sarkashlik etib, ikki yuz sarbozu bir to'qsoba va bir miqdor otli bila keldi. Xon xazratlari istiqbolig'a kishi yuborib e'zozu ikrom birla kelturub, po'rsishi mushfiqona bila ko'nglin xush qilib vofir vazifa tayin etdilar va Buxorodin chiqishlarining kayfiyatini so'radilar. Ul to'ra aytdi: "Otamiz Buxoro viloyatini Russiyag'aga bermakchi bo'ldilar. Biz mone bo'lib urushg'a targ'ib etduk. Otamizg'a bu so'zlarimiz xush kelmay orada vaxshat paydo bo'ldi. Ondin so'ng ul yerda turmoqni maslahatdin bag'oyat ba'id ko'rib bayokbor chiqib, bu tarafga ravon bulduq". Ammo ul tojik to'raning husni suratda adilu badili yo'q erdikim, o'n sakkiz yoshida bir oftobi xovariydek yigit erdi. Oning musohiblaridin birining oning haqida oytg'an she'rlaridan bu misra xotirimda qolg'on erkan, misra "To'rajonimiz to'lon oyduurki, sitoradur umarolari". Malangxon otlig' afg'onkim, bir necha afg'on bila

oning xizmatida erdi, onga sarkashlik etib, dashnomu haqoratlar bermakni boshladi. To'ra xon hazratlarining mulozamatlarig'a borg'anda Malangxondan shikoyat etib, debdur:"Ul devonavor afg'on bizga ko'p haqoratlar berdi. O'z odamlarimizning olarni dastgir etmakka quvvatlari yo'qdir. "Xon hazratlari sarkardalardan biriga amir etdilar. Fihol, borib Malangxonni tamomi tobelari bilan tutib to'raga topshurib qaytdi. To'ra buyurdi , hammalarin qatlg'a yetkurdilar.

Ammo bu Tojik to'raning bu viloyatg'a kelganidin g'razi bu erdikim , xon xazratlaridin lashkar tilab olib, Buxorog'a borib, otasi amir Muzaffar bila urushg'ay. Ammo Muhammad Aminxoni jannatmakon Buxoro amiri bila sulh qilib ondin to hanuzgacha Buxoro bila Xorazmning orasig'a muxolifat tushgani yo'q erdi. Xon hazratlari onga borib otasi bila urushmoqi uchun lashkar berib yubormakni o'zlaridin g'oyatda noloyiq ko'rdilar. Chun Tojik to'ra bir necha oy Xorazmda tavaqquf etib buni angladimki, onga lshkar qo'shmasdurlar. Ondin so'ng xon hazratlaridin ruxsat olib, Tehron tarafig'a borurman, deb ketdi.

Vaqtikem , hijratning ming ikki yuz sakson sakkizlanchi (milodiy 1871-1872) yili kirdi. Xon hazratlarining ulug' birodarlari Sayyid Ahmad to'rakim, oni Otajon to'ra der edilar bag'oyat bahodiru cholok va zabardastu benihoyat tezu xashminginu tunxo'y kishi erdi. Xon hazratlarining muhabbatlari onga darajayi kamolda erdi. Bu sababdin oning xilofi ro'yini also etmas edilar. Amri oily bila mehtar ro'zmarralar beruru erdi va ne miqdor otdarkor bo'lsa, qushbegi berur erdi va ne miqdor orchin moli va qandu nabod darkor bo'lsa , devonbegi berur erdi. Bulardin boshqa , har oyda mehtardin ming sakkiz till ova devonbegidin ming sakkiz yuz tillo olur erdi va mulozamatira Jonibek ibn Paxlovonniyozbek ibn Amirzoda Hasanmurodbek mag'fur Vaqtekim, hijratning ming ikki yuz sakson sakkizlanchi (milodiy 1871 — 1872) yili kirdi, xon hazratlarining ulug' birodarlari Sayyid Ahmad to'rakim, oni Otajon to'ra der edilar, bag'oyat bahodiru cholok va zabardastu benihoyat tezu xashmginu tundxo'y kishi erdi. Xon hazratlarining muhabbatlari onga darajayi kamolda zrdi. Bu sababdin oning xilofi ro'yini aslo etmas edilar. Amri oliy bila mehtar ro'zmarralarn berur erdi. Yana ne miqdor sarpoy va ne miqdor dinoru diram darkor desa, berur erdi va ne miqdor ot darkor bo'lsa, qushbegi berur erdi va ne miqdor orchin moli va qandu nabot darkor bo'lsa, devonbegi berur erdi. Bulardin boshqa, har oyda mehtardin ming sakkiz yuz tillo va devonbegidin ming sakkiz yuz tillo olur erdi va mulozamatira Jonibekbek ibn Pahlavonniyozbek ibn Amirzoda Hasanmurodbek mag'fur va Abdug'afforbek nabirayi Muhammad Nazar inoq marhumiy va Xudoyor qushbegining birodari Olloyorbek va Muhammad Karimbek ibn Bog'bek beklar begi yana Muhammad Amin yuzboshining birodarzodasi Muhammad Rahimboy va Amon xalifaning o'g'li Ollobergan Saxiy va Yusuf ibn Latif hoji ta'vin topib edilar va Ali mahrambegi Sori nadimlari jumlasidin erdi. Ammo Otajon to'ra furumoya va behudakor kishilarni ko'proq yaxshi ko'rub, alarning ko'proq tarbiyatlarin etguvchi edilar. Bas, ko'p furumoyalar xizmatlarida jam' bo'lmish edilar.

Mazkur bo'lg'on sanada xabar keldikim, Rusiyadin bir jamoa bahri Xazardin chiqib, Shohqadamg'a kelibdurlar. Xon hazratlari Otajon to'raning yonig'a Xudoyor qushbegi va Hakim otaliq va Muhammadmurod devonbegi va g'ayruhumni qo'shub Tukmoniya va O'zbakiya jamoalaridin olti ming miqdori kishini hamroh qilib ul tarafga yubordilar. Otajon to'ra lashkar bila otlanib yo'lg'a kirib, ko'hna Urganchga borib qaror tutdi va ul yerda ko'ldin yamutlarg'a yer berishturdi va bu xizmatni Muhammadmurod devonbegiga buyurmay, Muhammad Rahimboyga buyurdi. Muhammad Rahimboy borib, yamutlardin say olib yer taqsimin etib keldi. Ondin so'ng Muhammad Rahimboyini o'zbek va

turkmandin to'rt yuz ellik talabgor yigitga bosh etib, Shohqadam tarafiga yubordi. Bular bahri Xazar, ya'ni Ashtarxon tengizining kenorig'acha borib, Rusiyadin nomi nishon topmay qaytib keldilar. Yana chovdar otlilaridin bir jamoani Kandarli quduq tarafiga yubordilar. Olar ham ul tarafga borib hyech kishiga yo'liqmay qaytib keldilar.

Ul ovonda amri oliy muqtazosicha, ming otli yamut bila Shohqadam tarafiga ketdi. Otajon to'ra bila devonbegining oralarida gina va kudurat izdiyod topa berdi. Bir oqshom devonbegi Otajon to'radin beruxsat Xevaqq tarafiga ketdi. Bu voqyeadin bir hafta o'tganidin so'ng, farmoni oliy yetushtikim: "Otajon to'ra qaytib kelsun va qushbegi bila Hakim otaliq Hiloliyg'a kelib Rahmatullo yasavulboshi kelguncha tavaqquf etsunlar. Yasavulboshi kelganidin so'ng hamroh bo'lub qaytib kelsunlar". Otajon to'ra, filhol, o'z tobe'lari bila qaytdi. Xudoyor qushbegi bila Hakim otaliq lashkarni olib Hiloliyg'a kelib, onda tavaqquf etdilar. Otajon to'ra Xevaqq'a kelib, oqolarining mulozamatlariga yetdilar.

Mundin o'n kun o'tganidin so'ng, Rahmatullo yasavulboshi ham atrofii justijo' qilib, Rusiyadin asar topmay, qaytib Hiloliyg'a kelib, amri oliy mujibicha, hammalari qaytib Xevaqq'a keldilar. Ammo bir kecha Otajon to'ra majlis tuzub, bazmi sharob etib, hamma ahli majlis mayet bo'lg'ondin so'ng, Otajon to'ra mastlik holatida ahli majlisdin biriga debdur: "Men xon bo'lsam, sani mehtar etarman". Yana biriga debdur: "Sani qushbegi etarman". Hosili kalom, ahli majlisining har birin bir amal bila sarafroz etibdur.

Bu so'zlarni o'zining Ali mahram degan mahramikim, xon hazratlarining taraflaridin voqyeanaavis bo'lub yurugon erkan, bu tariqada mastlik holatida aytilg'on aslsiz behuda so'zlarga vujud berib, g'ammozliq yuzidin va to'rasining etgan yaxshiliklari va tuzi andishasin etmay kelib xon hazratlariga yetkurubdur. Xon hazratlari bu so'zning istimoidin parishon bo'lub, ko'p xavfg'a tushubdurlar. Noiloj bo'lub Otajon to'raning ustiga kishi buyurib tamomi odamlarin tutdurub Arkka kelturdilar. Bu voqyealarda Jonibekbek va Muhammad Karimbek va Olloyorbeklar yo'q erdilar. Olarga daxl etmadilar va umaro aytdilar. Muhammad Rahimboy va Ollobergan saxiyni Ark oldidagi chuqaloqda chaldilar va Otajon to'raning o'zini Ur mavzeidagi havlisidakim, ul Muhammad Yusufbek ibn Amirzoda Muhammad Fozilbiyi marhumiyning havlisi erdi, mururi zamon va gardishi garduni gardon bilan Otajon to'raga taalluq topib erdi, mahbus etib darvozasini muqaffal qilib, atrofida kishi qo'ydilar. Ul holda Ismoilxoja naqib bila Muhammadrizo otaliq maslahat etib, xon hazratlarining xizmatlarig'a borib, Otajon to'raning gunohin tiladilar. Xon hazratlari mutag'ayyir bo'lub dedilar: "Magar, sizlar oning bizni qatl etmakiga rizoliqingiz bordur?" Bularning hushi boshlaridin uchub debdurlar: "Hoshokim, bizlarning mundog' munkirga rizoliqimiz bo'lg'ay?" Xort hazratlari debdurlar: "Ondog' bo'lsa, bu so'zdin dam urmanglar". Bular hyech nima demakka yaramay chiqibdurlar. Bas, Otajon to'ra ushbu mahbuslik bila Ur havlida necha zamonlar qoldi.

Ushbu yilkim, hijratning ming ikki yuz sakson sakkizlanchisi va qo'y yili va sunbulaning avoxiri erdi, hazrati allomayi zamon va olimi ulumi mutadovil va pinhon, ya'ni Bobojonbek ibn Olloberdi to'ra ibn Eltuzarxoni jannatmakon baqo olamig'a azm etdilar. Ayyomi hayotlari oltmish to'rt yil erdi. Ul hazrat ilmi sarf va ilmi naqv va ilmi mantiqda yagonayi asr va ilmi hikmatda yaktoyi dahr erdilar va kitobi "Shabiston" va "Devoni Bedil"ning mag'allaqotlari hallida olamoroylari iqdakushod erdi. Lihozo huzuri vofiyassururlari marjii ulamo va fuzalo erdi va tibu ramlu nujumu hisob fanlarida ham bag'oyat mohir erdilar. Rahmatullohi alayh ulhazratdin ikki o'g'ul qoldi. Valadi irshodlari sarvari atibbo Yaxshimurodbek-durlar. Ikkilanchisi ushbu faqiri haqir Bayoniykim, bu huruf roqimidurman.

### **Savollar.**

1. Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajara’iy Xorazmshohiy”, asari mohiyati nimadan iborat?
2. Muhammad Yusuf Bayoniyning “Xorazm tarixi” asaridagi voqialarning bayoni nimadan iborat.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy hayotiy faoliyati haqida ma’lumot bering?

### **Adabiyotlar.**

1. Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Т., 1991.
2. Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т., 1957.
3. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т., 1991.
4. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994.

## **6-Mavzu: Qo’qon xonligi tarixining qisqa bayoni va tarixshunosligi.** (Hakimxon to’ra. Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Miraziz bin Muhammad Rizo Marg’iloniy asarlari talqini.)

### **Reja**

1. Qo’qon xonligi tarixining qisqa bayoni.
2. Hakimxon to’ra va Niyoz Muhammad Xo’qandiy asarlari talqini.
3. Miraziz bin Muhammad Rizo Marg’iloniy asarlari talqini.

**Tayanch iboralari:** Qo’qon xonligi. Shoxruxbiy. Chodak. Hakimxon to’ra. Niyoz Muhammad Xo’qandiy. Miraziz bin Muhammad Rizo Marg’iloniy. «Muntaxab ut-tavorix». «Tarixi SHohruhiy». «Tarixi Aziziy».

XVIII asrning dastlabki o’n yilligida Buxoro xonligida yuzaga kelgan vaziyat Farg’ona vodiysida markaziy hokimiyatga bo’ysunmasdan, mustaqil hokimiyat tuzish kayfiyati kuchayib bordi. Dastlab Chodak mavzesi xojalarining 1709 yilda o’z mulklarini mustaqil deb e’lon qilishi Farg’ona vodiysi bo’ylab kurashni kuchaytrishga majbur kildi. SHoxruxbiy 1710 yilda Farg’ona vodiysining asosiy hududlarida hokimiyatni o’z quliga oladi va CHodak hojalaridan ham xokimiyatni tortib oladi. Farg’ona alohida mulk sifatida Buxoro xonligidan ajralib chiqdi.

Ming sulolasining asoschisi SHoxruxbiy (1710-1721 yy.) asosiy e’tibor yangi xonlikning xududiy va siyosiy mustaqilligini musmtahkamlashga qaragan bo’lsa, Abdurahimbiy (1721-1723) 1723 yilda davlat poyxatini Tepako’rg’on qal’asidan hozirgi Qo’qon shahriga ko’chirdi. Farg’onada kuchli davlat vujudga keldi. erdonabiy (1751-1762) va Norbo’tabiylar (1763-1798) hukmronligi davrida Farg’onani birlashtirish yakunlandi. Norbo’tabiyning o’g’li va vorisi Olimxon (1798-1809) davrida xonlik erlari kengayib, xonlikning siyosiy va iqtisodiy mavqei o’sdi. Xonlikda harbiy islohot o’tkazildi. Ohangaron, Toshkent, CHimkenr va Turkiston viloyatlari xonlikka qo’shib olindi.

1805 yildan Farg’ona davlati rasman Qo’qon xonligi deb e’lon qilindi va Olimbek o’ziga xon unvonini oldi. 1809 yilda xonlik taxtiga Umarxon (1809-

1822) o'tirdi. Umarxon hukmronligi davrida bo'ysunmay qo'ygan Turkiston, CHimkent, Sayram va Avliyoota egallandi. Jizzax, O'ratepa va boshqa joylar uchun Qo'qon xonlari Buxoro amirligi bilan beto'xtov urushlar olib bordi. Muhammad Alixon (1822-1842) xonlik chegaralarini kengaytirib Qorategin, Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho viloyatlarini bosib oldi. CHegaralarni mustahkamlash maqsadida Pishpak, To'kmoq, Kushka, Avliyoota va boshqa harbiy istehkomlar qurildi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Olimxon (1898-1810), Umarxon (1810-1822) va qisman Muhammad Alixon hukmronligi yillarida (1822-1841) birmuncha kuchli va markazlashgan davlatga aylangan Qo'qon xonligi XIX asr o'rtalariga kelib, siyosiy va harbiy jihatdan inqirozga uchray boshlagan bo'lsada, o'zining kuch-qudratini saqlab turardi.

1842 yilda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan xonlik poytaxti Qo'qon shahrining bosib olinishi va xon oilasining o'ldirilishi voqealari ham xonlikning o'z qudratini saqlab qolishiga to'sqinlik qila olmadi. SHeralixon esa 1845 yilda saroy fitnalari oqibatida o'ldirildi. XIX asr 50-yillari xonlikdagi ichki siyosiy buxronlar eng kuchaygan jarayonlar bilan boshlandi.

Ikkinchidan, 50-yillarga kelib, Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlariga qarshi kurashga ham etarli e'tibor berilmaganligi va siyosiy ojizlik bosqinchilikning kengayib ketishi va jiddiy tus olishiga, pirovard natijada esa xonlikning halokatga uchragishiga olib kelgan edi.

Xudoyorxon hukmronligi yillarida yuzaga kelgan sharoitda boshboshdoqlik, taxtga bo'ysunmaslik va markaziy hokimiyatga itoatsizlik kuchayib ketdi.

Musulmonqulning o'limi va qipchoqlarning qirg'in qilinishi bilan vaziyat birmuncha ijobiy tus olgandek bo'ldi, biroq bir tomondan ichki kurashlar va ikkinchi tomondan chor Rossiyasining harbiy tajovuzlari tufayli xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi va bu eng birinchi navbatda Xudoyorxondan umumiy norozilikning kuchayishiga sabab bo'ldi. SHunday norozilik harakatlaridan biri 1858 yil Toshkent bekligiga qarashli xududlarda bo'lib o'tgan edi.

Bu vaqtda Buxoro amiri Nasrullo O'ratepani qamal qilib, qo'qonliklarni mag'buliyatga uchratadi va Xo'jandga yurish qiladi. Biroq amirning yurishi shahar hokimi YOqubbek Badavlat tomonidan to'xtatiladi va amir chekinishga majbur bo'ladi.

Mallaxon taxtga o'tirgach, birinchi navbatda xonlikda tortib o'rnatishga va xon hokimiyatini kuchaytirishga kirishadi. Davlatni boshqarishda Mallaxon qattiq siyosat yuritadi. Bu haqda Sibir korpusi qo'mondoni general Gosford 1859 yil 4 yanvarda harbiy vazirga yuborgan maxfiy telegrammasida – «Mallabekning xonlik taxtiga o'tirgani tasdiqlandi. Xudoyorxon doimiy yashash uchun Xo'jandga yuborildi va barcha huquqlaridan mahrum qilindi. YAngi xonni xalq qo'llab-quvvatlamoqda», - degan so'zlarni yozgan edi.

1859 yil bahorida Buxoro amiri Muzaffar Qo'qon xonligiga qarshi yurish boshlaydi. Natijada ikki davlat o'rtasida Qozoqbuloq mavzesi chegara etib belgilanadi va bir oz barqarorlik yuzaga keladi.

1859 yil oxirlariga kelib, Qo'qon xonligining ayrim qal'alari Rossiya imperiyasi harbiy kuchlari tomonidan bosib olinadi. O'lkaning musulmon aholisi bundan nihoyatda tashvishlanib, Mallaxondan kofirlarga qarshi muqaddas urush – g'azovot boshlashni talab qiladilar. Mallaxon, agar xonlikning ichki hududlarida

osoyishtalik saqlansa, shu qishda yoki erta bahorda urush boshlashga tayyor ekanligini bildiradi.

Mallaxon ruslarga qarshi kurashda Buxoro amirligi bilan birlashishga ko'zi etmagach, Xiva xonligi bilan harbiy ittifoq tuzishga intiladi. 1859 yil noyabr oyi boshlarida shu masalada Xiva xoniga elchilar yuboradi. 28 noyabrda har ikki xonlik o'rtasida shartnoma tuziladi va bunga ko'ra, qishda, daryo muzlaganda har ikki xonlikning qo'shinlari chor bosqinchilari ustiga yurish qilishga kelishib oladilar.

SHu bilan bir vaqtda Mallaxon 1859 yil dekabrda o'ttiz kishidar iborat elchilikni imperator huzuriga ayrim siyosiy masalalarni hal etish, jumladan Oqmasjidni qaytarib berishni talab qiladi.

Biroq, bu elchilar hech qanday natijaga erisha olmadilar. 1860 yil aprelida Hoja kitobdor boshchiligida Sibir orqali Peterburga yuborilgan navbatdagi elchilik ham natijasiz tugadi.

Xonlikning ichki siyosiy hayotida davom etayotgan keskinliklar natijasida 1862 yil 23 fevral kuni Mallaxon o'ldiriladi. Taxtdan quvilgan Xudoyorxon ushbu vaziyatlardan foydalanib, Buxoro amiri Muzaffar ko'magida Xo'jand va Qo'qonni egallaydi. Xudoyorxonning qaytadan taxtni egallashi yana ko'pgina amaldorlarda va harbiy boshliqlarda norozilik uyg'otadi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab bir asrdan ortiqroq davom etayotgan chor rossiyasining o'zbek xonliklariga bosqinchilik yurishlari kuchaytirildi. Dastlabki harbiy harakatlar asosan Qo'qon xonligiga qarshi qaratildi. 1853 yilda xonlikning chegara qal'asi hisoblangan Oqmasjid bosib olindi. XIX asrning 50-60 yillar davomida xonlikning bir qator qal'alari va shaharlari, jumladan Avliyoota, Turkiston, CHimkent (1864 y.), Toshkent (1865 y.) kabi yirik iqtisodiy va siyosiy markazlari ham bosib olindi. Asosiy xududlaridan ajralgan Qo'qon xonligi 1868 yilda Rossiya imperiyasi bilan siyosiy qaramlikka asos bo'luvchi shartnomani imzoladi. XIX asrning 70-yillariga kelib esa xonlikda Xudoyorxonning ichki siyosati va ayni vaqtda Rossiya imperiyasining hukmronligiga nisbatan munosabati norozilik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Hokimiyatni undan tortib olishga harakat qilgan siyosiy kuchlar soxta Po'ladxon-Mulla Ishoq Hasan o'g'li boshchiligida xonga qarshi kurash boshladi. Tez orada bu kurashga xon xonadoni vakillari va yirik amaldorlar ham qushildi va 1875 yilda Xudoyorxondan taxtni tortib oldi. Biroq Nasriddinxon (1875-1876 yy.) boshchiligidagi yangi hukumat mamlakatning siyosiy barqarorligini ta'minlay olmadi va oqibatda xonlikda yangidan fuqarolar urugshi xavfi yuzaga keldi. Bu vaziyatdan chiqish uchun kurashni chor Rossiyasiga qarshi qaratgan Nasriddinxon va Po'ladxonlar muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. 1875-1876 yillar davomida bo'lib o'tgan shiddatli janglardan so'ng 1876 yilda Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olindi va mustaqil davlat sifatida tugatildi.

Mana shu yuqoridagi ichki ziddiyatlar va tashqi Rossiyaning bosqinchilik urushlari tufayli rasman 167 yil (1709-1876) tarixan mavjud bo'lgan Qo'qon xonligi barham topdi. Undan o'ta ziddiyatli va ma'lum madaniy taraqqiyot bosqichlariga ega bo'lgan katta tarix qoldi.

Endi mazkur tarixni o'rganilishi va umuman Qo'qon xonligi tarixi tarixshunosligi haqida to'xtalamiz. tarixshunos olimlar SH.Atadjanov, Z.Ilhomov, V.Ishquvvatov, N.Allaevalar, o'zlarining «O'zbek xonliklari tarixshunosligi»

nomli risolasida (Toshkent, 2011) Qo'qon tarixi tarixshunosligini XIX asrning 30-yillaridan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

Endi bevosita Qo'qon xonligida yozilgan tarixiy asarlar va ulardagi tarixshunoslik masalalari haqida fikr yuritamiz. Mana shunday asarlardan biri Mirza Olim Toshkandiyning «Ansab us-salotin va tavorix ul-kavokin» («Sultonlar shajarasi va xoqonlar tarixi»)dir. U XIX asr so'ngida yozilgan. «Ansob us-salotin» Farg'onaning XV- XIX asrlar orasidagi tarixini o'z ichiga oladi muallif ayniqsa 1842-1875 yillar tarixini keng yoritgan.

Asar chop qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari O'zRFA SHarqshunoslik instituti xazinasida (inv.№3753, 7515, 9841, 1314) ham saqlanadi.

Hakimxon to'ra. (taxm. 1802 – vafot etgan yili ma'lum emas) Qo'qonlik yirik tarixchi olim. Ota tarafdin naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalardan biri, yirik ilohiyot olimi Mahmudi A'zam Kosoniy (1461/62-1542-43 yy.)ning avlodi, ona tarafdin Qo'qon xoni Norbo'taxon (1770-1800 yy.)ning nabirasidir. Otasi sayyid Ma'sumxon to'ra Umarxon davri (1809-1822 yy.)da va Muhammad Alixon hukmronligi (1820-1842 yy.)ning dastlabki yillarida xonlikning shayxulislomi lavozimini egallab turgan Hakimxon to'ra Muhammad Alixon hukmronligi avvalida Namangan, To'raqo'rg'on va Kosonsoyda hokim bo'lgan. Lekin ko'p o'tmay otasi ham, o'zi ham xonning g'azabiga duchor bo'lib, egallab turgan lavozimlaridan bo'shatilganlar va Haj marosimini ado etish uchun Arabistonga jo'natib yuborilgan otasi yo'lda, Mozori sharifda 1834 yili vafot etgan. Hakimxon to'ra esa ko'p mashaqqatlar chekib, etti yildan keyin Makkaga etib bordi. Makka va Madina ziyoratidan qaytgach (1828 y.) Muhammad Alixondan cho'chib Qo'qonga bormadi va umrini Kitobda kechirdi.

Hakimxon to'ra yirik tarixshunos olim sifatida zo'r shuhrat qozongan. U «Muntaxab ut-tavorix» («Saylanma tarix») asarining muallifidir. Asar to'la ravishda Kitobda 1843 yilning 29 may kuni yozib tamomlangan. Unda qadimiy zamonlar (islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, qadimgi eron podsholari, Xitoy va Yevropaning qadimiy podsholari va xalifayi Rashidindan to Movarounnahrning Mang'it va Ming sulolasidan chiqqan oliy hukmdorlar zamonigacha kechgan) tarixi bayon etiladi.

Asarda Qo'qon xonligining xonlik asoschisi SHohruhxon (1709-1721 yy.)ning o'g'li va toj-taxt vorisi Abdurahimxon (1721-1724 yy.) zamonidan to Norbo'taxon, Olimxon va Umarxon davrigacha kechgan tarixi haqida hikoya qilinadi. Ayniqsa, Norbo'taxon, Olimxon va Umarxon davri tarixi yaxshi yoritilgan. Asarda muallifning Rossiya, Turkiya, Iroq, SHom (Suriya) va boshqa mamlakatlarga qilgan sayohati chog'ida olgan taassurotlari va o'sha mamlakat xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi va hayot tarzi haqida keltirgan ma'lumotlari ham diqqatga sazovordir.

«Muntaxab ul-tavorix»ning qo'lyozma nusxalari kam. Uning Dushanbe (Tojikiston)da, prof.A.A.Semyonovning uy-muzeyida saqlanayotgan forsha fononusxasi tojikistonlik yirik sharqshunos olim Ahror Muxtorov tarafidan 1983 yili ikki kitob qilib, Dushanbeda chop etilgan. Asarning o'zbekcha nusxasi ham bo'lib, hozirda O'zR FA SHarqshunoslik instituti xazinasida (inv.№594) saqlanmoqda.

Niyoz Muhammad Xo'qandiy. XIX asrda o'tgan farg'onalik tarixchi olim; taxminan 1803 yili Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan;



Xudoyorxon qo'shinida (fikrimizcha, lashkarnavis, ya'ni harbiy kotib lavozimida) xizmat qilgan; 60-yillar boshlarida iste'foga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan. 1876 yildan keyin vafot etgan.

Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo'lib, «Niyoziy» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Lekin, yirik tarixiy asar – «Tarixi SHohruhiy» (SHohruh (bek) tarixi) nomli asari bilan ko'proq mashhur. «Tarixi SHohruhiy» Qo'qon xonligining (1709-1876 yy.) mukammal tarixi bo'lib, unda ushbu xonlikka qaram bo'lgan boshqa (Toshkent, hozirgi Qirg'iziston, Qozog'istonning janubiy viloyatlari) hududlarining ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Asarda Qo'qon xonligining Buxoro, SHarqiy Turkiston va boshqa qo'shni mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

«Tarixi SHohruxiy»ning matni N.N.Pantusov tomonidan 1885 yili Qozonda chop etilgan. Ayrim parchalari V.V.Bartold, N.G.Mallitskiy va V.A.Romodina tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. T.K.Beysembiev (Olmaota) tarafidan chuqur va atroflicha o'rganilgan va chop etilgan (Alma-ata, 1987).

Miraziz bin Muhammad Rizo Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», Otabek Fozil o'g'lining «Mufasssal Tarixi Farg'ona», SHavqiyning «Tarixi Turkiston», Junaydullaxoja o'g'li Ibratning «Tarixi Farg'ona» kabi asarlaridagi Qo'qon xonligi tarixi haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. SHuningdek, rus elchilari, sayyohlar, harbiylari tomonidan yozilgan hisobotlar va arxiv hujjatlari ham ma'lum qimmatga ega manbalardir. SHulardan eng muhimi Fillip Nazarovning «Zapiski o nekotorykh naroda i zemlyax Sredney Azii» esdaligidir. Bu asar dastlab 1821 yilda, undan so'ng 1968 yilda ikki marta chop etilgan. Unda Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va xonlikka tegishli shahar hamda qishloqlari haqida o'sha davrga oid tarixiy ma'lumotlar bor.

Masalan, Qo'qon haqida shunday deb yozadi:

«Qo'qon katta va aholisi ko'p shahar. Unda 400 ga yaqin masjid bor. Tekislikda joylashgan; xon saroyidan boshqa mustahkam biron imorati yo'q. Tevarak-atrofi obod qishloqlar, buloqlarga mo'l jilg'a va ekinzorlar bilan o'ralgan. Zamini tuzli, ko'chalari tor. Eriga ko'proq paxta ekiladi. Uylari guvala va loydan qurilgan. SHahar o'rtasida toshdan bunyod etilgan uchta bozor bor. Bozorlarda savdo haftasiga ikki marta bo'ladi. Xon saroyi oldida xon arg'umoblari uchun pishiq g'ishtdan qurilgan katta otxona joylashgan.

### **Savollar.**

1. Qo'qon xonligi tarixini qisqa bayon eting?
2. Hakimxon to'ra va uning asarlari haqida ma'lumot bering?
3. Niyoz Muhammad Xo'qandiy va uning asarlari haqida ma'lumot bering?
4. Miraziz bin Muhammad Rizo Marg'iloniy va asarlari haqida ma'lumotlar bering?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: «SHarq», 1998.
2. Karimov I. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.

3. Atadjanov va boshq. O'zbek xonliklari tarixshunosligi. –Toshkent, 2011.
4. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik (XVIII-XIX va XX asr boshlari). – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.
5. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar). –T.: «O'qituvchi», 2001.
6. Бобоев Х. Қўқон тарихи. Т., 1996.

## **7-Mavzu: Arminiy Xerman Vamberiyning “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asari**

### **Reja.**

1. Arablarning hujumi, islomni qabul qilish hijriyning 46-96 yillari (666-714)
2. Mo'g'ullar istilosi hijriyning 615-624 yillari (1218-1226).
3. Amir Temur hijriyning 736-807 yillari (1333-1405).
4. Temurning shaxsi, saroyi va turar joyi

**Tayanch iboralari:** Arminiy Xerman Vamberiy, Vengriya, Hirot, Mashhad, Tehron, Istanbul, Budapesht, Oqsoq darvish.

**Arminiy Vamberi:** Arminiy yoki **German / Herman Vamberi** (vengercha **Ármin Vámbéry**, nemischa **Hermann Bamberger**; 19-mart 1832, Nidermarkt — 15-sentabr 1913, Budapesht) – sharqshunos, tilshunos olim, sayyoh va yozuvchi. Vengriya Fanlar akademiyasi a'zosi (1861).

### **Hayoti**

Istanbulda yashagan (1857-60). Vengriya FA homiyligida Eron va Turkistonga sayohat (1863-yildan) qilgan. Vamberi darvesh niqobi ostida Makkadan haj safaridan qaytayotgan mahalliy aholi guruhiga qo'shilib Mozandarondan Bolxon ko'rfaziga keladi, so'ng Turkmaniston orqali Xiva va Qo'ng'irotda o'tadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro, Samarqand, Karki va boshqa shaharlarda bo'ladi. Orqaga Hirot, Mashhad, Tehron va Istanbul bo'ylab qaytadi.

**Ijodi:** Vamberi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, fol'klor, etnografiya, tarix va geografiyaga oid asarlar muallifi ("Nemischa-turkcha lug'at", 1858; "Nemischa-chig'atoycha lug'at", 1860; "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi", "Mening hayotim", "Sharq hayoti va urf-odatlarini ocherklari" va boshqalar). "Chig'atoy tili darsligi" (1867) asarida Vamberi turkiy xalqlar fol'kloriga oid 30 dan ortiq asar haqida ma'lumot bergan, ulardan parchalar keltirgan, shuningdek Navoiy, Fuzuliy, Nasimiy, So'fi Olloyor g'azallaridan olingan namunalarni va 112 ta o'zbek maqolini arab va lotin yozuvida keltirib, nemischa tarjimada bergan. Turkiy va nemis tillarini qiyosiy o'rgangan.

**Kinematograf:** 1986-yil Turkiya, Vengriya va Tojikiston kinematograflari tomonidan Vamberining hayoti, xususan uning «Soxta darvishning O'rta Osiyoga sayohatlari» nomli asari asosida «Oqsoq darvish» filmi yaratildi. Valeriy Axadov va Yofef Kish rejissorligidagi ushbu fil'm Tug'ro-film (Turkiya), Xungarofilm, Mafilm (Vengriya), Tojikkfilm kinostudiyalari mahsuloti. Filmda Shuhrat Ergashev, San'at Devonov, Inog'om Odilov kabi o'zbek aktyorlari ham suratga tushishgan. Film premyerasi 1988-yil aprel oyida Moskvada bo'lib o'tgan.

**O'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari:** Vāmbērī Gīrmān, *Buxārā yāxūd Māvarā'unnahr tārīxī*, Fotih Karimiy va Burhon Sharaf tarjimasi, Moskva: Buxārā xalq ma'ārī nazārati, 1924, 2 jild.

• Vamberi Herman, *Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi: kitobdan parchalar*, nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad, Toshkent: G'ofur G'ulom, 1990, 96 b.

«O'tmishi ko'milgan millatning istiqboli ham zulmat pardasi ostidadir». Ha, mo'jor olimi Herman Vamberining o'tmishi ko'milgan millat haqidagi gaplarini ayniqsa bugun-fuqaro va ulamolarimizning deyarlisi yaqin va uzoq tariximiz xususida o'ta yuzaki tasavvurga ega bir davrda eslash juda o'rinlidir. Moziydan bexabarlik kechagi ham bugungi avlodni bir muncha sindirib, ma'naviy qashshoq va kuchsiz, yurtiga, millatiga, istiqboliga befarq qilib qo'ygandi. Xayriyatki, elimiz bu kunga kelib u mudroq, mute, qo'rquvparast ruhiy muhitdan qochmoqqa, qutulmoqqa tutindi. Shuning uchun ham bugunda yoshu keksa birday siyosatga, iqtisodga, madaniyatga havasmand bo'lib qoldi, milliy urf-odatlar, boyliklar haqida qizishib o'ylay boshladi. Ba'zilar esa, kelajakka-zulmatli bir parda qoplagan tun kabi hozirda majhul bir bo'shliqqa kalovlanib tikilgancha karomat qilmoqqa urinadi. Afsuski, istiqbolni aniq, tiniq bilimga erishmasdan turib tasavvur etish mumkin emas. Deylikki, bugungi jumhuriyatimizda yashayotgai avlodning ota-bobolari olti ming yillik tarixga, madaniyatga ega; ajdodlarimiz o'tmishda ko'p davrlarda hukmronlik ham qilganlar, hukm ostida ham bo'lganlar; shunga qarab milliy rivojlanish va tanazzul paytlari ham ro'y bergan. Biz kechmishda yer boyliklarimiz, chegaralarimiz, elimizning nufuzi, qo'shni mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari, mashhur kishilari, ayniqsa, millatni jahon miqyosida shuhratlantiradigan buyuk shaxslari haqida asosli bir qarorga kelmasdan turib, baribir, kelajakda hayotimiz qanday bo'lishini tasavvur qila olmaymiz. Menimcha, kelajakka faqat o'tmish yo'l ko'rsatadi, u yo'l bugunning ko'ksidan o'tadi. Bugungi kun mustahkam, qudratli bo'lsa, o'tmish va kelajakniig og'ir ko'prigini ko'tara oladi. Xalqimizning butun borliq umri o'tadigan ana shu ko'prikning bunyodga kelishi uchun, unga tomon borish uchun yo'lko'rsatkichlar kerak, tarix haqida bilik zarur. Asl ota yurtlari eski Turkiston bo'lgan mo'jorlar (vengerlar-xungarlar - xun erlar - T. Q.) olimi Herman Vamberi, uning «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobi ham ana shunday yo'lko'rsatkichlardan biridir.

Bu kitobniig ruschaga Arkadiy Pavlovskiy tarjima qilgai nusxasi Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi kutubxonada saqlanayotgan «Turkiston to'plami»ning 70—71 jildlaridan o'rin olgan. Biz parchalarni tayyorlashda shu kitobdan ham foydalandik, asosan esa, 20-yillarda Buxoro Xalq Maorif Nazoratining nashriyoti tashabbusiga ko'ra o'sha ruscha tarjimadan Fotih Karimiy va Burhon Sharaf turkchaga o'g'irgan ikki jildlikka (Moskva, 1924 yil, eski imlomizda) suyardik.

Ma'lumki, Herman Vamberining turkiy xalqlar hayoti va islomga oid ilmiy, adabiy, siyosiy-tarixiy va tilga mansub yigirmadan ortiq asarlari bor. Qisqasi, biz bu o'rinda Vamberining «ingliz josusi» ekani haqida so'zlashni ortiqcha bilamiz va Fotih Karimiyning shu so'zlarini takidlash bilan kifoyalanamiz: bu olim «siyosiy fikri jihatidan osuda ochiq turk muxlisi, ingliz tarafdori, Rusiya muxolifi edi, shunga ko'ra podshohlik Rusiyasi qoshida g'ayrimaqbul kishilar jumlasidan sanalar edi». Ammo olimga nisbatan shunday qarashlar mavjudligidan qat'i nazar,

uning «Istoriya Boxari ili Transoksaniy» asarini 1873 yilda Avliyo Piter shahrida tarjima yetilib tarqatilgani va bizgacha yetib kelgani noyob zikrdir.

Tarjimo A.Pavlovskiyning «So‘zboshi»sidagi fikrlari ham haqiqatga to‘g‘ridir: muallif Vamberining aytishicha, bu asar ovrupalik ma‘lumotli omma uchun Transoksaniya — Movarounnahr mamlakati haqidagi birinchi tarix bo‘lib qoladi. Chunki Vamberi bu kitobni yozishda asl manbalardan, turk, mo‘gul, arab, fors tilidagi tarix kitoblariga bu o‘lkaga qilgan sayohati davomida ko‘rgan va o‘zi to‘plagan qo‘lyozmalardan foydalangai. Tarjimon bu o‘lka temuriylar saltanati tanazzuligacha Movarounnahr deyilgan va so‘ngra, o‘n oltinchi yuz yillikdan Buxoro xonligi deya shuhrat topganinn aytib, shunday deydi: «Eta strana, znamenitaya uje v drevnosti i dostigshaya polnogo velichya pri Tamerlane, izbravshem Samarkand stolitseyu svoey kolossalnoy imperii, do six por ostavalos dlya istorii pochti sovershenno novym, netronutim polem».

Bu kitobning foydasi, fazilatlari xususida ko‘p gapirish mumkin. Ammo unda ma‘lum juz‘iy nuqsonlar ham yo‘q emas. Zotan, bu tabiiy holdir, chunki muallif necha ming yillik tarixni kitoblardan o‘rganib, o‘zi boshqa millatga va boshqa milliy mushohada tarziga ega bo‘lgani holda, hukmron bir muhit vakili o‘laroq bu asarni baholiquadrat bitgan. Asarni iashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad ham, uni tahrir qilish va turkcha, ruscha nusxalarga solishtirish jarayonida men ham, shu jihatlarga imkonimiz yetganicha e‘tibor berdik.

O‘quvchining milliy tuyg‘ulariga, izzat-nafsigaga tegadigan ba‘zi iboralarni, jumalarni ataylab tushirib qoldirdik, ba‘zilarini mantiqqa, ilmiy asosga suyanib o‘zgartirdik.

Masalan, turkcha nusxadagi «Arablarning hujumi ham qabuli islom» bobi shunday boshlanadi: «Ulug‘ islom yurtining amodlari g‘arbiy Osiyoda inisho qilung‘ondan so‘nguq arab qahramonlarining g‘olib firqalari Iskandari kabir yo‘li bilan Movarounnahrda kelub kirdilar».

Ruscha tarjimada esa bunday: «Yedva tolko byli vozdvignuti stolpi ispolinskogo zdaniya islama v zapadnoy Azii, kak pobodonosishe otryadi arabskix iskatelen priklyucheniye vtorgnulis v Transoksaniyu po sledam velikogo Makedoniyana». Ko‘rib turibsizki, turkcha nusxada bundan keyin ko‘p o‘rinlarda uchraydigan «qahramon arab», umuman, arablarni ulug‘lash ruscha nusxada yo‘q; men Vamberi kitobining asl nusxasini o‘qiy olmaganim uchun ayni paytda faqat bir faraz bilan cheklanaman: Vamberi kitobini yozishda arab mualliflarining, asosan musulmon sharqi mualliflarining asarlaridan foydalangan va ulardagi arablarni madh etish unga ko‘chgan. Shu boisdanmi, ruscha va turkcha nusxalarda ham Movarounnahrda—Turonga bostirib kirgan arablar «qahramonlar» deb, bu yurtning egalari, yurt himoyachilari esa «dushman» deb talqin qilinadi. Qutayba «eng ilk avval Baykand shahrina qarshi yurdi. Ul, sahro havolisina yetkach, onda dushmam askarini tasodif etdi. Dushman askari som jihatinch Qutayba askaridan bik ko‘b ziyoda edi». Ruschadan ham bu mantiqiy xato takrorini ko‘ramiz:«...doydya do okrain stepi, nashel tam nepriyatelskie sily». Shunga ko‘ra, biz «dushman» so‘zi o‘ringa ba‘zi o‘rinlarda turonliklar, turklar iboralarini qo‘lladik.

Ba‘zilarida shunday savollar ham tug‘ilar, balki: nega endi bu asar asl nusxadan yoki ruschadan emas, aynan turkchadan foydalaiib tayyorlandi; nega endi buni biz tarjima deyishimiz kerak va hokazo. Birinchidan, qaysi nusxadan

foydalanish har bir ijodkorning yoki ijodiy mahkamaning xos huquqidir, ikkinchidan, ruscha nusxada juda ko'p ismlar, atamalar noto'g'ri berilganki, bu shubhasiz, tarjimonni chalg'itar edi (masalan, «Temur tuzukoti» so'zini «Tyutsyukat-i Temur» deb. Chingiz yasoqlarini «yazau Djengiza» deb yoki mashhur forsha iborani «Ameden u kendend u zuxtend u kushtend u burd-dendu reftend» deb berilgan; holbuki, «omadan va kundan va...»). Endi bu asarni tayyorlashda turkchadan tarjima qilinganiga kelsak, biz yuqorida keltirgan parchalardan ko'rinib turibdiki, F. Qarimiy va B. Sharaf nusxasi aynan olinsa, bugungi o'quvchi uchun usmonlicha, tatarcha so'zlar, forsiy va arabiy iboralar nihoyatda qiyinchilik tug'dirar edi. (Shu o'rinda bitta misol keltirmoqchiman: «...avvalgi Movaronnuhr shul qadar dushmish va shul qadar qizg'onch bir holda qolmishdirki, inson eski jo'g'rofshonning lek mubolag'ali o'lduqlarini yoxud yalan so'yladiklarina ishonmoqchi bo'ladir. Hukumat muqarriy, ulamo markazi ham bir xiyli tijarat va sanoat o'rni o'lan Buxoro hozirinda ko'b o'lsa 30 ming nufuzli va Osiyoning eng pis va sihat uchun eng zararli bir baldasidir». 1 jild 31-32-betlar). Shuni hisobga olib, biz asarni turkchadan aynan «tarjima» qilib, o'zbek tiliga moslashtirib, matndan erkin foydalangan holda kitobda e'lon etdik.

Vamberining asarida shunday gaplar borki, menimcha, ular aslida bosqinchilik siyosati manfaati uchun aytilgandek tuyuladi. Masalan, Turon xalqlarini, qavmlari va urug'larini bir-biriga qarshi qo'yish uchun u bir o'rinda, mo'g'ullar Samarqandga bostirib kirganida, bosqinchilarga yerli turk va qang'li qavmlariing qo'shib ketganini aytsa, arablarning Buxoroga bosqin davrida, o'shanda aholisi asosan turklar va tojiklar bo'lgani uchun (bir oz hushyor tortib, ovrupalik mustamlakachilar bu yurtga ko'z tikkan zamonlarda ham aholi tarkibi shunday ekanini va ularni bir-biriga qarshi qo'yish yerlilarni kuchsizlantirishga olib kelishini, bu esa bosqinchilarning ayni muddaosi ekanini o'ylang) shunday yozadi: (ruschada) «Guseyn tot chas dvinuleya Boxoru, kotoroy jiteli po bolshoy chasti tadjiki, vo vse vremeni izvestvne za trusus, vishli protiv nego, xorosho voorujennne...» Turkchasida: «Husayn tulo'q soat Buxorog'a harakat etdi. Oning aholisi aksariyat tojiklar bo'lib, jabinlik ila mashhurdirlar. Alar qurollanib, Husayn askarina qarshi chiqdilar...» Biz bu gaplarni ikki karra gigijlovchi ma'noga egaligi uchun ham kitobda bermadik. Birinchidan, hech bir qavmni, millatni qo'rqqoligi bilan mashhurdir deb bo'lmaydi. Ikkinchidan, bu yerdagi bu qavm Buxoro aholisining aksariyatini, bunisi ozchiligini tashkil etardi, degan so'z ham aniqlik kiritishga muhtoj. Zotan, Vamberining o'zi ham, barcha forsparast guruhlar ko'p ta'kidlagan gapni takrorlab, Movarounnahrning madaniy qismi «eron unsurlari» deydi va jumladan, savdo va hokimiyat ishlari markazi bo'lgan Buxoro shahriga tojiklarniig ko'proq yig'ilishi o'sha muhitda tabiiy hol ekanligini va bu o'rinda Buxoro mamlakatiga kiruvchi boshqa viloyatlaru qishloqlarda, sahro yaylovlarida asosan ko'p sonli turk qavmlari yashaganini esdan chiqargan. Bu holatda ham shu ikki qo'shin, bir-biriga xalq va millat sifatida taqdirdosh, qismatdosh bo'lgan tojiklar va turk qavmlari o'rtasiga nifoq solishning ko'rinmas iplarini sezish mumkin. Shuning uchun ham bunday gap so'zlar Vamberining biz kitobda bergan tarixii hikoyalaridan olib tashlandi. Bu kabi qusurlaridan qat'i nazar, Vamberining asari qimmatli tarixiy ma'lumotlarga to'la. Ayniqsa, uning bergan izohlari ham ilmiy asosli, ham tarixan maroqlidir. Biz kitobda faqat matnning o'zini berdik, izohlar ko'pligi va murakkabligi, boshqa tarixiy manbalar bilan

solishtirishni taqozo etgani tufayli, ularni tushirib qoldirdik. Shu boisdan Shayboniyxon shaxsi va umuman, o'zbeklarning milliy xususiyatlariiii ochiqlovchi bir izohni to'laligicha keltirmoqchiman. Shayboniyxon Burga Sultonni yo'ldan olib tashlash hokimiyatni mustahkam egallashdagi qilinadigan ishlardan biri ekanini sezgach, qat'iy harakat boshlaydi. Burga Sulton saroyiga qishda, qahraton sovuqda kutilmaganda bosqin yasagan o'zbeklar uni qochirib yuboradilar. Saroyda qolganlar qatl etiladi. «Tong ochilg'ondan so'ng Shayboniyning odamlari yaralanuvi ma'lum bo'lg'on Burgani izlarga boshladilar. Qor ustina tomub borgon qon asarini ko'rdilar, bu qon izlari o'rmon ichina borub kirdi. Shuning bo'yincha borub, nihoyat, yorali bir askar tobdilar. Kim ekanini so'rag'anlari vaqt o'zining Burga Sulton bo'lg'anlig'in so'yladi. Shayboniy oning Burga emas, balki Burganing xodimi Mungabiy bo'lg'onini bilib, sen nechun o'zingni Burga Sulton deb so'ylading, dedi. Bunga qarshi Mungabiy: «Podshoh, men Burga bilan birlikda o'sdim, oning ekmaktuzini oshladim, sening odamlaring oni izladiklarini bilganim vaqt oning hayotini qutqarmoq uchun o'zimni fido etarg'a, onga ta'yin etilgan o'lim o'qini o'z ko'kragimga olurg'a qaror berdim. Endi ixtiyor sizda, tilasangiz nishlangiz» deb javob bergan. «Shayboniy xeyli bir olijanob zot bo'lg'onliqdan bu nomusli odamga zo'r mukofot berub, ozod etgan. Lekin so'ngra Burga topilib, qatl etilgan. Bu o'rinda Shayboniyning shafqatsizligi bilan barobar nihoyatda olijanob, sadoqatni qadrllovchi inson ekani, shuningdek, Mungabiyning mard, to'g'riso'z, eski turklardagi kabi sadoqat egasi ekani, xullas, ikki shaxsning milliy xususiyatlari ayon bo'lmoqda.

Vamberi yana bir izohida, Qutayba Turon askarlarini kuch bilan yenga olmasligini bilgach, hiylaga o'tgani va birlashgan turk, so'g'd askarlari ichiga ayg'oqchi yuborib, fitna tarqatganini hikoya qilgach, o'sha josusning «asli eronli Tindir» (ruschada «eto bil sobstvennyy shpion Kuteybe, po imeni Tender, rodom Pers») ekanini aytadi.

Vamberining bu kitobidagi muhim ma'lumotlardan biri shuki, u Temurning otasining ismi (hozirgacha buni barcha ruschadagi va o'zbekchadagi kitoblardan Tarag'ay deb noto'g'ri yozilib kelinmoqda — T. Q.) To'rg'ay ekanini aytadi «Temurning otasi To'rg'ay (bidbildik) barlos urug'ining boshlig'i edi» deydi va izohda aytadiki, Vaylning o'qiganicha Tarag'ay emas (ruschadan ham «Otets yego Turgay (perepel) bil glavoyu Berlas... Ne Targay, kak chitaet Veyl») deydi. Haqiqatan ham, Vamberining fikri to'g'ri. Chunki Targ'ay, Tarag'ay so'zining ma'nosini shunday deb yozganlar izohlashmagan. Vamberi ham bu yerda nega To'rg'ayligiga izoh bermagan.

Eski turklar tarixidan ma'lumki, ota-bobolarimiz islomiyatdan avval budda diniga, Ko'k diniga (shamanizm) mansub bo'lganlar, ularning totemlari hayvonlar va qushlar bo'lgani ham ma'lum. Shu jihatdan qaraganda, shuningdek, Temur davri va undan keyin ham islomdan avvalgi eski turk odat va an'analari saqlanib qolganini, xususan, islomiylashgan turklar o'zlarsha bir arabiy ism bilan birga bitta eski turacha ism ham qo'yganlarini eslasak, nega To'rg'ay deb atalgani anglashiladi.

Vamberining bir izohida ko'ragon so'zi (biz hozirgacha o'rganganimiz «kuyov emas — T. Q.) go'zal ma'nosini bildirishi, ko'ragon-ko'rkli, ko'rkam ekani aytiladi. Muallif «Temurning urug'i barlos bo'lgan, ammo oila tarmog'i ko'ragon»dir deydi. Demak, Temur barlos qabilasining ko'ragon — ko'rkam

urug'idan bo'lgan. Hozirda Shahrisabz va boshqa yerlarda yashovchi barlos qavmiga mansub kishilarning ko'rkamligi ham olimning bu fikrini tasdiqlaydi. Ko'ragon so'zini mo'g'ulchaga bog'lovchilarning asl niyati, meningcha, Temur saltanati va yurishlari davrida ancha-muncha tarixiy alg'ov-dalg'ovlarga duchor qilingan ellarning vakillari bo'lmish, xususan, arab va fors mualliflari va ularning asarlari tarjimasi vositasida Ovrupaga ham o'tgan bir tomonlama, qusurli ma'lumotlardir. Temurning «mo'g'ul naslidan bo'luvi haqida Mirxond, Sharafiddin, Vayl, Hommer va boshqa mustashriqlarning rivoyatlari ikki martaba yolg'ashdir». Vamberi bu fikrini va «Temurning Qorachar no'yon naslidan bo'luvi bo'sh hikoya»ligini, Chig'atoyning unga o'xshash vaziri bo'lganligi to'g'risidagi so'z «Jahonkushoy»da yo'qligi, ammo Rashididdin, Mirxond va boshqalar ma'lumotlarni «Jahonkushoy»dan olganliklarini tasdiqlaydi. Temurning naslini mo'g'ullarga bog'lagan bizning zamon tarixchilari ham shu adashishning ixtiyorsiz qurbonlari o'laroq asossiz so'zlarni takrorlab yurganliklarini ana endi tushunsa bo'lar, deb o'ylayman.

Mo'jor olimining «Temur tuzuklari» haqidagi bir izohi ham maroqli tuzuk so'zining asl eski turkchadagi tutsuq (arabcha nizom) ma'nosidadir; bu so'zga arabcha ko'plik qo'shimchasini qo'shib, «tuzukot» yasalgan. Olim yana bir izohida «Temur tuzuklari»ning asl chig'atoycha nusxasi Yaman voliysi Ja'farning kitobxonasida saqlanishini aytadi. Agarda bugungi o'zbek olimlari shu asl kitobiing faksimil nusxasini ishlab chiqib, e'lon qilsalar, tarixiy nashrlarimiz yo'li bir muncha yorishar edi.

Ma'lumki, Amir Qozg'on bilan Temurning otasi To'rg'ay o'rtasidagi munosabat juda yaxshi bo'lgan, shuning uchun Amir Qozg'on Temurga muruvvatlar ko'rsatgan, qo'shiniga mingboshi qilib olgan; so'ngroq Temurga o'zining nevarasini — o'g'li Saloyning qizi Uljoy Turkon Xotunni olib bergan. Shu Saloy so'ziga Vamberi bir izohida alohida to'xtalib, bu ismni bir necha ovrupa olimlari noto'g'ri talqin qilganini, noto'g'ri o'qiganinn ta'kidlab, saloy eski turkchadagi vatan so'zidir, deydi. Haqiqatan ham, saloy so'zi ism sifatida bugun ham ko'p uchraydi, faqat biz uni arabcha Salohiddin, Solih so'zining buzilgan shakli deb qarab kelganmiz.

Temurning oqsoqligi masalasida ko'p noto'g'ri gaplarni o'qiganmiz. Bu bo'htonlar buyuk Temurning shavkatiga qasddan qilingandir. Ma'lumki, Temur Seyistonga hujum paytida jangda majruhlanib, keyin oqsoq bo'lib qolgan. Suriyalik olim Ahmad ibn Arabshoh esa, ichidan to'qib, Temur qo'y o'g'irlab borayotganda, qo'yning og'irligidan yo'lda oqsoqlanib yurgan va shuning kasrin Oqsoq bo'lib qolgan, deydi. Vamberi shu bo'htonni fosh etish barobarida Temurni «tatar jahongiri» deb (ruschada va turkcha nusxalarda ham) o'ziyam yanglishib ketadi.

Vamberi, umuman, bu kitobida turk iborasini qo'llash o'rniga ko'p hollarda tatar so'zini ishlatadiki, bu, meningcha, olim mansub muhitda bu istiloh iste'molda bo'lganini ta'kidlaydi, aks holda, sharqiy Turkiston haqida so'z ketganda, ruscha nusxada «Kitayskaya Tatariya» deb yozilmasdi, turkchada esa «Turkiston Chini» deb berilgan.

Vamberi Temur shaxsini iloji boricha to'g'ri aks ettirishga intilgan. Bu uning hodisalarga, shaxslarga bergan izohlaridan ham ma'lumki, ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. Birinchi jildnpg 243-betidagi izohda aytilishicha, Temur

bori 243 qahramon bilan Husaynnng 12.900 kishilik askariga hujum qilib, qal'ani olib, raqiblarini quvib yuborgan. Avvalo Temur askarlari qorong'i bir tunda asta-asta qal'a devoriga minib, soqchilarni o'ldirib, himoyadagi askarlarni zabt bilan o'rab-qirib, quvib, mislsiz jangovarlik ko'rsatganlar. Yana bir gap: Temur barcha ishlarni maslahatlashib, qurultoy chaqirib hal qilgani ko'p aytiladi. Balxdagi qurultoyda Shayx Muhammad, Bayon Sulduz... amir Zindahashm qatnashadilar; olimning izohlashicha, Zndahashm avval Temurga qarshi ko'p marta isyon etgan, hamisha mag'lub bo'lgan. Keyinroq esa, Temurning muruvvati va olijanoblighi tufayli, Zindahashm unga xizmat qilish barobarida, yuksak martabalarga erishgan.

Vamberi tarfakashlik qilmasdan, Ibn Arabshohning «Temur Chingizxonning yasoqlarini Qur'ondan yuqori ko'rardi», deb haqsiz ayblashini ham to'g'ri ta'kidlab, aslida, islom tashkiloti askarin idoradan ko'ra ruhoniylar idoraga tadbiriq etilib yasalganini, mo'g'ul yasoqlari esa davlatni tutib turishda, himoyalashda kuchli jangovarlikka egaligini aytadi. Nazarimda, Vamberining bu qarashi butunda ham ko'p kishilar, davlat tashkiloti diniy bo'lishi kerakmi yoki askariymi, deb bahs yuritayotganlar bilib qo'ysa arziydngan muhim fikrdir. Haqiqatan ham, bir davlat ruhoniylar taraqqiy asosida jamiyat qursa-yu, yonidagi qo'shni davlat askariylar taraqqiyga ega jamoadan iborat bo'lsa, ruhoniylar tashkilotli davlat o'zini qanday himoya qiladi? Amir Temur bu masalalarni o'z davrida teran o'ylagan va o'z saltapatini ham eski turk davlatchiligida bo'lganidek askariylar tartiblarga va hukmron islom ruhoniylar tashkilotiga asoslanib qurgan. Xullas, Vamberining bu kitobi o'quvchilar o'rtasida keskin mulohazalar uyg'otishi tabiiy.

SHunday qilib, bu davrda feodal zulmi va dinning ahamiyati kuchaygan. G. Vamberining yozishicha, Buxoroda XIX asr o'rtalarida 20000 dan ortiq qul bo'lgan. Biroq moddiy boyliklarni dehqonlar va erkin hunarmandlar yaratganlar. Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida madaniylar aloqalar rivojlanganligi tufayli bizning vatandoshlarimizning ba'zi nodir asarlari Rossiyaning ilmiy markaziga jo'natilgan. Masalan, 1820 yilda Rossiya vakolatxonasining diplomatik missiyasi muvaffaqiyatli tamomlagandan keyin amir Haydar rus elchisi Negriga sovg'a sifatida «Tarixi Muqimxoniy» asarini beradi. Negri bu asarni Rossiya Fanlar akademiyasiga topshiradi. Bu asar Peterburg dorilfununining sharqshunos professori O.I.Senkovskiy tomonidan frantsuz tiliga tarjima qilinadi.

### **Manba va adabiyotlar ro'yxati**

1. *Массальский В. М.* Вамбери, Герман // *Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.*
2. Вамбери, Арминий. Путешествие по Средней Азии. Восточная литература. Проверено 16 апреля 2011. Архивировано из первоисточника 23 августа 2011.
3. Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т., 1990.
4. <http://www.vambery.sk> (венг.)
5. <http://www.boija.com/texts/vambery.html> (англ.)
6. *Täby 16th of December 1998, John Boija Vambéry, Armin (Hermann) 1832 - 1913*
7. *Лазарь медовар* Арминий Вамбери: выстраданная жизнь М.: 1987 г.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Arminiy\\_Vamberi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Arminiy_Vamberi)



## **8-Mavzu: Turkiston tarixini o'rganishda Ahmad Donish ilmiy merosi.**

### **Reja**

1. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.
2. Ahmad Donish tarixiy asarlari tasnifi.
3. Ahmad Donish faoliyatida topografik tadqiqotlar.

**Tayanch iboralari:** Ahmad Donish, tarixnavislik, xattot, me'mor, geografik, topografik, Mir Arab, Kukaldosh, Devonbegi.

Buxoro qadimgi Markaziy O'siyoning yirik siyosiy-madaniy, ilm-fan, me'morchilik, hunarmandchilik va savdo markazi sifatida shuhrat qozonib kelgan. O'tgan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida buxorodan ko'plab o'qimishli kishilar, ma'rifatparvarlar, mashhur xattotlar, tarjimonlar, shoirlar, tarixchilar va ulkashunoslarni yetishib chiqib kelajak avlod uchun boy madaniy va ilmiy meros qoldirdi.

Mana shu ziyolilar orasida Buxoro tarixnavislik maktabining yirik vakillaridan biri Ahmad Donish ham samarali ijod qildi.

Haqiqiy ismi Ahmad ibn Amir Nosir ibn YUsof Al-Xanafiy al-Buxoriy. XIX asrda o'tgan, ko'zga tashlangan mutaffakir shoir, adib va tarixnavis olim. 1827 yilda Buxoro shahrida imom oilasida tug'ilgan. Ahmad Donish faoliyati xattotlikdan boshlangan va 1850 yilning boshlarida amir Nasrullo xizmatiga qabul qilingan. 1869 yilda iste'foga chiqib, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lgan.

Ahmad Donish 1857 yili amir Nasrullo, 1869 va 1874 yillarda amir Muzaffar (1860-1885) elchilik tarkibida Peterburgda bo'ldi va Rossiyaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar olimning dunyo qarashiga katta ta'sir ko'rsatdi, lekin u Buxoroning Rossiyaga nisbatan qoloqligining haqiqiy sabablarini tushunib yetmadi. U jamiyatni mavjud qonun va davlat tartibini takomillashtirish yo'li bilan odil podshoning qo'li bilan qaytadan ko'rish mumkin deb hisoblardi va "Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola" asarini 1870-1873 yillarda yaratadi va uni amir Muzaffarga taqdim etadi. Ahmad Donish o'z risolasida Buxoro davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumini qonuniylik va insonparvarlik asosida isloh qilish g'oyasini dadil ilgari suradi. Ahmad Donish 1874 yildan boshlab saroydan chetlashtiriladi va G'uzorga qozi etib tayinlanadi. 1885 yili yana Buxoroga qaytib madrasalarda dars beradi.

Ahmad Donish Buxoro amirligi tarixining bilimdoni edi. Yuqorida eslatib utilganimizdek, Ahmad Donish Peterburg tassurotlari asosida «Navodir ul-vaqos» (Nodir vaqsolar), «Buxoriy sharif az amir Doniyor to axri amir Abdulahad» (Buxoriy sharif amirlarining tarjimai holi, amir Doniyordan to amir Abdulhamidgacha) risolalarini yaratdi. Mutafakkir Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqos» (Nodir vaqsolar) nomli tarixiy asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat xodisalari, insonning uzoq umir ko'rishi, koinotning kelib chiqishi, oy va quyosh tutilishi, zilzila haqida fikr yuritgan, Yevropa ilm-fanini o'rganishga davat etgan.

Ahmad Donish «Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai holi. Amir Dnoryordan to Amir Abdulahadgacha» asarini yozadi. O'zbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-

siyosiy tarixini o'rganishda olimning so'nggi asari (1885 yildan keyin yozilgan) zo'r ahamiyatga ega. Asarda katta so'z boshidan keyin qisqa tarzda amir Doniyor (1759-1785), SHohmurod (1785-1800) hamda amir Nasrullo hukmronlik yillarida bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan. Uning katta va so'nggi qismi amir Muzaffarga bag'ishlangan. Bu qismida Buxoro xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, shuning chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan Jizzax (1866) hamda Samarqandning ishg'ol qilinishi (1868) voqealar batafsil yoritilgan.

«Tarjimai ahvol amironi Buxoroyi sharif»ning qo'lyozmalari Toshkent, Samarqand, Dushanbe kutubxonalarida saqlanadi. Asarning matni mashhur sharqshunos olim prof. Abdug'ani Mirzoyev tomonidan chop etilgan.

Ahmad Donish asarlari olimlarimiz tomonidan o'rganilgan, tarjima etilib kitob bo'lib chiqqan. Ma'rifatparvar olim Ahmad Donish 1897 yili Buxoroda 70 yoshda vafot etgan. Ahmad Donish o'z davrining tanikli xattoti, rassomi va naqqoshi ham edi. Uning ijodi namunalaridan ayrimlari – “Maktab”, “Shoir va darvish”, “Majnun sahroda” nomli miniatyuralari, “Bangining hajviy rasmi” (ko'xna Sharq qo'lyozmalaridan ko'chirmalar asosida berilgan), “Kun chiqish va botish soatlari jadvali”, “Ot yilining kalendari”, “Shoh va darvesh” va boshqa 20 ga yaqin asari madaniy meros sifatida hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Ahmad Donish o'zidan oldin o'tgan buyuk allomalar, mutfakkir olimlar asarlarini puxta o'rgandi.

Diniy va dunyoviy ilmlari bilimdoni Ahmad Donish 1850-yillardan Buxoro amiri Nasrullo (1826-1860) saroyida xattot va me'mor vazifalarida samarali ishladi. U keyinchalik bosh me'mor darajasiga ko'tarilib, Buxoro shahridagi oliy darajadagi binolar, saroylar, koshonalar qurilishiga bosh-qosh bo'ldi. Ahmad Donish XIX asrning o'rtalarida Buxoro shahri va uning atroflaridagi hududlarning topografik xaritasini aniq chizib ifodaladi. Xaritadagi topografik joylar nomi va xoshiyadagi matnlar tojik tilida bo'lib, arab alifbosida yozilgan. Xaritada Buxoro hamda uning atrofidagi qishloqlar va ekin maydonlari, shaharning yon tomonidan umumiy ko'rinishi tasvirlangan.

Buxoro xaritaning markaziga tushirilgan bo'lib, uning atroflarida binolar, maydonlar, bog'lar, ariq-xovuz, chashmalar yakkama-yakka aniq tasvirlab berilgan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, Ahmad Donish tayyorlagan shaharning topografik xaritasi shahar Arki, devori, memoriy, tarixiy obidalari, Mir Arab, Kukaldosh, Devonbegi va boshqa madrasalar, Chashmai Ayub, Katta Minora masjidi, Labihovuz, Ismoil Somoniy maqbaralari, savdo inshootlari, shahar mudofaa devorining 11 darvozasi, 12 ta yirik mahallalar, shuningdek, 79 ta hovuz, 29 ta mozor, 11 ta ko'l, botqoqliklar maxsus belgilar bilan ko'rsatilgan.

Jumladan, shahar maydoni qizil, uni turli tomondan kesib utgan ko'chalar esa oq rangda ko'rsatilgan. Shahar atrofini o'ragan devor va uning burchaklari jigarrangda bo'lib, doira va yarim doiradan iborat kungurador shaklida tasvirlangan. Xonlikning davlat mahkamasi va Buxoro amirligining qarorgohi hisoblangan Ark shahar rejasining shimoliy qismi markazidan o'rin olgan. Uning maydoni oq, imoratlari esa qizil rangda. Xaritada suv inshooti bo'lgan bosh kanal shaharni uch joyidan kuldalangiga kesib o'tgan. Shahar atrofidagi ekin maydonlari to'q yashil to'g'ri chiziqlar bilan, qishloqlar esa qizil chiziqli to'g'ri to'rt

burchaklar bilan ifodalangan. Xaritada shaharning ba'zi joylar bilan oraliq masofasi, shahar qal'asining aylanasi, machitlar soni 390 ta, uning ichki va tashqarisidagi barcha hovuzlar soni esa 350 ta ekanligi ko'rsatilgan. Buxoroda 250 ta madrasa bo'lib, ularning har birida 300 dan to 500 tagacha xujra borligi, shuningdek, bozor maydonlari, savdo rastalari va dukonlari ham xaritadan o'rini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Axmad Donish tomonidan tuzilgan ushbu xaritada Buxoroning XIX asrdagi muhim geografik-topografik holati tasvirlab berilgan. Keyingi yillarda Buxoro shahri va uning atrofidagi muhim tarixiy joylari tushirilgan xaritani tayyorlashda Axmad Donish tuzgan xaritadan bevosita foydalanilgan.

Afsuski, bu noyob tarixiy-geografik, ilmiy ahamiyatga molik topografik xarita 1858 yili Rossiyadan Buxoroga yuborilgan elchilar bilan olib ketilgan edi. Shuningdek, Lerx yana 30 ta noyob sharq qo'lyozma asarlarini ham o'zi bilan olib ketgan. Axmad Donish tomonidan tayyorlangan Buxoroning XIX asr xaritasi hozirgi kunda Rossiya Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Sankt-Peterburg bo'limi fondida saqlanmoqda. Bu qimmatli nodir tarixiy ma'moriy obidalarni o'z ichiga olgan mazkur geografik va topografik xaritani Sankt-Peterburg ilmiy muassasalaridan izlab topib, uni XX asrning 60-yillarida ilmiy asosda o'rganib, bu haqda "Fan va turmush" va "O'zbekiston ijtimoiy fanlar" jurnalida ilmiy maqola chiqargan taniqli qadimshunos olim, tarix fanlari doktori, akademik Abdulahad Muhammadjonovning xizmatlari ayniqsa kattadir. Bu xarita Markaziy Osiyo xalqlarining topografik merosini o'rganayotgan geograf, elshunos va me'morshunos olimlar uchun ham, shuningdek, Buxoroning XIX asr tarixi, me'moriy obidalari, sug'orish inshootlari, shahar mudofaa devori va darvozalari, mahallalari, bozor maydonlari, savdo rastalari, kavonsaroylari va boshqa tomonlarini o'rganuvchilar uchun ham muhim ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan nodir ilmiy merosdir. Xalqimizning mazkur boyligi albatta, o'z Vataniga – O'zbekistonga qaytishi kerak.

### **Manba va adabiyotlar ro'yxati**

1. Бойтуллаев Р. Остонова Г. "Мозий дафтарида саҳифалар". Т., 2010.
2. Академик Бурибой Ахмедов. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. Тошкент «Чулпон» нашриёти 2003.
3. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Тошкент «Шарқ» 2004.

## **9-Mavzu: Muhammad Solih Toshkandiy ilmiy merosi.**

### **Reja**

1. Muhammad Solih xoja Toshkandiy hayoti va ijodi.
2. Muhammad Solih xoja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari.

**Tayanch iboralari:** Muhammad Solih xoja Toshkandiy. “Tarixi jadidayi Toshkand”. Beklarbegi . Xoja Ahror.

**Muhammad Solih xoji Toshkandiy.** (To’la ismi: Muhammad Solih domla Qoraxoji o’g’li). Toshkentlik yirik tarixchi olim, taxminan 1830 yili tug’ulgan. Vafot etgan vaqti nomalum , boshlang’ich ma’lumotni bobosi mulla Abduraximxojadan olgan, so’ng Beklarbegi va Xoja Ahror madrasalarida o’qigan. Farg’onaning Qo’qon (1853), Marg’ilon, Namangan, O’sh(1853) shaharlarida , keyinchalik Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz va boshqa shaharlarida bo’lib, madrasada olgan bilimni chuqurlashtirgan. 1863 yildan boshlab ilgari bobosi imomlik qilgan masjidda imom bo’lib xizmat qilish bilan birga dars ham berib turdi.

Muhammad Solih xoja Toshkandiy turli ilimlardan (tarix, geografiya, adabiyot, tib) xabardor bo’lgan kenng ma’lumotli kishi edi, lekin tarixga rag’bati ko’proq edi. U Abu Tohirxojining (XIX asr) “Samariya”siga o’xshash Toshkent , uning tarixi va osori-atiqalariga bag’ishlab bir asar yozishni ko’pdan orzu qilib yurgan va nihoyat, 1863-1888 yillari bunga erishgan. 1863-1888 yillarda u «Tarixi jadidayi Toshkent» (Toshkentning yangi tarixi) deb atalgan va ikki jilddan iborat kitob yozgan. Birinchidan jildda qadim zamonlardan to XV asroxigacha Sharq mamlakatlarida, shuningdek O’rta Osiyoda bo’lib o’tgan voqealar, ikkinchi jildda esa Farg’onaning XV asr oxiridan to XIX asrning 80-yillarigacha bo’lgan ijtimoiy siyosiy tarixi bayon etiladi.

Bu asar “Tarixi jadidayi Toshkand” deb ataladi. U ikki jilddan iborat. Birinchi jildda qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha Sharq mamlakatlarida, shuningdek O’rta Osiyoda bo’lib o’tgan voqealar, ikkinchi jildda esa Farg’onaning XV asr oxridan (Zahiriddin Muhammad Bobur davridan) to XIX asrning 80-yillarigacha kechgan ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. Shuning bilan birga , asarda Toshkent shahri va unga qarashli tumanlarning geografik , iqtisodiy va siyosiy ahvoli hamda madaniy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

Asar hali biron tilga tarjima qilinmagan , qo’lyozma nusxalari mavjud. Faqat Toshkentda O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida uning uch nusxasi (№ 7791, 11072-73 va 5732) saqlanadi.

## 10-MAVZU: MIRZA OLIM MAXDUM XOJINING TARIXI TURKISTON ASARI MANBA SIFATIDA.

### Reja

1. Asarda ingliz razvedkasi faoliyati.
2. Angliya va Rossiya manfaatlari Turkistonda to'knashuviga doir ma'lumotlar.
3. Turkiston tarixi tarixshunosligida matbuot sahifalarida berilgan ma'lumotlar.

**Tayanch iboralari:** Mulla Olim Mahmud Xoji. Tarixi Turkiston. Abdulsamad. Buyuk Britaniya. Rossiya.

XIX asrning ikkinchi yarmida tarixchi sifatida tanilgan olimlardan Mulla Olim Mahmud Xoji qalamiga mansub «Tarixi Turkiston» asari o'tmishimizni o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Asar manbalarining boyligi bilan ajralib turadi.

**1.«Tarixi Turkiston»** asarining avtori Mulla Olim Majdum xojaning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1834 yilda Eron orqali Buxoroga Abdulsamad Tabriziy nomli bir kishi yuboriladi. Abdulsamad birinchi marta Eronda ingliz agenturasi tomonidan yollanib, Hindistonda maxsus harbiy va siyosiy josuslik maktabini o'qib bitirgan va Afg'oniston orqali Buxoroga yuborilgan edi. Bu ingliz razvedkachisining faoliyatini ingliz agressorlari O'rta Osiyoda olib borilgan qo'poruvchilik ishlarining qanchalik chuqur va o'tkir ekanligini ko'rsatadi.

Abdusamad Buxoroga kelgach, ingliz agenturasi tomonidan topshirilgan vazifalarni bajarishga kirishdi. Tez orada u Buxoro amiri Nasrulloning ishonchini qozonib, Buxoroda Evropa tartibida muntazam qo'shin tuzishga erishdi. U muntazam qo'shin uchun hatto ikki yuzga yaqin Eron asirlarini ham sotib olgan edi.

Abdusamad ingliz namunasidagi to'plar qo'yish uchun maxsus korxonalar tashkil qiladi. Bu korxonalarda to'plardan tashqari har xil qurollar va harbiy aravalar tayyorlattiradi. U shaxsan o'zi qo'mondonlik qilish uchun otliq askar va tq'pchilar otryadini uyushtiradi.

**2.Biz** bilamizki, XIX asrning o'rtasida mustamlakachi ikki imperiya, ya'ni Angliya va Rossiya manfaatlari Turkistonda to'knashdi. Rossiya siyosatchilari Buyuk Britaniyaning Turkiston va Kaspiy dengizining Sharqiy tomonlarini egallab olishidan g'oyat xavfsirayotgan edilar.

XIX asrda Buyuk Britaniya o'z tasarrufidagi Hindiston va Afg'oniston orqali o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar olib borardi. Ayni paytda ingliz siyosatchilari esa Turkistonni Rossiya bosib olishidan xavfsirab, uning chegaralari Afg'onistongacha etib kelmasligini istar edilar.

Angliyaning asosiy maksadi xonliklarni bosib olishga chog'lanayotgan Rossiyaning rejalarini barbod qilish, uchchala xonlikni unga qarshi kuch qilib birlashtirish va O'rta Osiyo bozorlarini egallash edi. Angliya hukumati shu maqsadda 1841-1842 yillarda Stoddart va Konnolini xonliklarga maxsus missiyasi bilan yubordi. Qo'qon va Xiva xonlari ularning taklifiga ko'ndilar. Ammo Buxoro amiri Nasrulloxon ingliz elchilarini qatl qildilar. Shu ishi bilan u chor Rossiyani

ruhlantirib, uning bosqinchilik yurishi boshlashiga imkon yaratib berdi. Rossiya bu imkoniyatdan 1853-yilda general Perovskiy Oqmachitni egallab oldi.

Rossiya imperiyasi o'zbek xonliklarini bosib olish bo'yicha katta harbiy rejalar tuzdi. Rejada Turkistonni bosib olgandan keyin xonliklarning taqdiri qanday bo'lishi oldindan hal qilinib qo'yilgan edi. Harbiy harakatlarga ketadigan xarajatlar, qo'shin miqdori, urush xarajatlarida qatnashuvchi qismlar, suv va quruqlikda harakat qiluvchi vositalar, qurol-yarog' zahirasida Rossiya harbiy vazirligida o'z echimiga ega edi. Rejada asosiy zarbani Qo'qon xonligiga berish, ayni paytda Xiva, Buxoro xonliklarining birlashgan qo'shin tuzishga va ularga birgalikda harakat qilishga imkon bermaslik, ular o'rtasida nizo-nifokni kuchaytirish yo'llari o'rganilib chiqilgan edi.

Shunday qilib, general Chernyaev 1864 yilni 1 oktyabrida Toshkent shahrining sharqiy tomonidan bosib olishga harakat qildi. Uning qo'shinida 8 rota askar, 100 nafar kazak, 12ta zambarak, 1500 urish soldati guruhlardan iborat edi. Bu harakat amalga oshmadi.

Nihoyat, 1865 yil 9 may kuni har ikki tomon kuchlari to'qnashdi.

Bu voqealarni o'lkashunos tarixchi Mirza Olim Toshkandiy o'zining «Tarixi Turkiston» nomli kitobida qo'yidagicha bayon etadi: «Bir necha kundan keyin Rossiya askarlari Toshkand ustiga kelib, qaytadan Xujand darvozasidan hujum qila boshladilar. O'sha vaqtda Toshkent shahrining tomonlari atrofini aylantirib, bino qilingan qalin va baland qo'rgon, tashkari atrofii zovur qazilgan va un ikki davrozasi bor edi.

Bu jangni o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Solih «Tarixi Ja'didi Toshkent» nomli qo'lyozma asarida qo'yidagicha tasvirlaydi: Butun osmonni tutun va chang qoplab oldi, nihoyat ruslar yaqindagi tepalik tomon chekinib, mudofaaga utishga majbur bo'ldilar. Qamalda yotgan shaharliklar buni ko'rib juda quvondilar, etti yashar boladan tortib etmish yashar chollargacha g'alabani qutlab, sarbozlarga ovqat, sharbat, issiq non keltirib turdilar. Lekin rus qo'shinlari o'zlarini o'nqlab, qayta hujumga utib, Toshkent qo'shinlarini orqaga chekintirdi».

Toshkent dahshatli xavf ostida qolgan kunlarda shaharning obro'-e'tiborli vakillari yig'ilishib, Buxoroga o'z elchilarini jo'natdilar. Elchi Buxoro amiri Muzaffar Toshkent ahliga nisbatan xiyonat bilan teng darajada fikrini bildirib, shunday maqtanchoqlik qildi: «Men bir rus lashkarboshisi bilan jang qilishni or-nomus deb bilaman. Xohlasam to'ppa-to'g'ri Moskva yoki Peterburgga borib Rus davlati bilan urushaman» dedi. Kaltafahmlik bilan Qo'qon xonligiga qarshi yurishga tayyorlandi. Dushmanga qarshi kurashish o'rniga Turkiston birliliga putur etkazadigan xatarli yo'lni tanladi...

Shunday qilib, 1867 yil 14 iyulda Rossiya imperatori Aleksandr II Turkiston general-gubernatorligiga ta'sis etdi.

1886 yilda chor hukumati «Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom»ni tasdiqladi. Shu Nizomga asosan rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish harkatini qonuniy mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchilarga 10 d-dan kam bo'lmagan er ajratish belgilandi...

15 yil ichida, ya'ni 1875-1890 yillar ichida Turkistonda 19ta rus qishlog'i tashqil qilindi. 1891-1892 yillarda Rossiyada ocharchilik boshlanganda esa Turkistonga ko'chib keluvchilarning soni nihoyatda ko'payib ketdi. Ana shu ikki

yil davomida 25 ta rus qishlog'i paydo bo'lib, er dehqonlarining soni ikki baravar ko'paydi...

3. Turkiston tarixi tarixshunosligida matbuot sahifalarida berilgan ma'lumotlar alohida tarixiy manbalar turkumiga kiritiladi. Sovet tuzumining mahalliy matbuot tarixini iloji boricha qoloq, deyarli yuq darajada baholanishi ularga bo'lgan munosabatni chetlab o'tishga majbur etilgandi. Mustaqillik davrida Turkiston matbuotining Rossiya imperiyasi bosqini davrida o'ziga xos xususiyatlari qaytadan tiklandi. Ularda bildirilgan ma'lumotlar o'zining tarixiyligi bilan qimmatlidir. Qo'yida Turkiston matbuoti sahifalaridan namunalar keltiriladi.

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida iqtisodiy va siyosiy vaziyatning keskinlashuvi bir qator ijtimoiy muammolarni vujudga keltirdi. Buning sababi birinchidan, imperiya sanoat taraqqiyoti jihatidan YYevropaning ilg'or davlatlaridan orqada qolishi; ikkinchidan, chet el davlatlaridan katta miqdorda qarz olinishi; uchinchidan, rus-yapon urushidagi mag'lubiyat (1904-1905); to'rtinchidan, Stolipin agrar islohotining samara bermaganligidan iborat bo'ldi. O'z navbatida bunday vaziyat Turkiston xalqlariga xam sezilarli ta'sir o'tkazdi. Xalq manfaati va jamiyat taraqqiyotiga befarq bo'lmagan milliy ziyolilar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohada bir necha talablarni ilgari surdilar. Jumladan, soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, xalq ahvolini yengillashtirish, adolatli boshqaruvni o'rnatish kabi masalalarni ular yechilishi lozim bo'lgan muammo sifatida ko'tardilar. O'lka ziyolilari va mahalliy sarmoyadorlar XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy, diniy va dunyoviy jarayonlar chop etib turilgan «**Taraqqiy**» (1906-1907, muhariri Ismoil Obidiy), «**Xurshid**» (1906-1907, muhariri Munavvar Qori), «**Tujjor**» (1907-1908, muhariri Saidkarim Saidazimboy o'g'li), «**Shuhrat**» (1907-1908, muhariri Abdulla Avloniy), O'rta Osiyoni yag umr guzaron-lig'i gazetasi «**Taraqqiy**» (1906-1907, muhariri Geyer), «**Osiyo**» (1908 muhariri Ahmadjon Bektemirov), «**Samarqand**» (1913, muhariri Mahmudxo'ja Behbudiy), «**Sadoi Turkiston**» (1914-1915, muhariri Ubaydulla Xo'jayev), «**Sadoi Farg'ona**» (1914-1915, muhariri Obidjon Mahmudov) kabi bir qator milliy matbuot sahifalarida o'lkadagi va boshqa mamlakatlardagi yangiliklarni yoritib, keng xalq ommasini tanishtirishga harakat qildilar. Ular yuqorida keltirilgan omillarni aholi umumiy ahvolidan yomonlashuviga sabab bo'layotganligini va ayniqsa, soliqlarning oshirilishi aholi turmush darajasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, hamma vaqt norozilik bilan kutib olinganligini ta'kidlaganlar. Mustamlaka ma'muriyati esa uni oshirishdan manfaatdor bo'lganligi bois, o'lkaning turli shaharlaridagi дума majlislarida fuqarolarning solig'ini ko'tarish masalalari bir necha bor ko'rilgan. 1908 yil yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan дума majlisi bunga yaqqoldalil bo'la oladi. 8 yanvarda shahar дума qatnashchilaridan 15 nafar musulmon va 16 nafar Rossiya vakillari ishtirokida majlis ochilgan bo'lib, bu haqida «Tujjor» sahifalarida kuyidagicha ma'lumot keltiriladi; «Duma ochilg'ondan so'ng hurmatli gorodskoy glovo (shahar boshlig'i - Yo. T) ma'lum qildilarki, shahar daromadi sarfig'a yetmaydur. Shul sababli naluk (solik - Yo. T.) oqchasini oshirulsa ekon deb oshurmoqqa buyurdilar». Dumada musulmon qatnashchilar qattiq qarshilik qilishsada, ularning barchasi yig'ilishga kelmaganligiga qaramay qaror qabul qilingan. Muallif ular dumaga saylangunga qadar xalqqa katta va'dalarni berib, aholi manfaatini himoya qilishda majlisda qatnashmay beparvolikka yo'l qo'yishganligi va natijada rus vakillari ko'pchilikni tashkil etib, maqsadlariga erishganligini afsuslanib ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, soliqlarning oshirilishi siyosiy tortishuvlarga ham sabab bo'lgan va hatto, tijorat ahlini ham tashvishga qo'ygan. Misol tariqasida «Sadoi Farg'ona» dagi keltirilgan malumotni keltirish mumkin.

Unda ta'kidlanishicha, Qo'qon shahrining sarf-xarajatini qoplash uchun savdogarlardan olinadigan soliq miqdori ko'paytirilgan va norozi bo'lgan sarmoyadorlar tegishli joylarga ariza bilan chiqishib, to'lovlarni tartibli olishni so'rashgan. Bundan tashqari vaqtli matbuotda aholi kundalik ehtiyojiga zarur bo'ladigan meva va poliz ekinlarining narxлари ham kuzatib borilgan. Ma'lumotlarga ko'ra narxlarni o'zgarib turishi fuqarolarning tashvishlanishiga sabab bo'lgan. Jumladan, «Ushbu yil Toshkentda mevalar, uzum, qobunlar qimmat baho ila sotilmoqdadir. O'tg'on yillarda har xil mevalar arzon baho ila sotilib turilar edi. Bir tiying'a 3 adad, 4 adad bodring sotilur erdi. Bir qadoq chillaki uzum 6 tiyin bo'lur erdi. Yaxshi qaro uzumlarning 11 pudi 8-9 so'm, olib qo'ymoq uchun husayni degon uzumlar 10 so'mdin 16 so'mg'acha bo'lur erdi. Olmalarning narxi ham arzon bahoda erdi. Ammo, ushbu 1907 yil mevalar va qobunlar ko'b baho ila sotilib aksar beva-bechoralar olmoqqa qodir bo'la olmadilar», deb yozgan edi «Tujjor» gazetasi. Buning sababi sifatida mevali daraxtlar gullagan davrida qattiq do'l yoqqanligi va mevalarning nobud bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan. Lekin hosil yaxshi bo'lmay meva, kovunlar kam bo'lsada, ularni oluvchi xaridorlarning ko'pligi bois, tijoratni yaxshi tushunadigan arman savdogarlari bunday vaziyatdan foydalanib, uzum va mevalarni yetishtiradigan dehqonlardan ko'p miqdorda sotib olib, nafaqat Toshkent, balki boshqa viloyat bozorlarida qimmat narxlarda sotishgan. Foydani yanada ko'paytirish uchun ular mahalliy aholining bog'laridagi mahsulotlarni 800 so'm, 1000 so'm, undan ham yuqoriroqqa sotib olib, mevalarni, qovun va tarvuzlarni to'g'ridan-to'g'ri bog'larning o'zidan aravalarga ortib viloyatlarga tarqatganlar. Muallif nima uchun millat vakillari shunday daromad keltiruvchi tijorat bilan shug'ullana olmasligi, armanlar singari katta foyda topa olmasligiga urg'u berib, buning sababi yalqovlikda, dangasalikda ekanligi. Turkiston yerlari unumdorligi, agarda ziroat ishlariga e'tibor berilib, qarovsiz yerlar obod etilsa, mevalarning hosili mo'l bo'lishi va natijada bozorlar hosilga to'lib, aholi ehtiyojlarini bimalol qondirilishini ta'kidlagan. Bundan ko'rinadiki, XX asr boshlarida ham bog'dorchilik, polizchilik va dehqonchilik kabilar qishloq xo'jaligining daromad keltiruvchi asosiy tarmoqlari bo'lgan. Bozorlarda narxlar yildan-yilga o'zgarib borishi natijasida ayrim maxsulotlarning narxi o'sib, ayrimlari esa pasaygan. «Tujjor» sahifalarida Toshkent shahri bozorlaridagi narxlar keltirilgan jadval fikrimizning tasdig'idir. Unda keltirilishicha, bir pud g'alla bir so'm, arpaning bir pudi 75 tiyin, tariqning bir pudi 90 tiyin, Xo'qand jo'xorisining bir pudi 80 tiyin, quruq bedaning 100 bog'i 4 so'm 50 tiyin bo'ltanligini kuzatish mumkin. Vaqt o'tishi bilan g'alla, jo'xori, arpa, bedalarning narxлари kimmatlashib, tariqning baxosi esa 90 tiyindan 80 tiyinga tushgan. Mahsulotlar narxining bunday o'zgarib turishi jamiyatdagi iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lganligi shubhasiz. Shu bilan birga matbuot sahifalarida aholiga qulaylik yaratish maqsadida e'lonlar va reklamalar orqali arzon baholarda sotiladigan mahsulotlar haqida xabarlar berib borilgan. Bu haqida quyidagi xabarda shunday deyiladi «Rustamboy Olimboyefning magozinida 5 dekabrda 25 dekabrgacha arzon baho ilan har turli mollar sotiladur».

### **Savol va topshiriklar:**

1. 1834 yilda Erondan ingliz agenturasi tomonidan yollanib Buxoroga yuborilgan shaxs kim edi?
2. Muhammad Solih «Tarixi Ja'didi Toshkent» nomli qo'lyozma asarida ruslar ta'ziyo,ini o,anday tasvirlaydi?



3. Turkistondasoliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, xalq ahvolini yengillashtirish, adolatli boshqaruvni o'rnatish kabi masalalarni yoritishda manba bo'lgan matbuot namunalarini sanab bering.

## 11-MAVZU: ABU TOHIRXO'JA VA UNING "SAMARIYA ASARI"

**Tayanch iboralari:** Samarqand. Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasag-fiy as-Samarqandiy. Samarqandni ta'riflovchi qand kitob». «Samariya».

Samarqand va uning ko'hna tarixi haqida ayrim, alohida asarlar yozilganligi ma'lum. Lekin ular bizgacha to'la yetib kelmagan, ba'zilarining esa nomlarigina saqlangan, xolos. Bulardan biri Abu-l-Abbos Ja'far ibn Muham-mad al-Mustag'fariy al-Mustavfiyning (402/1011-12 yili vafot etgan) «Tavorixi Samarqand» («Samarqand tarixi») asaridir. Ushbu asar Samarqandning ibtidoiy zamonlardan to X asrgacha bo'lgan tarixi, uning osori atiqalari, shuningdek Nasaf (Qarshi) va Kesh (Shahrisabz) viloyatla-rining tarixini o'z ichiga olgan. Samarqand tarixiga bag'ishlangan, ammo bizgacha faqat nomigina yetib kelgan asarlardan yana birini Abu Sa'id Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy (405/1015 y. vafot etgan) yozgan. U «Kitob al-kamol li-ma'rifat ar-rijob» («Nomdor kishilarni tanituvchan mufasssal kitob») nomli asardir. Samarqandlik olim Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasag-fiy as-Samarqandiy (537/1143 yili vafot etgan) yuqoridagi asarning davomini yozib, uni «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand» («Samarqand tarixiga oid qand kitob») deb atadi. An-Nasafiyning bu asari ham saqlanmagan. Lekin uning qisqartirib yozilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bulardan biri «Qandiyayi xurd» («Kichik Qandiya») nomi bilan mashhur bo'lib, an-Nasafiyning shogirdi Abu-l-fazl Muhammad ibn Abd ul-jalil ibn Abd ul-malik ibn Haydar as-Samarqandiyning (XII asr) qalamiga mansubdir. Ikkinchi nusxa esa juda ham qisqa bo'lib, «Qand dar tarifi Samarqand» (Samarqandni ta'riflovchi qand kitob») deb ataladi. Asar muallifi ma'lum emas. Har ikki asar nusxalari jahonning ko'pgina qo'lyozmalar jamg'armasida, shuningdek, Sankt-Peterburg va Toshkentda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmgohida saqlanmokda.

Shunday qilib, bu asarlar birinchidan, Samarqandning ko'pi bilan XII asrgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. Ikkinchidan esa, to'la tarzda bizgacha yetib kelmagan. Ko'hna shahar esa o'z tarixini bundan keyin ham davom ettirdi va Chingizxon xuruji (1220-22) natijasida yuz bergan xarobaliklarni mustasno qilganda, taraqqiy qildi, yuksaldi, Samarqand, ayniqsa Amir Temur (1370-1405) va Mirzo Ulug'bek (1409-1449) zamonida beqiyos rivojlandi, gullab-yashnadi. Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi yillarida, ayniqsa XVIII asrniig 30-40 - yillarida, o'zaro kurashlar avjga minishi va Eron hukmdori Nodirshohning (1736-1747) huruji oqibatida yana vayron bo'lib, tushkunlikka yuz tutdi. Ko'rib turibsizki, faqat arablar istilosidan (VIII asr boshlarida) keyin shahar bir necha bor buzilib, yana o'z qaddini rostladi. Bu orada, shubhasiz, shahar qiyofasi bir necha bor o'zgardi va bu xususdagi ma'lumotlar, ayniqsa, shaharning XIX asr ikkinchi yarmidagi qiyofasi qanday ekanligini faqat Abu Tohirxojaning «Samariya» asari tufayligina bilish mumkin.

«Samariya» va uning muallifi xaqida so'z boshlashdan avval shuni ham aytish kerakki, bu asar ko'pdan beri keng ilmiy jamoatchilik diqqatini o'ziga tortib kelmoqda.

Asar o'tgan asrning so'nggi choragida mashhur sharqshunos olim V.L.Vyatkin tomonidan birinchi marta rus tiliga tarjima qilinib, 1898 yilda Samarqandda chop qilindi. Oradan ko'p o'tmay (1904) Sankt-Peterburgda «Samariya»ning fors-tojikcha tanqidiy matni ham bosilib chiqdi. Bu mushkul, lekin foydali ish atoqli rus sharqshunos olimi N.I.Ve-selovskiy tomonidan asarning ko'hna qo'lyozma nusxalari asosida bajarildi. N.I.Veselovskiy «Samariyaning mazkur nashriga Turkiston general-gubernatori K.P.Kauf-manning amri bilan 1878 yilning avgust oyida portlatib yuborilgan Nuriddin Basir (Qutbi chahordaho'm nomi bilan mashhur) mozorining fotonusxasi va loyihasini hamda mozorga vaqf qilingan yer-suv va mulk haqidagi vahfnomani ham ilova qildi.

Asar muallifi haqida juda kam ma'lumotga egamiz. O'zi keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, u Samarqand qozisi Abu Sa'id ibn Abd ul-Hayning o'g'lidir. Abu Tohirxojaning otasi ham, bobosi mavlono Mir Abd ul-Hay ham uqimishli va zamonasining fozil kishilari bo'lgan. Mavlono Mir Abd ul-Hay (1169/1755-1243/1827) Samarqandda 40 yil qoziyi kalonlik mansabida turgan va shu bilan bir qatorda birtalay ilmiy asarlar yozgan. «Havoshi Shofiiy bar sharhi Bayzoviy», «Sahihi Buxoriy»ning forsiycha sharhi», «Zaburi Dovudning forsiycha tarjimasi», «Axloqi Bahodirxoniy», «Hidoya sharhi»ning sharhi» shular jumlasidandir. Muallifning otasi mavlono Abu Sa'idxoja (h. 1265 y. shavvol oyining 16-sida/1849 y., 23-avgustda vafot etgan) ham o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, ilmning «Fikh» (musulmon qonunchiligi) va kalom (diniy aqoidlarni isbotlovchi ilm) sohalarida asarlar bitgan. Abu Tohirxoja esa XIX asrning 40-yillarida muftiylik lavozimida bo'lib, keyincha Karmanada raislik mansabida (Ayniy so'zboshisidagi 1-izohga qarang) turib, 1874 yilda vafot etgan.

«Samariya» o'n bir bob, muqaddima va xotimadan iborat bo'lib, Samarqandning bunyod etilish tarixi, shaharning «Samarqand» deb atalishi sabablari, jug'rofiy holati, ob-havosi va XIX asrning uchinchi choragiga qadar saqlanib qolgan osori atiqalari, shuningdek, masjid va madrasalar, ko'shklar va mozorlar haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, asarda mashhur tarixiy shaxslarning hayotiga oid axborotlar ham ko'p. Misol tariqasida bir dalilni keltirsa bo'ladi. Muallif muhtasib Sayyid Oshiq mozori tavsifi qismida Mirzo Ulug'bek hayotiga oid qiziq hikoyatni keltiradi: «Sayyid Oshiq Samarqandda Ulug'bek mirzo zamonida va'z aytmoq bilan shug'ullanar edi, Aytadirlar-kim, bir kun Sayyid (Oshiq) Mirzo Ulug'bek oldida juda qattiq til bilan va'z aytdi. Ulug'bek Mirzo: «Sayyid! Men yomonroqmi, Fir'avn?» deb so'radi, Sayyid: «Fir'avn», deb javob berdi. Mirzo yana: «Siz yaxshiroqmisiz yo Muso?» deganda, Sayyid: «Muso» deb javob qaytardi. So'ngra Ulug'bek Mirzo aytdi: «Tangri Musog'a yaratilmishlarning eng yomoni bo'lgan Fir'avnni to'g'ri yo'lga solishga undaganda, «Qattiqlik bilan achchiq so'zlamagil, balkim yumshoq va chuchuk til bilan gapirgin», deb buyurdi. Endi siz Musodan ortiqroq bo'lmay turib, Fir'avndan yomonroq bo'lmag'anim holda, menga qattiq til bilan gapirasiz», Sayyid bu so'zni eshitgach, inday olmasdan hayron bo'lab jimiqdi».

«Xalifa Usmon Qur'oni» nomi bilan mashhur bo'lgan «Qur'on» nusxasi haqidagi ma'lumot ham e'tiborga sazovordir. «Samariya» muallifi bu haqda mana bularni yozgan: «Samarqandda xalifa Usmonning «Qur'oni» bor... Ushbu «Qur'on»ni Amir Temur kelturub o'z daxmasida qo'ygan edi. Viloyatning buzuqchilik chog'ida (XVIII asrda - B.A.) ul yerdan olinib, Xoja Nosir ud-din Ahror madrasasida (Madrasayi safedda) qo'yildi». Yoki mana bu misolni ham olib ko'raylik: «Abu-l-makorim «Muxtasari viqoya»g'a sharh yozg'uchilardan bo'lub, Muhammad Shayboniyxon (Shoh) Budoq sulton o'g'li zamonida fikh ilmida zamonaning birichchi olimlaridan edi. Shayboniyxon ul kishidan bir qiyin masala to'g'risida fatvo so'raganda, ul javob yozmadi. Shuning uchun

Shayboniyxon sinovsizlikdan buyurib, ul kishini arra bilan shahid etdurdi». Bunday ma'lumotlar asarda juda ko'p uchraydiki, ular, shubhasiz, Samarqand va O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullanuvchi va uni o'rganuvchilar uchun zo'r qimmatga egadir.

Shu bilan birga asarda islomning ko'zga ko'ringan namoyondalari va ularning hayotiga katta o'rin berilgan. Buni ayniqsa asarning, 10 va 11-boblarida (9-bob: «Shahar va (uning) tevaragidagi qabr va mazorlarning alomat va nishonalari to'g'risida», 10-bob: «Qabr ahllarini ziyorat qilish yo'llari»; 11-bob: «Qabriston elidan olinaturg'on ibrat va do'stlarga o'gut») yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun ham «Samariya»ning yuqorida zikr etilgan nashrlarida ham, shuningdeq, Abd ul-Mo'min Sattoriy tarjimasida xam, 10- va 11-boblar tushurib qoldirilgan.

Asarning o'zbekcha tarjimasi haqida ham bir-ikki og'iz so'z aytib o'tishga to'g'ri keladi. «Samariya» 1921 yili, yosh, iste'dodli o'lkashunos olim Abd ul-Mo'min Sattoriy (1925 yilning 23 iyulida sil kasali bilan vafot etgan) tomonidan fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima 1926 yili atoqli yozuvchi va olim Sadridin Ayniy tomonidan tahrir qilinib, nashrga tayyorlangan edi. Ustod Ayniy Sattoriy tarjimasiga ayrim tuzatishlar kiritish bilan birga, unga so'zboshi va zarur izohlar xam yozgan. Lekin asar nashrga tayyorlanganicha qolib ketgan va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik ilmgohi qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanib qolgan (№ 600).

Albatta, asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va uning nashrga tayyorlanishi ma'rifiy jihatdan zo'r voqea. Bunda Abdul-Mo'min Sattoriy va ayniqsa Sadridin Ayniyning mehnati tahsinga sazovordir. Lekin ayrim mulohazalar bilan bo'lsa kerak, muharrir asarning ayrim joylarini tushirib yuborgan. Bular quyidagilar:

1. Muqaddimadan xutba va asar muallifi o'zi xususida aytgan o'n satr (tarjima qo'lyozmasi, 1-sahifa).
2. Ko'hak (Zarafshon) daryosining «Harom kom» atalishi (19-sahifa).
3. Amir Temur qurdirgan Bog'i zog'on va Bog'i jahonnamo haqidagi ma'lumotlar (23-sahifa).
4. «Yettinchi bob: «Shahar tevaragi. Sifat va xosiyatlari bilan mashhur g'orlar va chuqurliklar bayonida» (33-34-sahifa).
5. Amir Temur jome'i (Bibixonim) ta'rifida aytilgan joylar (40-sahifa).
6. Ana shu jome'ning peshtoqiga ustalar tomonidan ishlatilgan san'atlar (42-sahifa).
7. Mirzo Ulug'bek madrasasining tavsifida aytilgan gaplar (43-sahifa).
8. Mirzo Ulug'bekning yoshi va vafoti haqidagi ma'lumotlar (49-sahifa).
9. Sherdor madrasasi peshtoqiga sher va oftob suratining solinishi ramziy bir ishorat ekanligi haqidagi satrlar (54-sahifa).
10. Qusam ibn Abbos mazori haqidagi ayrim gaplar (70-sahifa).
11. Shayx Abu Mansur Moturidiy hayotiga oid hikoyat (90-91-sahifalar).
12. Mavlono Zohid Afkori Samarqandiy hayotiga oid satrlar (108-sahifa).
13. Samarqand atrofida bo'lgan mazorlar xususida aytilgan gaplar (109-sahifa).
14. Xoji Doniyol mazori haqidagi ayrim so'zlar (112-sahifa).
15. Xoja Abdi Darunning avlodi haqidagi ma'lumotlar (132-sahifa).
16. Sayyid Umar Mavlono Xoja haqidagi gaplar (133-sahifa).
17. Mahdumi A'zam Kosoniy haqidagi ayrim ma'lumotlar (142-sahifa).

Bundan tashqari, tarjimada ayrim noaniqliklar ham bor. Masalan, Bibixonim jome' masjidining tavsifi qismida Amir Temur Hindistondan 91 filga turli-tuman boylik ortib kelganligi aytiladi. N.I.Veselovskiy chop ettirgan matnda ham shu raqam keltirilgan.

Aslida esa mato ortib keltirilgan fillar soni 191 tadir. Tarjimada Qusam ibn Abbosni «Banu Nojiya qabristonida, g'or yonida ko'mdilar» deyilgan, Biz foydalangan 412 raqamli qo'lyozma nusxada esa (v. 115 b.)» G'oziylar yoniga dafn etdilar" deb yozilgan. Tarjimon ham, muharrir ham N.I.Veselovskiy chop ettirgan matndan foydalanganlar. Lekin unda yo'l qo'yilgan kamchiliklar e'tiborga olinmagan. Tarjimoni N.I.Veselovskiy matni va «Samariya»ning qo'lyozma nusxalari bilan muqoyasa qilinganda, N.N.Veselovskiy tuzgan matn ham mufassal emasligi aniqlandi. Masalan, quyidagi ma'lumotlar unga kirmay qolgan:

1. Sherdor madrasasining ravoqiga sher va oftob suratining solinish sabablari haqidagi gaplar (19-sahifa).
2. Burhonuddin Marg'inoniy va u dafn etilgan o'rin haqidagi ma'lumot (36-sahifa).
3. Xoja Ahror hayotiga oid ayrim so'zlar (38-sahifa).
4. Xoja Doniyol va Xoja Rashidiy haqidagi ba'zi bir qimmatli ma'lumotlar (40-sahifa).
5. Xoja Muhammad Bashoroga oid bir-ikki jumla (52-sahifa).
6. Abu Tohirxojaning o'zi haqidagi ma'lumot (53-sahifa).
7. Pirim shayx Azizon vafoti to'g'risidagi ta'rixlar (52-sahifa) va boshqalar. Undan tashqari, Amir Temur Hindistondan mato ortib keltirgan fillar soni 91 (14-sahifa) va Qusam ibn Abbos dafn etilgan o'rin "G'or yonida" debyozilgan (22-sahifa).

## **12-MAVZU: MIRZA SALIMBEK VA UNING “TARIXI SALIMIY” ASARI MANBA SIFATIDA.**

**Tayanch iboralari:** Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim. Boysun. Sherobod. Amir Muzaffar. «Kakuli Salimiy», «Jome' ul-guzor». «Tarixi Salimiy».

XIX-XX asrlar chegarasida ulkan olamshumul voqealar sodir bo'ldi. Bu davr tarixiy axborotlarning asosiy manbasi- sayohatchilar, harbiylar va amaldorlarning safar xotiralari hisoblanadi. Ularning odatda yuzaki va tasodifiy kuzatishlari turlicha tasavvur va uydirmalardan iborat bo'lardi. Tabiiyki, bu xildagi ma'lumotlar bir yoqlama xarakterda edi. Bu kuzatishlarning ayrimlari asta-sekin tarixda yangilishlarni keltirib chiqara boshladi. Bu borada mahalliy hayotning barcha nozikliklarini biladigan, tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchilari bo'lgan mahalliy aholining kuzatuvlari katta ahamiyat kasb etardi. Aynan shuning uchun ham akademik A.A.Semyonov tomonidan “Buxoroning so'nggi tarixchisi” deb atalgan Mirza Salimbekning ishi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. U o'zining noyob iqtidori orqasidan oddiy mirzalikdan Buxoro amirining bosh moliyasichisi, Boysun va Sherobod bekliklarining hukumdori lavozimiga ko'tariladi.

Mirza Salimbek yoshlik yillarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilishi guvohi bo'ldi, yoshi keksayganida Oktyabr to'ntarishi ro'y berdi, keyin amir ag'darildi va Buxoro Xalq Sho'rolar Respublikasi o'rnatildi.

**Mirza Salimbek.** To'la ismi: Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida o'tgan tarixchi. Hayot va faoliyati haqida quyidagilar ma'lum: 1850-51 yillarda tug'ilgan (Buxoro) 1871 yili Narpay va Ziyovuddin hokimiga kotib bo'lib ishga kirdi, lekin olti oydan keyin amir Muzaffarning amri bilan Toshkentga kuzatuvchi qilib yuborilgan. Mirza Salimbek Toshkentga choyfurush qiyofasida keladi va bu erda 12 yil istiqomat

qiladi. 1880-1883 yillarda u amir huzurida, 1884-1885 yillarda Turkiston general-gubernatori huzurida, Buxoro vakili bo'lib turdi. 1885 yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlokdor qilib tayinlanadi. Shundan keyin uning martabasi yil sayin ortib boradi. 1888-1893 yillarda Nurota, Boysun shahrining mirshabi, 1893-1920 yillarda Nurota, Boysun, Serobod, Shahrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh zakotchi vazifasida turdi. U xizmatda bo'lishiga qarmay tarix sohasida risolalar yozdi. Uning «Kakuli Salimiy», «Jome' ul-guzor» (gulzorlar majmuasi), «Tarixi Salimiy» kabi risolalar yaratdi. Inqilobdan keyin (1920) u ba'zi sovet tashkilotlarida, Buxoroda tashkil etilgan «Anjumani tarixi» (Tarixshunoslar jamiyati) da xizmat qildi, juda ko'p asarlar yozdi. Tarixchilar uchun eng muhimi uning so'nggi asari «Tarixi Salimiy»dir. Asarning yozilgan yili noma'lum. Tadqiqotchilarning fikricha asar 1920 yillarda yozilgan.

Asarda, amir Muzaffar davrida Hisor, Ko'lob, Boljaun, Qorabegin va Darvozda bo'lib o'tgan feodallar isyoni, Buxoro-Qo'qon, Buxoro-Rossiya munosabatlari, Buxoro xonligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli, ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Mirza Salimbekning "Tarixi Salimiy" memuar nodir qo'lyozma sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Uning e'lon qilinmagan esdaliklari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondida 2016 raqami bilan saqlanadi.

Muallif ularda o'zi ko'pincha bevosita ishtrokchisi bo'lgan hodisalar haqidagi shaxsiy kuzatishlarini hikoya qiladi. Tarixiy xodisalarni Salimbek o'zicha baholaydi, ularga shaxsiy munosabati va taasurotlarini bayon qiladi. Ko'z oldimizda amirlikdagi ijtimoiy tuzum manzarasi paydo bo'ladi. "Tarixi Salimiy"da keltirilgan bir qator tarixiy dalillar, tarixiy hodisalar boshqa manbalar bilan qiyoslanganda, ularning tafsiloti ilgari hech yerda uchratilmagani aniqlandi.

Mirza Salimbekning memuar qo'lyozmasi o'z tarkibiga ko'ra, O'rta Osiyo asosan, Buxoroga Chingizxon bosqinining qisqacha tarixi bayoni bilan ochiladi. Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar va Ashtorxoniyalarning qisqacha tarixidan so'ng, hokimiyatga kelgan mang'it hukumdorlarining ancha keng tarixi boshqa manbalarda esga olinmaydigan ayrim tafsilotlari bilan beriladi. Amir Muzaffar davri (1860-1885) muallif o'zining xizmatini boshlagan paytlarida ro'y bergan voqealarining izchil davomi tafsilotlari Salimbekning shaxsiy hayoti lavhalari bilan chog'ishib ketgani tufayli ham asar memuar deb atalgan. Asarda Jadidlar haqida ilgari ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar mavjud. U jadidlarning yangi uslubdagi maktabining eski maktablardan afzalligini tushuntiradi. Biz uchun eng katta qiziqishni Mirza Salimbekning Sherobod hukumdori sifatidagi faoliyat ko'rsatgan davri uyg'otadi. Tarixchi beklilikning ma'muriy tuzulishi bo'yicha dalillar, mansabdor shaxslar haqida axborotlar keltiradi. Mirza Salimbek xalq ommasining turmush darajasini, eng ko'p ehtiyojda bo'lgan maxsulotlarning narxlarini payti-payti bilan eslatib turadi.

XX asr oxirida Sherobod bekligi hududida, eski Termiz xarobalari yonida podsho Rossiyasining Buxoro-Afg'on chegarasidagi tayanchi sifatida yangi Termiz qurila boshlandi. Harbiy shaharcha kengaya bordi va 1900 yilda amir Amudaryo va Surxon oraliq'idagi yerni podsho hukumatigga berdi. Ko'hna Termiz xarobalari qurilish materiali sifatida foydalana boshladi. Qurilish davomida o'nlab nodir me'morlik yodgorliklari buzuldi, ularning yo'qotilishi esa podsho hukumati manfaatlariga javob berardi.

Donishmand hamda vatanparvar Salimbek o'z imkoniyotlaridan kelib chiqqan holda mamlakat yodgorliklarining yovvoyilarcha barbod etilishiga qarshi edi. Uning

hukumdorlik yillarida Iso at-Termiziy maqbarasida tarixdagi eng katta ko'lamli qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Termiz tumanidagi yodgorliklarining o'ziga xos yagona va nodir tafsilotlari ham aynan Mirza Salimbekka taaluqlidir. Salimbekning mazkur harakatlari tufayli Hakim at-Termiziy yodgorligi saqlab qolingan.

Turkiston tarixi tarixshunosligida matbuot sahifalarida berilgan ma'lumotlar alohida tarixiy manbalar turkumiga kiritiladi. Sovet tuzumining mahalliy matbuot tarixini iloji boricha qoloq, deyarli yuq darajada baholanishi ularga bo'lgan munosabatni chetlab o'tishga majbur etilgandi. Mustaqillik davrida Turkiston matbuotining Rossiya imperiyasi bosqini davrida o'ziga xos xususiyatlari qaytadan tiklandi. Ularda bildirilgan ma'lumotlar o'zining tarixiyligi bilan qimmatlidir. Qo'yida Turkiston matbuoti sahifalaridan namunalar keltiriladi.

### **13- MAVZU: TURKISTON ISTIHOSINING MAJID XASANIY IJODIDA O'RGANILISHI.**

**Tayanch iboralari:** Turkiston. Toshkent. Qo'qon. Xudoyorning o'g'li Nasriddinbek. Kaufman. D. Logofet.

Petr Birinchi o'z hukmronligini boshlagan yillardanoq O'rta Osiyoni Rusiyoga qaram qilishni o'ylab yurardi. XVII asr boshlarida metallurgiya sanoatini rivojlantirish zarurati qistovida o'ris hukmdorlari va tadqiqotchilari O'rta Osiyoning ma'dan qatlamlari, jumladan, XVII asrdayoq ovozasini chiqqan Ulug'tovning boy konlari taqdiri bilan astoydil qiziqdilar. O'rta Osiyoda to'lib-toshib yotgan oltin sochmalari haqidagi ma'lumotlarga hukumat alohida e'tibor berar va shu tufayli Petrning shaxsan o'zi o'zbek xonliklari hududiga suqulib kirish rejasini ishlab chiqqan edi. Petr I tajovuzkor siyosatni amalga oshirish maqsadida O'rta Osiyoga 1714 yilda Preobrajenskiy polkining poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy, 1715 yilda kapitan Ivan Buxgolts rahbarligida Xivaga ikki marta qo'shin yuboradi. Yurishlarning muvaffaqiyatsiz tugaganiga qaramay, Petr hukumati o'z tahdididan voz kechmaydi. Petr Buxoroga elchi qilib italiyalik Florio Benevelini jo'natarkan, unga «oltin sochmalar» ning makonini, u yerga borish yo'llarini aniqlashni topshiradi. Beneveli tarix, jug'rofiya, etnografiya bo'yicha juda ko'p qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Uning fikricha, bu ma'lumotlar o'rganilsa, u yerlarda hukmron tariqasida o'mashib olish uchun birgina kuchli hamla kifoya ekan. Benevelining safari ham muvaffaqiyatsiz tugadi, uning o'zi Buxoro amiridan zo'rg'a qochib qutilgach, Petr o'limidan keyin, 1725 yilda Rusiyoga qaytdi.

Chor hokimiyati Petr siyosatini davom ettirarkan, rus – turk munosabatlariga diqqatini qaratdi. Tashqi siyosat Qora dengiz sohillarini bosib olish maqsadi asosida qurildi. O'zbek xonliklari bilan munosabatda esa dastlab harbiy kuch ishlatmasdan, Qozog'iston orqali doimiy savdo muomalalarini o'rnatish yo'lidan borildi.

XVIII asr boshlarida har uchala Juzning qozoqlari qalmiq (jungar)larning doimiy bosqinlari ostida qolgandi. Qozoq dashti 1723 yilga kelib og'ir ocharchilikni boshdan kechirgach, ojizlashib qolgan qozoqlar endi o'z mustaqilliklarini saqlab qola olmasdilar. Oqibatda, katta Juz jungarlarga siyosiy qaram bo'lib qoldi. O'rta Juz Buxoroga ko'chib borib, Buxoro xonligiga, kichik Juzning bir qismi esa Xiva xonligiga bo'ysundi. Qalmiqlar xataridan saqlanish va o'z hoki-miyatini mustahkamlash ilinji katta Juz hamda kichik Juz xoni Abulxayrxonni chor hokimiyati bilan yaqinlashuvga undardi...

Abulxayrxon 1730 yilda Juzni rus fuqaroligiga qabul qilishlarini so'rab Ufaga elchi yuboradi. Rusiyo hukumati O'rta Osiyoga hujum qilish uchun ishonchli istehkomga ega

bo'lish hamda o'z mustaqilligi yo'lida kurashayotgan boshqirdlarning qozoqlar bilan ittifoq tuzishining oldini olish maqsadida xonning iltimosini kechiktirmay qondiradi. Ko'pchilik qozoq oqsoqollarining qarshiligiga qaramay, 1730 yilda Kichik Juz bilan birga Semekxon boshchiligida O'rta Juzning bir qismi ham Rusiyo imperiyasi qo'l ostiga o'tdi. Qozoqlarning fuqarolikka o'tishi chor hukumati O'rta Osiyoga bundan keyin yurishlar qilishi uchun bir qancha imkoniyatlar yaratib berdi. Petr iborasi bilan aytganda, Sharq aloqasini yuritishda Qozog'iston kalit, darvoza rolini o'ynadi. Rusiyo Qozog'iston yerlarida harbiy istehkomlar qurishda mablag'ni ayamay sarfladi. 1734 yilda Orenburg gubernyasining kotibi I. Kirillovning zimmasiga qal'alar qurish, avval Buxoroga, keyinchalik Hindistonga savdo karvoni olib borish bahonasida atrof-tevarakning, yo'llarning tarxini chizish, ruda va oltin qidirishni yo'lga qo'yish kabi qator vazifalar yuklangan edi. 1742 yilda qurilgan brenburg o'zbek xonliklariga suqilib kirish yo'lida ham harbiy, ham iqtisodiy istehkom bo'lib xizmat qildi.

1721 yili Petr I tomonidan Rossiya imperiya deb e'lon qilingan edi. Imperiya o'z iqtisodiy va harbiy qudratini mustahkamlash hamda taraqqiy ettirish niyatida o'zga yurtlar, mamlakatlar yerlarini asta-sekin egallab, buning hisobiga o'z qaddini rostlab oldi.

XVIII-XIX asrlarga kelib, Rossiya imperiyasi tarkibida Boltiq bo'yi, Ukrainaning o'ng sohili, Belorussiya, Polshaning bir qismi, Bessarabiya, Shimoliy Kavkaz, Finlyandiya, Zakavkazy, Uzoq Sharq, Sibir, Qozog'iston, O'rta Osiyo, Pomir kabi o'lkalar bo'lib, 22,4 million km<sup>2</sup> yerni egallagan edi. V. I. Lenin ta'biri bilan aytganda, «Xalqlar turmasi» bo'lmish chor Rossiyasi hududida 81 gubernya, 20 viloyat, 931 shahar bo'lib, unda 100 dan ortiq xalqlar, elatlar (g'ayri rus millati 57 foizni tashkil qilardi) yashar edilar.

1738 yil avgustida V. N. Taxtishchev (rus tarixchisi) poruchik Miller boshchiligidagi karvon tarkibida Toshkent shahri tomon yo'lga chiqadi. Unga Buxoroning bir qancha shaharlaridagi hamda Toshkentdagi siyosiy ahvol to'g'risida va yana boshqa xil ma'lumotlar to'plash topshirilgandi. Bu karvonning ham omadi chopmadi, uni o'rta Juz qozoqlari tor-mor qildilar.

Yekaterina ikkinchi hukumati XVIII asr 70-yillarning oxirlarida O'rta Osiyo bilan o'rislar uchun har tomonlama foydali bo'lgan savdo-sotiq masalalariga katta e'tibor bera boshladi va XIX asrning birinchi choragidayoq o'zbek bozorlarida o'rislar mustahkam mavqyega ega bo'lib oldilar. Chunonchi, Buxoro amiri Shohmurod Ernazar otaliqni Peterburgga elchi qilib jo'natadi. Buning sharafiga Yekaterina Ernazar elchi madrasasi qurilishiga 134 ming so'm ajratgan.

Ovro'podagi taranglashayotgan xalqaro vaziyat, Napolyonga qarshi kurash (1805-1807), o'ris - turk urushi (1806-1812), o'ris-shved urushi (1808-1809), o'ris-fors urushi (1805-1813), 1812 yilgi Vatan urushi va Napolyonga qarshi kurashning davom ettirilishi Chor hukumatining O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosatini olib borishiga uzoq vaqtgacha yo'l bermadi.

Nikolay ikkinchi hukumati O'rta Osiyo bozorlarini butunlay Rusiyoga qaram qilish maqsadida Turkistonni bosib olishni tazlashtirishni o'ylay boshladi. O'rta Osiyoni bosib olish talabgorlari ichida eng bosar-tusarini bilmaydigani Orenburg harbiy gubernatori general-mayor V. A. Perovskiy bo'lib, u 1840 yil noyabrining oxirlarida 2 ta zambarak, 40 arava, hamda 5 ming piyoda askar bilan 10 ming tuyadan iborat karvonga bosh bo'lib Orenburgdan chiqib O'rta Osiyo tomon yuradi. Og'ir ob-havo sharoiti, yoqilg'ining yo'qligi, oziq-ovqat tanqisligi, kiyim-kechaklarning yaroqsizligi natijasida Perovskiy qo'shinining ma'lum bir qismini yo'qotgandan so'ng Xivaga yurishni to'xtatishga majbur bo'ladi. Istilochilar 1841 yilda Xonikov yetakchiligida Buxoroga o'tlanishadi. Bu yurish

natijasida Butenyov ikki xonlikni qurol bilan bosib olish imkoniyatlari, yo'llari, maqsadga erishish uchun harakat qilish rejalari kabi ma'lumotlarni o'zida jamlab noma yozadi. 1847 yilga kelib mustamlakachilar Sirdaryo etaklarini bosib olish rejasini tuzishadi va u yerda Raim istehkomi barpo etiladi. 1853 yilda general Blaramberg otryadi Oqmachitga (hozirgi Qizil Urda) hujum qilib bosib oladi. Ayni paytda G'arbiy Sibirdan Semipalatinskka qadar bo'lgan oraliqda ham shimoli-sharq tarafdan yurishlar boshlanib ketgandi. 1850-1854 yillar ichida podsho qo'shinlari tomonidan Zailiya (Iliorti) o'lkasi egallandi, 1854 yilda esa Vernoye (hozirgi Olmaota) istehkomi qad ko'tardi. Shundan so'ng O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari Nikolay hukumatining Qrim urushiga (1853-1856) chal'iganligi tufayli qisqa muddat to'xtab qoldi. Qrim urushi tugagach, Qavkaz janglari Nikolayning qo'lini bog'lab qo'yganligi uchun u xonliklarga qarshi oshkora bosqinchilik siyosatini yuritilmadi va Buxoro hamda Xiva xonliklarining birikishiga imkon bermaslik maqsadida ayrim choralar ko'rish bilan chegaralandi, xolos.

Chor Rusiyosining O'rta Osiyoga nisbatan jadal mustamlakachilik siyosatini yurgizishiga uning harbiysiyosiy va iqtisodiy ahvoli asosiy sabab bo'ldi. Bundan tashqari rivojlanayotgan yengil sanoat uchun paxta, pilla, qorako'l va boshqa mahsulotlar zarur edi. Grajdalar urushi (1861-1862) tufayli Amriqodan paxta keltirilishining kamayishi o'zbek paxtasiga bo'lgan talabni oshirib yubordi.

Yengil sanoatdagi bo'xronlar, uni arzon mahsulot bilan ta'minlash zaruriyati podsho hukumatini bezovta qila boshladi. Orenburg general-gubernatori Qatenin tashqi ishlar vaziriga yozgan xatida «O'rta Osiyo mulkiga hukmronligimizni o'rnatishimiz uchun albatta Turkiston va Toshkentni egallashimiz shart», deb ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, Toshkentni qo'lga kiritish Buxoro mulkiga qurolli kuchlar bilan borish uchun ham zarur edi. 1862 yilda «Ruskiy vestnik» oybitigida O'rta Osiyoni bosib olishni qat'iy yoqlovchi qator shovinistik maqolalar bosildi. «Golos» nomli liberal oybitik esa Hindistonni bosib olgan inglizlardan o'mak olib «Kaspiyni rus dengiziga aylantirish, O'rta Osiyoning ko'chmanchi elatlarini o'troq yashashga o'rgatish, bu sahroyilar bilan pachakilashib o'tirmay, ularni hattoki terror qilishga» chaqirdi. Harbiy vazir D. A. Molyutin harbiy yurishlarning doimiy tarafdori bo'lgani tufayli 1864. yil oktyabrida tashqi ishlar vazirligi tomonidan podshoh uchun tayyorlangan ma'ruza matnini qo'llab-quvvatladi. Bu matnda, jumladan, Rusiyoning Sharqqa sirli, lekin tiyiqsiz intilishi haqida, yarim yovvoyilar qabilasi bilan to'qnashilgan damda o'ta tinchliksevar siyosatni saqlab qolishning imkoni yo'qligi xususida, Qo'qon xonligining tabiiy boyliklari bo'lmish paxta, ipak, qimmatbaho ma'danlar to'g'risida so'z yuritiladi. Shunday qilib, oltmishinchi yillar boshida O'rta Osiyoni bosib olishga g'oyaviy tayyorgarlik ko'riladi, endilikda bu istiloni amalga oshirish navbati kelgandi. 1863 yil yozda polkovnik Chernyayev Orenburg general-gubernatori Bezakning sukut ichra rizoligi oqibatida Sirdaryo yoqasidagi So'zoq qal'asini qo'lga kiritdi va uni atrof-tevarakdagi aholisi bilan birga «Rusiyoning mulki» deb e'lon qildi.

1864 yilning boshida Vernoye (Olmaota) qal'asidan chiqqan 2500 kishilik Chernyayev otryadi 4 iyun kuni Avliyoota (Jambul) shahrini egalladi. Chernyayev bilan izma-iz Perovski qo'rg'onidan chiqqan polkovnik Verevkin guruhi esa Turkiston shahriga yurish qildi va shaharni 12 kunda bosib oldi. Bu yurishda Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviy xotirasini ulug'lab qurdirgan buyuk sajdagoh - Shayx maqbarasi to'pga tutildi. 1864 yilning 22 sentyabrida Qo'qon xonligi ixtiyoridagi Chimkent shahrini qo'lga kiritish bilan avval boshida ko'zda tutilgan maqsad uzil-kesil amalga oshdi.

1864 yilning kuzida Chernyayev Toshkentni bosib olish uchun muvaffaqiyatsiz tugagan birinchi urinishga qo'l urdi, 1865 yil yozi Toshkentning suvboshisi bo'lmish



«Niyozbek» qal'asini egallab olgach, shaharga navbatdagi yurishni boshladi. Chernyayev avvalo anhorning suvini bo'g'ib oldi va Toshkent qirq ikki kun davomida suvsiz qoldi. Podsho qo'shinlarining xabarini eshitib qo'shinkentliklar Qo'qon xonligiga qarashli bo'lganliklari uchun xondan yordam so'radilar. Shahar dorug'asi Alimqul ularni o'z erklari uchun kurashga chorlab otashin nutq so'zladi. Qo'qondan yordam kelgach, Toshkent himoyachilarining soni 30 ming kishiga yetdi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda o'ris soldatlari 1950 nafar bo'lgan. Tartib va tashkilotchilikning yo'qligi, kerakli harbiy texnika bilan ta'minlanmagani tufayli xonlik qo'shinining son jihatidan ustunligi ham to'qnashuvda foyda bermadi. Chernyayev hal qiluvchi harakatni janubdan - Temur darvozasi yoqdan boshladi. Bu bilan u Qo'qon yoki Buxorodan kelishi mumkin bo'lgan yordamchi kuchlarga halaqit bermoqchi bo'lgan. Ilk to'qnashuv 1865 yilning 9 mayida bo'lib o'tdi. Chernyayev Alimqul halokatidan keyin shahar taslim bo'lar, degan ilinjda hujumni birpasga to'xtatib turdi. Buxoro Amirining qo'shini yaqinlashib kelayotganidan xabar topgach, 15 mayga o'tar kechasi shaharga hujum boshlashga qaror qilindi. 16 va 17 may kunlari ham ko'cha janglari davom etdi. 17 may kuni Toshkent a'yonlari qarshilikning behudaligini hisobga olib, shaharni topshirish uchun muzokaraga kirishadilar. Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy 1865 yilning sentyabrda mahv qilingan shaharga keladi va Toshkentni muxtor qaram mulk deb e'lon qiladi. Chernyayev shu yilning kuzidayoq Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 1866 yil mart oyida Chernyayev Peterburgga chaqirib olinadi va uning o'miga yuborilgan general Romanovskiy 8 may kuni Erjarda amir qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi, 24 may kuni esa Xo'jandda ham o'rislarning qo'li ustun keladi. Avgust oyida Krijanovskiy Toshkent Xo'jand va Chirchiqorti o'lkasini Rossiyaga qo'shib olish to'g'risida ko'rsatma beradi. Amir bilan muzokaralarda kelisha olmagach, Krijanovskiy 2 oktyabrda Buxoroga qarashli Uratpa qal'asini, 18 oktyabrda esa Jizzaxni bosib oladi. 1867 yilda bosib olingan yerlarda favqulodda Turkiston general-gubernatorligi tuziladi. Injener-general K. P. Kaufman bosh qilib tayinlangan bu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham uning tarkibiga kirgan edi. Uris qo'shinlari bosqichilikni davom ettirib, 1868 yil 1 may kuni Samarqandning Cho'ponota tepaligida. Buxoro qo'shinlarini yengadilar va 2 mayda Samarqand shahri taslim bo'lishga majbur qilinadi, Uris qo'shinlari chiqishi bilan shaharda g'azovot boshlanib ketadi. 2 iyun kuni shahar devorlari tagida Shahrisabz qo'shini paydo bo'lganda esa ozodlik qo'zg'oloni kuchayadi. Umarxo'ja va Jo'raboy bo'linmalari hyech bir qarshiliksiz Samarqandga kiradilar, bu yerda ularga shahar axli ham qo'shiladi. 650 kishidan iborat o'ris garnizoni qo'rg'onga kirib yashirinadi. Mujohidlar 5 kun davomida hujum qiladilar. 8 iyunda esa Kaufman qo'shini shaharga kiradi va uning barcha himoyachilari qatl etiladi. Zirabuloqdagi mag'lubiyat, Samarqand qo'zg'olonining bostirilishi Buxoro bilan bo'ladigan urush taqdirini hal qilib qo'ydi va amir Rusiyo bilan tuzilgan bitimga imzo chekdi, Bitim shartlari (1868 yil 23 iyunda) quyidagicha edi. Buxoro Rusiyoga vassallikni tan oladi va 500 ming so'm urush tovonini to'laydi. Samarqand va Kattaqo'rg'on viloyatlari Rossiyaga birlashtirildi. Buxoro chet davlatlar bilan aloqa qilish va mustaqil bog'lanish huquqidan mahrum bo'ldi. Shu yilning kuzidayoq Abdumalik boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon ham istilochilar tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi.

1870 yilda Iskandarko'lda uyushtirilgan harbiy yurish natijasida Zarafshon tizmasi ham qo'lga kiritildi. Rusiyo tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinish tarixidagi navbatdagi bosqich Xiva xonligini zabt etish edi. 1873 yil mayi o'rtalarida Turkiston, Orunburg va Kavkaz gubernatorlarining guruhlari Xivaga yaqinlashdilar. Rusiyo qo'shinini qaytarishga

uringan xivaliklar tor-mor etildilar. Rusiyo qo'shini Xivaga deyarli jangsiz kirib keldi va xon amaldorlari bilan muzokara olib bordi. Tinch yo'l bilan tuzilgan bitimga ko'ra Xiva xoni Muhammad Rahim 1873 yilning 12 avgustidan e'tiboran mustaqil tashqi aloqalar olib borishdan mahrum etildi. Ayni vaqtda xonlik Rusiyoga 22 million urush tovonini to'lashi shart qilib qo'yildi. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, xonlik poytaxtiga yaqin joyda Petr-Aleksandrovskiy qo'rg'oni (hozirgi To'rko'l) barpo etildi. Xiva xoni qaramlikda ushlab turilgan bir paytda general Golovachev bosh-chiligidagi jazo to'dasi turkmanlarni qirib, tor-mor qilishni davom ettirdi. Qo'qon xoni Xudoyorning og'machilik siyosati tufayli uchinchi o'zbek xonligi ham o'z mustaqilligini oz muddat saqlab turolди xolos. 1874-1876 yillarda marg'ilonlik Isoq mulla Hasan o'g'li boshchiligidagi qo'zg'olon natijasida Qo'qon ham mustaqillikdan mahrum kilindi. 1872 yilda bir guruh norozi feodallar Xudoyorning qarindoshlaridan bo'lgan Po'latbekni taxtga ko'tarmoqchi bo'ladilar. U taxtdan voz kechgach, fitnachilar roziligi bilan Po'latbek ismini olgan Is'hoq mulla g'azovotning boshida turadi. 1873 yilda unga Abdurahmon oftobachi (Qo'qonning sobiq hukmdori Musulmonqulning o'g'li), bundan tashqari Xudoyorning to'ng'ich o'g'li Nasriddin (Andijon hokimi) va akasi Murodbek (Marg'ilon hokimi) kelib qo'shiladilar. Qo'zg'olonni bostirishga o'jizligini payqagan Xudoyorxon «pushtipanoх imperator hazrati oliylari»ning qudratiga suyanadi va fon Kaufmanga do'stona murojaat qilib, iloji boricha tezlik bilan Qo'qonga o'ris qo'shini va zambaraklarini yuborishni so'raydi. Yurtни sotganligi uchun Xudoyorxon va yaqinlariga qarshi g'ozovot e'lon qilinadi. Xudoyorxon 1875 yil 2 iyul kuni o'z oilasi bilan Toshkentga, o'ris elchixonasi panohiga qochib boradi. Tarixchi olim H. Bobobekov «Xalq so'zi» ro'znomasining 1991 yil 20 fevral sonida «Qo'qon xazinasi qayerda?» nomli xabarida yozishicha, 1875 yilning yozida, Qo'qon xoni Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general gubernatori Fon Kaufman huzuriga panoh tortib kelgan. Kaufman 40 arava xalq boyligini olib, Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgun qilgan. Keyinchalik xon Urunburg tutqunligidan qochgan. Toshkentdan chiqqan o'ris guruhi qo'qonliklarni Makram qal'asida mag'lubiyatga uchratadi. 29 avgustda Kaufman Qo'qonga g'olib sifatida kirib keladi. Qo'qon a'yonlari Xudoyorning o'g'li Nasriddinbek boshchiligida undan afv so'raydilar. 22 sentyabrda Kaufman bilan bitim tuziladi. Bu bitimga ko'ra Qo'qon xoni o'zini Rusiyo imperatorining quli deb tan oladi, general-gubernator ruhsatisiz hech qanday tashqi aloqalar yoki harbiy harakatlar qilmaslikka rozi bo'ladi. Shunday qilib, Qo'qon feodallari yurtning erkini boy berib, jonlarini saqlab qoladilar.

Xonning sharmandali qochishi haqidagi xabar yangi qo'zg'olonga sabab bo'ladi. Bu gal uning markazi Andijon edi. Qo'zg'olonchilar Po'latxon nomi bilan yurgan Is'hoq mullani xon deb e'lon qiladilar. Po'latxonga qarshi jo'natilgan Kaufman otryadi Andijon ostonasida mag'lubiyatga uchraydi. 1875 yilning 7 oktyabrida esa qo'zg'olonchilar xon qo'shinini yengib, Qo'qonni egallaydilar: Nasriddinxon Xo'jandga, o'rislar panohiga qochgach, 11 noyabrda Baliqchi yaqinida isyonchilar general Skobelev tomonidan tor-mor etiladilar. Skobelev qishloqlarga yo'l-yo'lakay shafqatsizlarcha o't qo'yib, yakson qilib olg'a siljidi. Skobelev Andijon shahrini qotillarcha to'pga tutib, bombardimon qildirdi, uning o'z so'zlari bo'yicha uch ming chog'li odam vayronalar tagida qolib ketgan. 9 yanvarda Skobelev vayrona Andijonga kirib boradi. Po'latxon qolgan-qutgan kuchlari bilan Uchqo'rg'on qal'asiga chekingandi. 1876 yilning 28 yanvarga o'tar kechasi Skobelev tomonidan yuborilgan otryad Uchqo'rg'onni egalladi, barcha himoyachilar o'ldirildi. Po'latxon bu yerdan qochib ulgurdi, ammo ko'p o'tmay Marg'ilonda qo'lga tushdi.

Kaufman bir amallab xalq harakatini bostirgach, Qo'qonni mustaqilligidan mahrum

qilishga ahd qildi, 1876 yilning 19 fevralida Qo'qon xonligi bekor qilindi va uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil qilindi. Jazo ekspeditsiyasining boshlig'i, bo'ysunmas qo'qonliklarni shafqatsiz qiyaratgan general Skobelev esa harbiy gubernator qilib tayinlandi. Xullas, o'zbek xalqi mustaqillik kurashining so'nggi bosqichi Po'latxon qo'zg'oloni bo'ldi va undan so'ng uchala o'zbek xonligi ham o'ris podsholigiga to'la qaram bo'lib qoldi.

O'rta Osiyoning Rusiyo tomonidan zabt etilishi bosqinchilik tufayli Turkiston o'lkasining vayron etilganligi, mehnatkash xalq ommasining chor amaldorlari va mahalliy zolimlar tomonidan ezilishi tafsilotlari rus va mahalliy tarixchilar, voqyeana'vislar, o'ris ofiserlari tomonidan bir qadar to'g'ri yoritilgan. Inqilobgacha yashab ijod etgan M. Terentyev, Q. Abaza, A. Makteyev, A. Serebryannikov, S. Dmitriyev, A. Qalujin, L. Kostenko, V. Nalivkin, D. Logofet kabi o'ris tarixchilari, Muhammad Solih, Mirzo Azim Somiy, Mirza Salimbek, Bayoniy, Fozilbek Sadri Ziyo kabi mahalliy muarrixlar o'z asarlarida O'rta Osiyoning chorizi tomonidan bosib olinishi tarixini halol yoritganlar. Darvoqe, chorizmning O'rta Osiyodagi vahshiyliklarini ilg'or fikrli siymolar - K. Marks, F. Engels, L. Tolstoy, P. Gersen, M. Gorkiyar ham qoralagan edilar. Ulug' san'atkor L. N. Toletoy bosqinchi chor Rusiyosining shuhratparast generallari, xo'jayinga mute' sarbozlarining O'rta Osiyo va Qozog'istonda olib borgan xunrezliklaridan g'azablangan edi.

Chor istilochilari O'rta Osiyo va Qozog'iston yerlarini egallash yo'lida hech qanday vahshiylik va qotilliklardan tortinmagan. Rusiyo imperiyasining qonli yurishlarini oshkoralik davrida xolis yoritish payti keldi. Bu o'rinda chor Rusiyosining birgina bosqinchi generali Skobelevning O'rta Osiyo va Qozog'iston yerlarida olib borgan xunrezliklari ta'rifga sig'maydi. Qonxo'r general Skobelev o'zining bosqinchi harbiy guruhi bilan 1881 yilning 12 yanvarida Ko'ktepada 22,5 mingdan ziyod begunoh turkman, qozoq, o'zbek, qirg'izlarni vahshiyona chopib tashlaydi. Turkman xalqi Ko'ktepa mudofasida halok bo'lgan vatanparvar fidoyilar uchun 1991 yil 12 yanvarda xotira muzeyi ochdi. Turkmaniston va qardosh jumhuriyat xalqlari har yili 12 yanvar kunini Ko'ktepada xotira kuni sifatida kutib oladilar.

Rus tarixchisi general M. A. Terentyev o'zining «Rusiyo va Angliyo» (Spb. 1876) kitobida: «1864 yil o'ris zulmiga qarshi Yettisuvdagi dunganlar qo'zg'olon ko'tardilar. Lekin ular qirib tashlandi, hammayoq qonga botirildi», deb yozadi.

«Urislar,- deyilgan o'sha kitobda,- vaqti-vaqti bilan sarbozorlar uyushtirib turar, mahalliy savdogarlardan o'z do'konlarini yopib, sarbozorda savdo qilishni talab qilar edilar. Kim bunga bo'ysunmasa, ularni majbur qilar, dukanlarini yondirib tashlar, juda katta pul jarimasi solar edilar. Mahalliy savdogarlar uchun sarbozorlardan eng yomon joylar - quyosh qizdirib turadigan joylar ajratilardi» (164-6.).

Rusiyo tarixchilari Turkistonni zabt etishda chor Rusiyosining o'zi nochor bo'lishiga qaramay, dur-javohirlar o'lkasini qo'lga kiritish uchun million-millionlarni sarf etganligini yozadilar.

M. Terentyevning asarida «Xivani bosib olish uchun Turkiston okrugiga 287 300 so'm, Orenburg okrugiga 2 000 000, boshqa buromadlar uchun shaxsan Kaufman ixtiyoriga 400 000 so'm pul ajratildi», deyiladi (111-bet). Yana «Xiva yurishiga qatnashuvchi askarlarga oziq-ovqat va otlarga yem-xashak sotib olish uchun 465 414 so'm 64 tiyin pul ajratildi» (117-bet), deb yozadi tarixchi. «Turli anjomlar: ot, tuyalar sotib olish uchun 516 351 so'm 40 tiyin ajratilganini» yozgan (153-bet) tarixchi kitobning 283 betida «Artilleriya zapaslari uchun va lazaretlar uchun 942 285 so'm pul ajratildi va ko'priklarni tuzatish uchun esa 1 475 558 so'm 68 tiyin pul ajratildi», deb ochiq-oydin ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, Rusiyo imperiyasi O'rta Osiyo yerlarini bosib olib, uning mehnatkash xalqlarini qullikka solish niyatida pul va mablag'ni sira-sira ayamagan, o'ris tarixchi olimlari qo'li bilan yozilgan tarix kitoblari, arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, chor hokimiyatining generallari, harbiy jazo otryadlarining ofiserlari, askarlari, mahalliy hukmdorlar mehnatkash xalqqa do'q-po'pisa va qo'rqitish, hiyla yo'li bilan o'zlarining mustamlakachilik, bosqichilik siyosatlarini amalga oshirganlar.

1870 yil 18 yanvarda general Kaufman Xiva xoniga xat yozib: «Men sizga uch marta xat yozib birortasiga ham javob olmadim. Buning ustiga mening so'nggi elchilarimni ham ushlab qolgansiz. Bunday harakatlarga ortiqcha chidab bo'lmaydi. Ikkitadan bittasiga - yoki aytganlarimizga ko'nasiz - do'st bo'lib qolamiz yoki aytganlarimizga ko'nmasangiz dushman bo'lib qolamiz» (o'sha asar, 67-bet), deb do'q qilgan.

Fon Kaufman, Chernyayev, Kuropatkin, Verevkin kabi generallarning aytganini qilsa Xiva xoni asosiy mulklaridan ajralar, shartlarini bajarmasa bosib olinar edi.

Chorizm bosib olgan O'rta Osiyo xalqlarining har qanday haq-huquqlarini yo'q qilib, ularni ijtimoiy siyosiy, madaniy, iqtisodiy va harbiy qoloqlikda saqlab turish uchun o'zining to'rachilik, mahkamachilikka asoslangan boshqarish usulini joriy qildiki, bunda eng quyi mansabdan eng yuqori mansabga qadar bo'lgan hamma lavozimlar faqat o'ris harbiy to'ralari orqali idora qilinadigan tartib o'rnatildi. Chor hukumati O'rta Osiyoni zabt etgan va shu o'lkada yashayotgan o'ris generallari, ofiser, askarlariga mahalliy xalq tilini bilganligi, tuzemchilar urf-odatini o'rganishga harakat qilganliklari uchun oylik maoshlariga qo'shimcha ravishda 180 so'mdan pul ham to'lab turgan.

Mahalliy xalqlardan talangan barcha boyliklar (paxta, ma'dan, rangli metall, qorako'l teri, tulki terisi, pilla, meva mahsulotlari va boshqalar) avvallari tuya, ot, aravalar, eshak, ho'kizga yuklangan karvonlarda tashilgan bo'lsa, O'rta Osiyoda temiryo'l o'tkazilgandan keyin uzun esholonlar vositasida Rusiyoga olib ketiladigan bo'ldi. O'rta Osiyoning yer osti va yer usti boyliklari Rossiya imperiyasining asosiy xom ashyo bazasiga aylandi.

O'rta Osiyoning yarim podshosiga aylanib qolgan «Turkiston general-gubernatori boshliq bir guruh muttaham, yulg'ich generallar turli bahonalar bilan bir necha o'n minglab gektar serhosil yerlarni zo'rlik bilan mahalliy xalq qo'lidan tortib olib, uni qimmat bahodda sota boshladilar». Shunday zo'ravonlik bilan mahalliy hunarmandlar, dehqonlarni tirikchilik manbaidan, chorvador xo'jaliklarni esa yaylov yerlaridan mahrum qildilar.

Davrimizning mashhur so'z san'atkori, qozoq adabiyotining ulkan namoyandasi Uljas Sulaymon 1989 yilda «Alma-Ata jali»da nashr ettirgan qimmatli maqolalar va she'rlar kitobida qozoq xalqining ma'rifatparvar olimi Cho'qon Valixonov tuzgan xarita asosida O'rta Osiyoga harbiy yurish qilgan general Chernyayevning bosqinchilik siyosatini fosh etgan. Ushanda general Chernyayev Peterburgda harbiy ta'lim olgan Cho'qon Valixonovga: «Sen tuzgan xarita mening qo'limda ekan, Qozog'iston va O'rta Osiyoni zabt etish mening ixtiyorimdadir. Sening endilikda bizga keraging yo'q. To'rt tomoning qibla, ketishing mumkin», deya qo'shından yosh olimni haydab yuboradi. Generallar tomonidan aldangan olim Chernyayev ustidan shikoyat qilish uchun uch-to'rtta ofiser do'stlari bilan Peterburgga qarab yo'l oladi. Biroq uning adolatli talab va shikoyatiga hech kim quloq solmaydi. Zoti'jam kasaliga yo'liqqan Cho'qon Valixonov qirq yoshga ham kirmay olamdan ko'z yumdi. Mavridi ekan, shuni ta'kidlash lozimdurki, general Chernyayev O'rta Osiyoga qiladigan harbiy yurishini yashirib, Cho'qon Valixonovni ayyorlik va makkorlik ila aldagan. Zotan bosqinchi zoti o'z maqsadiga erishish yo'lida har

qanday tubanlik va vahshiyliklardan qaytmaydi. Rusiyo imperiyasining tajovuzkor, ayyor va dog'uli generallari mahalliy xalq ichidan yetishib chiqqan ilg'or ziyolilarni turli yo'llar bilan avrab-aldaganlar.

Tarix va hayot haqiqatini bo'yab ko'rsatuvchi olimlar, jumladan, ulkan rassom I. Glazunovning ham «Rusiyo mustamlaka nima ekanligini bilmaydigan yagona mamlakat hisoblanadi», deb yozishi kutilmagan lo'ttibozlik va o'tmish haqiqatiga tuhmatdir. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoga uyushtirilgan istilo barobarida turli-tuman maqsadlarni ko'zlab uyushtirilgan ilmiy yurishlar ham va hatto savdo-sotiq aloqalari ham oxir-oqibatda bir maqsadga - bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilardi. Imperiya jug'rofiya jamiyatining haqiqiy a'zosi D. Logofet asrimiz boshlarida Qozog'iston va O'rta Osiyoning shahar va qishloqlari bo'ylab bir necha sayohatlar uyushtiradi. Olim o'zining «O'rta Osiyo chegaralarida», «Huquqsizlik o'lkasida», «Rusiyo - Afg'on chegarasi», «Buxoro tog'lari va tekisliklarida», «Buxoro - Afg'on chegarasi» singari asarlarida O'rta Osiyo va Qozog'iston mulklarini bosib olishdagi qonxo'rliklardan ko'z yumolmagan. D. Logofet 1868-1880 yillarda Rusiyo imperiyasining takabbur generallari Chernyayev, Kaufman, Kuropatkin, Skobelevlar O'rta Osiyoning qishloq va shaharlarini buzilgan o'lkaga aylantirganliklari-yu, begunoh xalqning qonini to'kkanlarining tirik guvohidir.

«1868 yilda, - deb yozadi D. A. Logofet «Buxoro tog'lari va tekisliklari» kitobida, amirlik anchagina qo'shin to'plab bizning sarhadlarimizga harakatidan so'ng maxsus otryad tuzildi va u Toshkent tarafdin hujumga o'tib, ko'p qon to'kishlardan so'ng Buxoro qo'rg'onlari - Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'onni birin-ketin egallay boshladi. Shunday qilib, butun Zarafshon vodiysining yuqori qismi egallanib, Rusiyo tomonidan bosib olindi». D. A. Logofet istilochilarning Samarqand, Shahrisabz, Kitob shaharlarini zabt etish tafsilotlarini batafsil bayon etadi. «Samarqand o'rislar qo'lida bo'lishi»ga va unda o'ris qo'shinlari joylashganligiga qaramasdan, Shahrisabz vohasida juda ko'p ko'ngillilar qo'shini to'plandi va Kitob begi Jo'raboy, Yakkabog' begi Muhammad Rajab boshchiligida Samarqandga qarab yurdilar, shaharni qamal qildilar. Ammo o'ris askarlari general Kaufman guruhi yetib kelguncha qarshilik ko'rsatib turdilar. Shahrisabz beklari mag'lubiyatga uchragach, ular tog'larga chekinishga majbur bo'ldilar». General Skobelev yurishlarida ishtirok etgan V. Nalivkin «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» (Qozon, 1888 y.) degan asarida Qo'qon xonligining chor Rusiyosi istilosi davridagi iqtisodiy va siyosiy ahvolini tasvirlaydi. O'rta Osiyoda chorizm zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonlaridan biri Andijonda poytug'lik eshon Sultonxon To'raning muridi, «Dukchi eshon» nomi bilan tanilgan 42 yashar Muhammad Ali Xalifa (Madali eshon) boshchiligida bo'ldi. Dukchi eshon suddagi javobida: «Uris hukumati zakot olishni bekor qildi, vaqflarni daromaddan mahrum etdi va Makkaga hajga borishni ta'qiqlab qo'ydi», deydi. Oq poshsho tomonidan olib borilgan zulm, zo'rlikning avj olishiga qarshi 1898 yil 17 may kechqurun Mingtepa (Marhamat)dan 200 otliq, 300 ta piyoda mujohid shaharga yurish boshlaydi. Dukcha Eshon boshchiligida qo'zg'olonchilar Andijon shahrida joylashgan harbiy garnizonga hujum qilib, 23 ta o'ris askarini o'ldirib, 24 tasini yarador qilib, 30 tacha miltiqni o'lja oldilar. «Eshon to'poloni» tezda Quva, Asaka, Shahrison, Aravon qishloqlari, Ush, Marg'ilon, Namangan shaharlariga keng yoyiladi. Biroq o'ris generallari tomonidan qarshi hujum uyushtirilib, qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch olinadi. Dukchi eshon bilan birga Rustambek Sotiboldi o'g'li, G'oyibnazar Ortiqxo'ja o'g'li, Subhonqul, Bo'taboy, Mulla Mirza Hamdamlar qo'lga olinib, butun xalq va ayniqsa yosh bolalar ishtirokida qo'zg'olonchilarni dorga osib o'ldiradilar. Tarixchi olim S. Jalilovning «Andijon»

risolasida yozilishicha, podsho Nikolay II qo'zg'olonchilarni «namuna» bo'ladigan qattiqqo'lik bilan jazolashni buyuradi. Qo'zg'olonchilar ustidan boshlangan sud 3 oy, davom etib, dastlab 447 kishi sud qilinadi, 800 ga yaqin kishi guvohlikka chaqiriladi. Qo'zg'olon haqidagi sud materiallari «Andijonskoye delo» 20 jildni tashkil qilgan ekan. Sud 380 kishini jazolashga hukm chiqargach, dastlab 362 kishi otib o'ldirishga hukm qilinadi. Qo'zg'olonchilardan 351 kishi turli muddat bilan qamalib, 15 kishi oilasi bilan Sibirga surgun qilinadi. Qo'zg'olon markazi deb topilgan Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlarini 3 kun tinimsiz to'pga tutilib, kunpayakun qilinadi. Dukchi eshon boshchiligidagi xalq qo'zg'olonining bostirilishida jasorat ko'rsatgan 15 ta o'ris sipohi va askarlari imperiyaning orden, medallari va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Bu o'rinda ba'zi ko'rsatkichlarga e'tibor berib, qo'zg'olonchilar 23 ta o'ris askarini so'ygan, 24 tasiga tan jarohati yetkazgan. Bunga javoban qo'zg'olonchilardan 362 kishi otib o'ldirildi, 6 kishi dorga osildi, 12 kishi otildi, 351 kishi turli muddat bilan qamaldi, 15 kishi oilasi bilan Sibirga surgun qilindi. Shahar va qishloqlarni 3 kun to'pga tutilib, mehnatkash xalq uyi honavayron etildi.

O'rta Osiyodan chiqqan Abumuslim, Foyiq Turk, Amir Temur, Bobur singari ulkan sarkardalar jami tarixiy risola va tadqiqotlarda bosqinchi, zolim sifatida ta'riflanadi. Zolimlik bobida ulardan qolishmaydigan Ivan Grozniy, Boris Godunov, Yekaterina, Nikolay kabi o'ris podsholarini esa odil, dono qilib ta'riflaymiz.

Tarixdan ma'lumki, tarqoq Rusiyo ustidan uzoq yillar hukmronlik qilib kelgan mo'g'ul-totor imperiyasining belini sindirgan Amir Temurning xaloskorlik xizmati bebahodir. Oltin Urda xonligining zulmidan qutulgan o'ris knyazliklari Ivan Grozniy rahbarligida birlashtirildi. Qozon (1552), Xoji Tarxon (Astraxan) (1556) xonliklarini bosib olgan Ivan Grozniy tezda Volga qirg'oqlarini butunlay ishg'ol qilib, 40 kunlik qamaldan so'ng Qozon shahrini egallaydi va uning atrofidagi muqim totorlar, boshqirdlarni qilichdan o'tkazib, ixtiyoridan serhosil yerlarini tortib olib, musulmon dinidagi bu xalqlarni zo'rlik bilan nasroniy diniga kirita boshlaydi. Totor va boshqirdlarning Kreml maydoniga kirishi. Volga yaqinida yashashi man qilingan, imon dargohi - machitlar buzib tashlanib, ularning ma'lum qismi o'ris cherkovlariyu, ibodatxonalariga aylantirilgan yoxud moslashtirilgan. Volga bo'yidagi, G'arbiy Sibirdagi o'nlab xalqlarni qirdirib yuborgan Ivan Grozniyning jallodligi tarixi sha'niga madhiyalar o'qildi, o'qilmoqda. Ayniqsa, stalincha qatag'on yillarida yaratilgan «Ivan Grozniy» nomli asarda qadimgi o'risni qilich bilan birlashtirgan zolim podsho siymosida o'zining cheksiz, yovuz niyatlarini muttasil davom ettirayotgan yo'qsullar dohiysining ijobiy xislatlari mujassam etilganiga qoyil qolasiz! Ivan Grozniy haqda badiiy asarlar, tarixiy va solnomaviy badiiy filmlar, opera, baletlar yaratilgan. Volgabo'yi xalqlarini bo'ysundirgan Ivan Grozniy ko'p o'tmasdan Sibir yerlarini zabt etishga kirishdi. Ataman Yermak boshliq kazaklar Sibirdagi Ko'chum xonligini tugatib, G'arbiy Sibir yerlarini bosib oldi. Sibiriya tarixan muqim ortiq o'ris bo'lmagan mahalliy xalqlarning mulkini tortib olish, o'zlarini qirib tashlash aynan shu asrdan boshlandi. Istiloning qora bulutlari Qozog'iston va O'rta Osiyo osmonida quyuqlasha boshladi. Vasiliy Psyarkov, Timofey Xabarov boshchiligidagi ilk ekspeditsiyalar Amur o'lkasi va Tinch okeani qirg'oqlariga qadar chiqish bilan yakunlandi. Sharqiy Sibir, Chukotka, Kamchatka, Saxalin bosib olingach, mahalliy xalqlar o'ris mustamlakasining changalida qoldilar. Ularni ov manzillari, bug'u boqiladigan o'tloqlari tortib olinib, o'zlari qirib tashlandi va yoxud yashash uchun noqulay bo'lgan uzoq shimoliy taygalarga, botqoqzorlarga haydab yuborildi. Bosib olingan yerlarni mangu mustamlakaga aylantirish va o'ris askari tig'i yetgan yurtlarni Rusiyo deb atash milliy an'anasining yaratuvchisi Ivan

Grozniydir. U esa tarqoq o'ris yerlarini birlashtirgan buyuk podsho deb ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Moskva, Leningradning o'nlarcha muzeylarida o'ris knyazlariyu podsholarining, ularning ajdodu-avlodlarining tutgan buyumlari, kiyimlari tabarruk ashyo sifatida ardoqlanmoqda, buzib tashlangan yoki eskirgan soborlari millionlab pul sarf qilinib ta'mirlanmoqda, boyitilmoqda, to'ldirilmoqda. Bu hayrli ishlar nasroniy dinining qabul qilinishiga ming yil to'lishi munosabati bilan Rusiyoda boshlanib ketgan ommaviy tantanalardan so'ng yanada avjiga chiqdi.

Bizda esa mahalliy yugurdaklarning «zukkoligi» sababli yurtning asl egalarining Vatan o'tmishini o'rganish millatchilikka olib keladi, degan mash'um aqida asosida barcha madaniy yodgorliklar, me'morchilik obidalarini buzib tashlandi, yo'q qilish hamon davom etmoqda. Yarim vayrona tarixiy obidalar qarovsiz holda, ta'mirlashga mablag' topilmaydi. O'rta Osiyodan chiqqan buyuk tarixiy siymolar haqida esa to'la bo'lmagan, yomon saqlangan qo'lyozma manbalardan bo'lak hych narsa saqlangan emas, aksariyati yo'qotilgan, Maskovga olib ketilgan, qolganlari ham «tasodifan» yonib ketmoqda yohud o'g'irlangach topilmasdan kelmoqda. Uch xonlik xazinalari gumdon qilindi.

Mashhur yozuvchi va olim Abdurauf Fitrat tarixiy obidalarga, o'tmish merosga noto'g'ri, nigilistik munosabat haqida «Sayyox hindiy» (1912) asarida shunday yozgan edi: «Ovro'paliklar o'zlaridan kelajak uchun yodgorlik qoldiradilar, har kun yaxshilik uchun bir saroy quradilar, musulmonlar esa kelajak avlod ajdodlarini unutmasligi uchun yodgorlik qolsin degan a'monni esga ham olmaydilar. Hatto o'z salaflarimiz va buyuk odamlarimiz qoldirgan yodgorliklarni vayrona va xarobaga aylantiramiz».

Turkiston general gubernatori Fon Kaufman imperatorga yozgan maktublarining birida istilo O'rta Osiyo xalqlarining madaniyatini, ijtimoiy taraqqiyotini uch yuz yilcha orqaga surib yuborganligi to'g'risida maqtanib yozgan. Shubhasiz, inqilobdan avval machit, maktab, madrasalarda o'qishlar chegaralangan, arab, fors, tojik va turkiy xalqlar tillarida bitilgan noyob qo'lyozmalar chor ma'muriyati tomonidan kuydirilgan va olib ketilgan, inqilobdan keyin Stalinning qirg'inbarot davrida esa ma'rifatlilar bilan birga eski kitoblar ham yo'q qilingandi. Bu zulm-zo'rlik haqida yozadigan bo'lsak qalam faryod chekadi.

## **14-MAVZU: TOHIR QAHHOR “HUR TURKISTON UCHUN” MANBA SIFATIDA. (Turkiston matbuotida tarixiy davrning yoritilishi).**

**Tayanch iboralari:** Turkiston matbuoti. Rossiya imperiyasi. Manifest. Toshkentda musulmon jam'iyati. Xur Turkiston uchun. Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li. Doktor Ibrohim Yorqin. Eshon Xo'ja.

Ma'lumki, XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi aholisining ijtimoiy turmush darajasi G'arbiy YEvropa mamlakatlariga nisbatan ancha past edi. Bu hol mamlakatda chuqur islohotlarni talab qiluvchi kuchlarning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, zavod va fabrikalarda ham ishchilarning ahvolini og'irlashtirdi. Butun jamiyatda mavjud tuzumdan norozi kuchlar endilikda turli guruhlariga uyushib bolsheviklar, mensheviklar, kadetlar, sosial-inqilobchilarning faoliyatlari kuchaydi. Natijada 1905 yil 17 oktyabrda podsho hukumati Manifest e'lon qilishga va unda qonun chiqaruvchi hokimiyat Davlat dumasini

joriy etishga majbur bo'ldi. Markazda sodir bo'layotgan bunday o'zgarishlar milliy matbuot sahifalari nazaridan chetda qolmagan, albatta. «Gosudarstvunnuy дума saylovig'a tegishli axbor», «Dumaning ochilmog'i», «Toshkent dumaxona majlisi», «1 va 2 darajali galastnoy (volostnoy) saylovi» «Saylov xususida» kabi maqolalarda bu jarayonlar o'z aksini topgan. Xususan, «podsho imperator hazratlarining gosudarstvunnoy дума saylovi xususidag'i farmoyishi sodir bo'libdur. Mazkur farmoyish bilan дума saylovi 28 aprelg'a tayin bo'lubdur», deb yozgan edi «Taraqqiy» gazetasi. O'lkada saylov tashviqoti keng olib borilib, fuqarolarga ma'lum bo'lishi uchun ularning ko'zi tushadigan joylarga e'lonlar yozilib osib qo'yilgan. Davlat dumasiga saylovni o'tkazilishi mahalliy millatlarni siyosiy birliklarga uyushishiga imkon yaratdi. Xalq orasida hurmat va obro'ga ega bo'lgan kishilar o'z partiya va jamiyatlarini tuzish kerakligi, butun Turkiston musulmonlari yagona partiyaga birlashishligi va uning nomini «Turkiston viloyati partiyasi» deyilsa maqsadga muvofikligi «Taraqqiy» gazetasida alohida ta'kidlangan. Chunki дума saylovlarida ishtirokchi bo'lish uchun biror siyosiy birlashmaning a'zosi bo'lishi lozim edi. Shuning uchun xalq vakillari bo'lajak saylovlarda faol qatnashishga, partiyalarining dasturini tuzib, milliy matbuot sahifalarida nashr qilishga va aholi ro'yxatlarini tuzish bilan bog'lik masalalarni tezroq hal qilishga intilganlar. Shaharlarda majlislar uyushtirilib, unda Saidkarim Saidazimboy o'g'li kabi ba'zi bir sarmoyadorlar parlament saylovlaridan xavotirlar bildirib, «bizning viloyatimizni unutgan bo'lsa ajab emas, mazkur saylov xususida hech bir nom nishon bo'lmay ketdi» deb shahar boshlig'iga murojaat qilgan holda zudlik bilan Peterburgga telegramma yuborishni maslahat bergan. Bundan ko'rinadiki, Davlat dumasining joriy etilishi o'lkadagi siyosiy jarayonlarning faollashuviga xizmat qilish bilan birga, Turkiston musulmonlarni turli tashkilotlarga birlashtirishga turtki bo'ldi. Bu xususida gazeta muharrirlari hamda ziyolilar matbuot sahifalarida ma'lumotlar berib bordilar. Shundaylar sirasiga Munavvar Qorining «Toshkentda jam'iyati xayriya», «Toshkentda musulmon jam'iyati» kabi katta va kichik hajmdagi maqolalarini kiritish mumkin. Ular quyidagi maqsadda tuzilgan edi:

- axolining ijtimoiy ko'makka muhtoj qismiga yordam berish;
- maktab, masjid va madrasalarga hukumat tomonidan alohida mablag'lar ajratilmaganligi bois, ularni iqtisodiy jihatdan ta'minlab, umumiy ahvolini yaxshilash;
- davlat dumasida ishtirok etish va o'lka musulmonlarini haq-huquqlarini talab qilish maqsadida siyosiy kuch sifatida birlashish zarurati.

Bu kabi jamiyatlar tuzib, ularning faoliyatini rivojlantirishda jadidlar va ziyolilar bilan bir qatorda mahalliy sarmoyadorlar-tadbirkorlar ham katta o'rin egalladi. Saidkarim Saidazimboy o'g'li, Orifxo'ja eshon Azizxo'ja eshon o'g'li, Maqsudxo'ja eshon Otaxo'ja eshon o'g'li, Abduvali hoji Abdukomilboy o'g'li, Mirza Abdulla hoji Muhammadboy o'g'illari ana shundaylar toifasidan edi. Ular millat kelajagi va taraqqiyoti uchun ham ijtimoiy-siyosiy ham iqtisodiy jihatdan birlashish tashabbusi bilan chiqdilar. Zero, o'lka kamoloti yosh avlodni zamonaviy milliy ruhda tarbiyalash va xalqning siyosiy ongini oshirish bilan bog'liq edi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar Turkiston milliy matbuot sahifalarida keng va muntazam yoritib borilgan. Buning sababi sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, hukumat tomonidan mamlakat fuqarolariga siyosiy erkinliklar berilishi va Rossiya imperiyasining barcha hududlarida ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi gazetalar faoliyatining kuchayishiga xizmat qilgan edi. **«Xur Turkiston uchun»**ning 3-8 sonlarida doktor Boymirza Hayitning «Turkistonda rus imperializmi» maqolasi berilgan. Olimning «Bugungi Sovetlar Ittifoqi tashqi siyosatida



Turkistonning o'zni» maqolasi ham shu gazetada (10-11-12-sonlar) bosilgan.

**Doktor, professor Ibrohim Yorqin** ham bu gazetada Turkiston va mashhur turkistonliklar tarixiga oid maqolalari bilan faol qatnashgan. Ibrohim Yorqin asli toshkentlik bo'lgan, Olmoniyada o'qigan, keyinchalik Turkiyada yashab, ijod qilgan vatandonshimiz, muhojirotdagi taniqli kishilarimizdan. Quyida uning «Eshon xo'ja» maqolasidan (gazetaning 3 va 4 sonlari) ayrim parchalar keltiramiz:

«Eshon Xo'ja Xoniyning 1885 yoki 1880 yilda tugilgan deb eshitganman. U Toshkentning Shayx Xovand Tohir dahasidan, Quyi Devonbegi mahallasidan edi. Oilasi as'zodalardan, otasi Xon Xo'ja diniy tahsil ko'rgan, tariqat kishisi, muhtaram bir zot edi. U ilk tahsilni otasi ochgan maktabda boshladi, so'ngra yaqin qarindoshi, jadidchiligining ma'naviy otasi bo'lgan Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'lidan saboq oldi. Eshon Xo'ja Munavvar Qoridan yangi usulda dars o'rgangach, bir oz muddat maktabda unga yordamchi bo'lib ishlab, tajriba orttirgach, 1908 yilda o'zi Quyi Devonbegi mahallasida maktab ochadi.

Bizning uyimiz Quyi Devonbegidan ancha uzoqda bo'lishiga qaramay,- deb yozadi doktor Ibrohim Yorqin, - katta akam Obidxonning tashviqi bilan mahallamizdagi bir ko'p bolalar Eshon Xo'ja maktabiga qatnar edi. Men ham ularga qo'shilib bora boshladim... U bundan 55 yil avvalgi bir davrda talabalarga vujudning sog'ligi ahamiyatini, jismoniy va ma'naviy quvvat foydalarini anglatar, jismoniy tarbiya o'yinlari uyushtirar edi. «Ma'lumoti nafiya» degan suhbat soatlarini tashkil etib, bizga yaxshilik. vatan, millat shuurini o'rgatar, har bir insonning jamiyat oldidagi ma'naviy burchlarini tushuntirar edi. Bu suhbatlar bizning shaxs va mil-lat o'laroq yetishuvimizga yo'l ko'rsatardi. Shunday qilib, murg'ak miyamizga shuur berib, tariximiz, xonlar va amirlar davridagi ahvolimiz... rus asoratiga tushuvimiz sabablarini anglatardi. Millatning bu ahvoldan qutulishi, mustaqil bir jamiyat sifatida rivojlanishi uchun har bir kishining yuksak darajada tahsil olmog'i, millatga foydali inson bo'lib yetishmog'i zarurligini ta'kidlardi.

Uning bu harakati bilan yetishgan talabalardan katta bir qismi muntazam tahsil ko'rdilar, boshida o'qish-o'qitish ishlari bilan shug'ullandilar, bir necha sohalarga millat uchun ishladilar. Sovet terrori ostida ularning barchasi qamaldilar, ming turli azobu iskanjalar ichida o'ldirildilar yoki Sibirga, Muz dengizi sohillariga surgun etildilar va yo'q bo'lib ketdilar. Abdulvahob Murod, Salimxon Tillaxon o'g'li, shoir Mir Mashriq Elbek, Qayum Ramazon, Sa'dulloh Qosim kabi zotlar shular jumlasidandir.

Chor Rusiyasining polis idorasi, uning xos missioneri sifatida tanilgan Ostroumov rahbarligidagi rus maorif va ma'mur taftishchilari butun usuli jadid maktablarini, darsliklarini, xususan, Turkiyadan kelgan kitoblarni nazorat qilib turardi. Eshon Xo'ja Xoniy maktabida o'qib yurib, bu holga ko'p shohid bo'lganman. Rus huqumati yangi maktablarda o'qib, ko'zi ochilib borayotganlardan, jadidlardan, uyg'onayotgan turklik shuuridan qo'rqqani bois yangi fikrli kishilarga, jadidlarga doimo to'sqinliklar qilar, tashqaridagi musulmon o'lkalardan, xususan Turkiyadagi inqilobiy harakatlardan Turkistonni ayri saqlashga, bu borada to'g'ri yo'l tutishga intilayotgan turkistonliklarning turli nashriyot va matbuot ishlariga mone bo'lishga tirishar edi.

Eshon Xo'ja Xoniy shuurli, qat'iy bir turkchi edi. U bizda turklik ruhini shakllantirishga bel bog'lagandi. Birinchi dunyo harbidan bir oz avval hukumatdan kelgan bir anketada to'ldirilish kerak bo'lgan qismiga undak nomini ularning odati bo'yicha yozilishini talab qilingan edi, buni rad etib, o'zining turk ekanini bitadi. Shundan so'ng uning o'ziga va maktabiga hukumat moneligi kuchaydi. Ayni yillarda eski Toshkent polis mudiri bir buyruq chiqargandi, maktabda ikkinchi sinfdan boshlab chor podsho oilasi

ismlarini tilga olib, ruscha so'zlashlari, chorlik marshining o'qilishi, uning nomiga duo qilinishi, sinfga chor va uning xotini, bolalari, gubernatorning rasmi osilmog'i rasman zaruriy deb topilgan edi. Eshon Xo'ja esa, mening maktabim o'ziga xos bir erkin o'quldir, bolalar ruscha tushunmaydilar, degan. Shundan keyin uni qamashdi...»

Doktor Ibrohim Yorqin bu maqolasida yana Eshon Xo'janing asl tarbiyachi bo'lishi bilan birga, qo'rqmas bir millatchi, istiqlolchi ekanini, Munavvar Qori kirishgan butun milliy ishlarda unga yondosh harakat qilganini, xususan, 1918 yildagi buyuk xalq isyonida qatnashganini, keyingi davrlarda ham xalq ozodligi uchun kurashganini ta'kidlaydi. «Qizil rus istibdodi, sovetlar terrori va ming turli fitnayu ta'qiblar», o'ldirishlar oqibatida Eshon Xo'ja va unga o'xshagan millatning bir qismi yurtidan qochishga majbur bo'lib qoldi deb yozadi doktor I. Yorqin. Eshon Xo'ja, avvalo, izini yo'qotmoq uchun Avliyo Ota va Yettisuv taraflarga ketadi, u yerda sho'ro josuslari qo'lga tushish ehtimoli kuchaygach, 1930 yilda Sharqiy Turkistonga qochadi. Bu yerda ham sho'rolar ta'siri kuchli ekanidan «Abdulloh» ismi bilan kun kechirib yuradi. 1931 yilda, Sharqiy Turkistonda chin-xitoy idorasiga qarshi milliy ozodlik harakati boshlanganida Eshon Xo'ja Qashqarda edi. Qashqarda Sobit Domla va safdoshlari tarafidan Sharqiy Turkiston hukumati qurilganida, Eshon Xo'ja ham bu istiqlol ishida faol qatnashdi. Bu hukumat uning qo'shni yovlari tarafidan barbod etilgach, Xo'ja Niyozhoji, Sobit Domla va safdoshlari Yorkentda tutilgach, ayni zamonda Yorkentda bo'lgan Eshon Xo'ja qochishga ulguradi. U dunganlar hujum qilgunga qadar Xo'tanda qoldi (dunganlar chin aslli musulmonlar bo'lib, o'sha paytda 30 million atrofida edi). Dunganlar Xo'tanga hujum boshlagach, o'sha kunlarda kasal ekaniga qaramay, Eshon Xo'ja yana qochmoqqa majbur bo'ldi. U 1934 yilda, Turkiston va Hindiston o'rtasidagi tog'larda vafot etdi... «Uning xotirasi va maslagi yuraklarimizda mangu yashayajakdir» deb maqolasini yakunlaydi Eshon Xo'janing shogirdi, mashhur muhojir olimimiz Ibrohim Yorqin.

Gazetaning 5-sonida (1976, o'choq-yanvar) esa muhojirotdagi shoirlarimizdan Usta Nishonboy Turko'g'lining' «Bulbul» she'ri va u haqdagi «Turkistonlik xalq shoiri Nishonboy Turko'g'li vafot etdi» degan maqola berilgan. Nishonboy 1908 yilda Marg'ilonda tug'ilgan. Uni ko'rgan vatandoshlarimizning aytishicha, u rus ishg'olidan keyin oilasidan ayrilib, yurtidan ketmoqqa majbur bo'lgan, avval Kobulda kuni kechirgan, sataroshlik qilgan, «usta» sifati shu tufaylidir; 1950-yillarda Turkiyaga ko'chib borgan, Istanbulda, Sulton Ahmad semti (rayoni) dagi «O'zbek takyasi»da yashadi (bir zamonlar Abdurauf Fitrat ham shu takyada yashagan ekan); bu takya xayriya musofirxonasi edi. Usta Nishonboy Turk-o'g'li shu joyda umrining oxirigacha yashagan, «ispartachi» - sayyor sotuvchi bo'lib kun kechirgan va 1975 yil 9 oraliq (dekabr)da vafot qilgan.

Gazetaning mana shu 5-sonida uch-to'rtta katta maqola alohida ko'zga tashlanib turadi: doktor Boymirza Hayitning «Turkistonda rus imperializmi», doktor Abdulvaxob Uqtoyning «Mustafo Cho'qayning yoshligi, siyosiy hayotidan bir parcha» maqolasi. «Sovetlar Ittifoqidan 2 million inson qochdi» degan maqolada Sovet Ittifoqi Fanlar Akademiyasi chiqargan kitobdagi («Dunyo aholisi va o'mashgan yerlari», Moskva-1962) Ittifoqdan chet elga jami 12 million odam qochgani yozilgan. Jumladan, ruslardan 1 million 243 ming, ukrainlardan 1 million 002 ming, oq ruslardan 127 ming, Boltiqbo'yidan 700 mingga yaqin, tatarlardan 47 ming, ozariylardan 3 million 200 ming, armanilardan 633 ming, gurjilardan 65 ming, tojiklardan 2 million 625 ming, o'zbeklardan 1 million 215 ming, qozoqlardan 623 ming, qirg'izlardan 95 ming, turkmanlardan 792 ming, qoraqalpohlardan 2 ming xorijga qochgani ta'kidlangan. Bu raqamlarning chet el matbuotida maxsus tilga olinishiga sabab - Sovet Ittifoqidan Isroilga ko'chishni istagan

musoviylar masalasi Xelsinki konferensiyasi yig'inlarida ko'rilishi bo'lgan.

Gazetada G'arbiy Olmoniyadagi musulmonlarning Diniy idorasidagi atoqli kishi, bosh imom Nuriddin Namangoni Xo'janing yetmish yoshida Turkiyaga qaytgani haqida xabar berilgan. Shuningdek, sahifada imom Nuriddin Namangoniyning «Birlashgan Millatlar Tashkiloti» 1961 yilda Venada o'tkazgan «Jazoyir milliy mustaqilligi» mavzusidagi yig'inida jazoirlik vakillar bilan tushgan rasmi ham bosilgan.

Gazetaning «Xabarlar» bo'limida «Turkiston va qo'shnilaridan», «Turkiyadan», «Dunyodan» turli xabarlar e'lon qilingan. Ulardan birida «Ingliz tadqiqotchilaridan Ulaf Garoyening 1953 yilda birinchi va 1967 yilda ikkinchi bosqisn inglizchada chiqqan «Sovet imperatorligi, O'rta Osiyo turklari va Stalinizm» kitobi «Tarjimon» (Turkiya) gazetasining «1001 tamal asar» seriyasida nashr etildi deyiladi. Yana bir xabarda Turkistonlik professor **Tohir Chig'atoyning** «Kapitalistik ijtimoiy tuzum va uning bugungi ahvoli» kitobi Istanbuldagi «O'tuken» nashriyotida bosilgani qayd etiladi. Boshqa bir xabarda Turkistonning Namanganida tug'ilib yetishgan doktor Boymirza Hayitning Anqarada «Sovet Rusiya imperializmi va Turk dunyosi» degan 392 betli maqolalar kitobi bosilgani aytiladi.

Ma'lumki, Sovet Ittifoqi matbuotida chet eldagi vatandoshlarga «qarshi propaganda» ruhidagi maqolalar ko'p berilgan. Bunga chet eldagi muhojirlar ham o'z fikrlarni bildirib kelganlar. Gazetaning shu 5-sonida professor Tohir Chig'atoyning «Rus imperializmiga va Qoraboyevga javob» maqolasi bosilgan. Ma'lum bo'lishicha, Turkmaniston kompartiyasi MK jurnalida (1973 yil oktyabr soni) B. Qoraboyevning «Panturkizm reaksioner burjua ideologiyasi xizmatida» degan maqolasi berilgan. T. Chig'atoy shunga javob yozgan. «Bugun butun kuchi bilan Turkistonning tabiiy boyligini, xalqining bor quvvatini olib-bitirmoqqa kirishgan Sovet Rusiya imperializmi, orada bir-ikki, tashqaridagi Turkiston erkchilarini ham yo'qlab turibdi, deydi muallif. So'ngra qiziq bir fikrni bildiradiki, bugungi kunda uning naqadar haqiqat ekani ayon bo'lmoqda. Ya'ni, zotan, Sovet Rusiya hokimiyati ostidagi bir turkistonlikning tarix bilan shug'ullanishi qadar tolesiz bir ishchilikni tasavvurga sig'dirolmayman. Chunki u bir tarixchi bo'lgani holda, hammadan yaxshi tushungani tarixiy haqiqatlarning teskarisini aytmoq majburiyatidadir».

**«Hur Turkiston uchun»** gazetasining 6-sonli 10.05.1976) ilk sahifasi 10 may kuni Istanbulning Otaturk madaniyat saroyida ochilgan «VII Islom o'lkalari anjumani»ga bag'ishlagan. Bu yig'in haqida «O'rta Osiyo matbuot agentligi» bildirgan fikrga ko'ra, 43 ta islom mamlakatlari tashqi ishlar nozirlari va davlat din arboblari qatnashayotgan bu kongresda «bundan avvalgi anjumanlarda bo'lgani kabi, islom o'lkalariga oid barcha muhim masalalar xususida fikr yuritildi, faqat yana ruschin (xitoy) orasidagi musulmonlarning milliy mustaqilligi yana tilga olinmayapti» deyiladi. Shu mavzudagi gazetaning bosh maqolasida («Islom dunyosi va Turkiston masalasi») shunday deyiladi: «Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida islom dunyosi mustamlaka idorasi zulmidan qutulib, mustaqil davlatlarga aylandi. Bu manzara butun insonlik dunyosi uchun sevinch beruvchi bir hodisadir. Faqat, ne yoziqki, islomiyatga va insoniyatga buyuk xizmatlar qilgan musulmon o'lkalari ba'zilar hamon mustamlaka holida yashamoqda. Bilasizki, bu o'lkalarning boshida Turkiston turibdi. Uzun yillar istilochilarga qarshi kurash, mustaqillik uchun jang olib boriladi. Bu kurash, xuddi Afrikadagi kabi oxirgi natijaga erishguncha davom etajak... 43 ta islom davlati to'plangan bu kongresda uchta masala ko'rildi: 1. Sibir (Kipr - T. S.), O'rtasharq va Falastin muammosi. 2. Filipinlardagi musulmonlarning vaziyati. 3. Eritrening mustaqilligi.

Biz turkistonliklar «VII Islom o'lkalari anjumani»ga muvaffaqiyatlar tilayman.

Faqat rus va chin asoratidagi millionlarcha musulmonlarning masalasini anjuman aholidan hech qursa ma'nan esga olishlarini istardik. Bundan avvalgi Islom kongreslariga bu mavzuda bir necha marta murojaatlar qilinganiga qaramay, bugungacha bu borada biror musbat natija bo'lmadi.

Biz insonlarga hurriyat va millatga mustaqillik istaymiz. Butun dunyoga qarata aytganimizdek, bu safar ham islom o'lkalariga murojaat aylaymiz: biz ham sizlar kabi mustaqil davlat bo'lmoqni istaymiz. Bu Ollohning har bir millatga bergani bir haqdir. Butun musulmon qardoshlarimizni o'z burchlarini (musulmonning o'z dindoshi oldidagi vazifasini - T. Q.) bajarmoqqa da'vat etamiz, deyiladi bosh maqolada.

Shu sahifada fevral oyining ilk haftasida (1976 yil) Liviyada bo'lgan «Islom-xristian dialog konferensiyasi» haqida ma'lumot, ikkita rasm berilgan. Birinchi suvratda bu konferensiya qatnashchilarining umumiy bir shakli, ikkinchisida esa, bu yig'inda ishtirok qilgan «Sovetlar birligidan kelgan qizil mufti Ziyovuddin Boboxon va Turkiya Diyonat ishlari boshlig'i doktor Lutfi To'g'on» hamda boshqalarning birgalikda tushgan holati tasvirlangan. Birinchi rasmdagi izohda «Turkiston masalasi Islom mamlakatlarning ona masalasi bo'lmog'i kerakdir» deyilgan.

«TRTning tashqi eshittirishlarida turk laxjalariga joy berilishi istalmoqda» degan maqolada Turkiya Radio-televizion idorasiga qarata bir xoxish bildirilgan: ya'ni, Turkiyadan tashqaridagi millionlarcha asir turk-lar uchun, xususan rus va chin asoratidagi turkistonliklar uchun ularning laxjalarida eshittirishlar berilishi barcha «Turkistonliklar jamiyat»lari talab qilayotgani, bu haq-huquq «Inson huquqlari bayonnomasi»ning 19 moddasida ko'rsatilgani ta'kidlangan.

Gazetadan katta bir o'rinni olgan Temur Xo'ja o'g'lining «Turkistonda jadid maktablari» maqolasi tarixiy hujjatlarning, ilmiy mushohadaning teranligi bilan e'tiborni tortadi. Muallifning yozishicha, turk xalqlari tarixan chiya, hind, arab, fors, yunon halqlari bilan munosabatda bo'lgan, ularning madaniyatlari bir sintez shaklida eski turk madaniyati bilan birlashtirgan; turklar milodiy sananing to'qqizinchi yuz yilligi oxirlaridan boshlab Turkistonni butun dunyoning ilm va madaniyat markazi holiga keltirdilar. 9-13 asrlarda fan va madaniyat rivojlanib, oliy bir darajaga yetishdiki, bu nuqtaga G'arb va Ovrupo davlatlari faqat 16 asrdagina erisha oldi. Jangovar mo'g'ullarning dunyoviy yurishlari oqibatida turoqlama chogi (turish, to'xtash davri)ga kirgan Turkiston renessansi («Turkiston renessansi» iyaborasi bizniki, dunyoda shu davrgacha bu darajadagi madaniy taraqqiy bo'lmagani uchun, bemalol, yurtimizdagi kechmish buyuk ilm-fan yuksalishini «Turkiston renessansi» deyish mumkin-T. Q.). 14 asr oxirlaridan, imperator Amir Temur davridan yangidan jonlanmoqqa kirishdi, ammo Temurning 1405 yildagi o'limi bilanoq, uning saltanati parchalanishi asnosida bu renessans ham ortga qarab ketdi. Temurning o'limidan keyin Turkiston yana milliy bir butunlikka erisholmadi - millat ulug' jahongirning saltanati bilan barobar parchaladi. Ana shubho'linish yurt hududlarining egasizligiga olib bordi.

1853 yilda ruslar Oqmachitni qo'lga kiritgach, Turkistonning hozirgacha davom etib kelayotgan achchiq fojealari boshlandi. Temur Xo'ja o'g'li Turkistonning istiloga yuliqishida uch nuqta borligini quyidagicha izohlaydi: 1. Turkistonning milliy butunligini yo'qotgani, milliy butunlikni saqlab qoladigan yo'l boshchining yetishib chiqmagani. 2. Ovrupoliklarning 15 asr oxiridan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochishi munosabati bilan Turkiston iqtisodining ona tomiri hisoblangan mashhur Ipak yo'lining tijjoriy ahamiyatini yo'qotishi. 3. Turkistonliklarning O'rta Osiyo mintaqasidan tashqaridagi o'lkalar bilan aloqasi uzilishi va tashqaridagi ilmiy-texnika rivojidan xabarsiz qolishi va

quvvatsizlanishi.

Ko'ktepa mudofaasida turgan turkmanlar ham bo'lajak savashga qattiq hozirlik ko'rmoqda edi. Qal'aga o'ttiz ming qadar jangchi yilg'ildi. Ammo ularning faqat besh mingida miltiq bor edi xolos. Qal'a mudofaachilari ixtiyorida bir kichik to'p mavjud edi. (Bu to'p bugunda Ashxaboddagi muzeyda saqlanmoqda).

Istilochilar qo'shini yaqinlashib kelguncha mudofaachilar Ko'ktepa atrofidagi yerlarda ularga bir necha marta hujum uyushtirdilar. General Kuropatkin va general Tersevich boshchiligidagi Ayseron bo'limi ana shunday hujumlardan birida nihoyatda qattiq zarbaga uchradi, general Tersevich esa o'ldirildi.

Askar hujumi va to'plar otashi bilan qal'ani olib bo'lmasligiga ko'zi yetgan bosqinchilar endi hiylaga o'tdilar. Yerosti yo'li bilan qal'a devori tagidan chiqib, portlovchi moddalar qo'yib, Turkistonning eng so'ngi mudofaachilari joylashgan qal'ani portlatib, ko'kka uchirdilar. Shundan keyingina, 1881 yilning 12 yanvarida turkmanlarning insoniy quvvat xorijida ko'rsatgan jasorati va qahramonliklari namoyon bo'lgan qonli janglar oqibatida dushman qo'li baland keldi, buyuk fidoyilik bilan o'zini mudofaa qilgan Ko'ktepa zabt etildi. Ahaltaka vodiysidagi takaturkmanlarning o'zidan qurol kuchi bir necha baravar ortiq dushmanga qarshi jangda ko'rsatgan qahramonliklari turkistonliklarning sharafigidir. Ammo ular qurol yetishmasligi natijasida yengildilar va shu bilan Ahaltaka ruslar ishg'oli ostida qoldi.

Tikma Sardor, Mahdumqulixon, Murodxon va Kachar qo'mondonligidagi qahramon Ko'ktepa mudofaachilari bu g'ayrimusoviy, tengsizlikdagi urushda chekinmoqqa, taqdirga tan bermoqqa majbur bo'ldi.

Ko'ktepa mudofaasida 20 ming yurtsevar, botir turkman qahramonlarcha shahid bo'ldi. Dingiltepa va Ko'k-tepa qal'alarida, atrofida mudofaachi shahidlarning mozorlari hozir ham mavjud. Ko'ktepa mudofaachilariga abadiy yodgorlik o'rnatish uchun zamon kelajak, albatta.

Bugunda sovet hukumati Turkiston qahramonlarining muqaddas mozorlarini yo'qotish kabi vahshiyona bir yo'lni tutmoqda. Mudofaachilar yodi xotirlardan mutlaqo chiqib ketishi uchun qal'a yerlari dalalarga aylantirildi. Bu xotira turkistonliklarning qalblarida yashamoqdadir. Turkistonliklar orasida bu mudofaa shohidi bo'lganlarning ba'zilar bugunda ham tirikdir, ularning qahramonlik hikoyalari bugungi naslga meros kabi o'tmoqda va yoshlarimizdagi istiqlool ishqini olovlantirmoqda, umidlafini quvvatlantirmoqda» (jurnal, Myunix, 4-son, 1956. Muallif qaysi jurnal ekanini bir zarurat yuzasidan ko'rsatmagan shekilli –T.Q.).

Bu voqyealar haqida rus tarixchilari ham turli tarixlar yozdilar. Shulardan ikki parchani keltiramiz:

«Ko'ktepa - Ahaltaka vodiysi markazidagi tarixiy bir qal'adir. Chor Russiyasi bosqiniga qarshi kurashdagi istiqlool mujodallasida (1870-1881) Takaturkmanlarning tayanch nuqtasi bo'lgan bu vodiya, ikki tarafdin shiddatli zarblar berilgan qaqshatqich janglar natijasida general Skobelev qo'shini tarafidan zabt etildi (yanvar 1881). Ko'ktepani ishg'ol etilish butun vodiyni qo'lga olishni qulaylashtirdi» .

«Turkmaniston istilosi aqlga va xayolga sig'mas darajadagi bir zulmlar shaklida voqye bo'ldi. Masalan, Ko'ktepa ishg'olidan keyin qal'a mudofaachilaridan minglarchasi general Skobelev amri bilan qilichdan o'tkazildi». Turkistonning istiqlooli va hurriyati kurashi tarixidagi bir yaproq bo'lmish Ko'ktepa mudofaasini ko'z-yoshlari bilan yod etarkanmiz, bu yo'lda shahid ketgan minglarcha Turkiston turkining aziz xotirasini yana bir bor esga olib, butun turklarni turk o'laroq, butun musulmonlarni musulmon o'laroq,

butun insonlarni inson o'laroq «Turkiston istiqlol kurashi»ga aloqa ko'rsatishlarini istaymiz; minglarcha kilometrlar narida, uzoq-uzoqlardagi mustamlaka Turkiston tuproqlarida o'z milliy hurriyati va istiqloli kunlarini orzulayotgan, kutayotgan irqdoshlarimizga, yurtdoshlarimizga buyuk shoir, marhum, shahid Cho'lponning shu misralari bilan ovoz qilamiz:

*Yig'lama, yurtim, agarchi bul kuningda yo'q bahor,  
Kelgusi kunlarda baxting yulduzi o'ynab kolar!...*

Endi Turkistonda tashkil bo'lgan uchinchi bir milliy mustaqil hukumat - Xorazm Xalq Jumhuriyati haqida A. Zavqiy «Milliy Turkiston» jurnalida nelarni yozmoqda, shuni o'qiylik.

1918 yil sentyabrida Asfandiyorxon o'ldirilgandan keyin Xivani boshqarish Junaydxonning qo'liga o'tadi.

1919 yilning 4 aprelida RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Turkiston ASSR hukumati Junaydxon bilan sulh bitimini imzolaydi. Ayni vaqtda sovet hokimiyati Xivada inqilob o'tkazishga hozirlik ko'radi...»Jurnaldagi «Sharqiy Turkiston» (10-15 betlar) majmuaning avvalgi sonidagi shu boshliqli maqolaning davomidir. Maqolaning mazmunidan quyidagilar anglashiladi: Ya'qubbekning isyoni Turkiston tarixining eng porloq va eng fojeali davrlaridan biri. Ya'qubbek G'oziy deyarli butun Sharqiy Turkistonni o'z hokimiyati ostida birlashtirishga muvaffaq bo'lgan edi. Ammo ichki kelishmovchilik, xuddi G'arbiy Turkistondagi kabi bu yerlarda ham milliy mafkuraning shakldanmagani sababli, u o'ldirildi. Bundan boshqa, Sharqiy Turkistonning tashqarida hech do'sti yo'q edi. Yordam bermoq istagan Turkiya ham ancha uzoqda edi. Sulton Abdulaziz bir askariy hay'at yuborishdan boshqa bir ish qilolmadi. Rusiya ham G'arbiy Turkistonda o'z mavqeyini mahkamlash bilan mashg'ul bo'lib, Ya'qubbekning muvaffaqiyatlarini qo'rqibgina kuzatib turardi. Lekin shu zamonda rus qo'shini G'uljani zabt etdi. Bu ham Sharqiy Turkistonga, ham Xitoyga qarshi bir tahdid edi. Biroq, bir tomondan Angliya ta'siri, bir tarafdin G'arbiy Turkistonda ahvolning og'irlashuvi tufayli ruslar G'uljani xitoylarga qaytarib beradi. Buning evaziga ruslar butun Xiton chegaralarida bergisiz (nalogsiz) savdo qilish huquqiga ega bo'lib oladi. Bu ruslarga butun Turkistonga, Mo'g'ulistonga, Manjuriyaga iqtisodiy va siyosiy ta'sir etish imkonini berdi. Rusiya eskidan Sharqiy Turkistondagi Koshg'ariyani tadrijiy zabt etishga intilib kelardi. O'tgan asrdayoq rus hukumatida «Koshg'ariyada Rusiya himoyasi ostida bir xonlik yaratish» g'oyasi bor edi. G'arbiy Sibir volmisi (general gubernatori) Gasfort, agar biz bu ishni qilsak, Koshg'arda turib boshqa atrofdagi xonliklarni ham boshqarib olamiz va o'zimiz uchun yanada uzoqlarga po'l ochamiz, deb yozgan. Muallif shunday deydi: «Sharqiy Turkistonda rus siyosati «yutuqlari»ni anglatmoq uchun Sharqiy Turkistonni bir tarafdin Britoniyo Hindistoni va boshqa tomondan G'arbiy Turkiston ila bog'lay-turg'on yo'llar ila tanishmokning buyuk ahamiyati bordir» (11-12 betlar). Bu yo'llar quyidagilardir: biri - Hindistonga boradigan uchta yo'l. Koshg'ardagi Qarg'aliqdan Kashmirga boradigan temir yo'l, uzunligi 735 km. Ikkinchisi Xo'tandan Kashmirdagi Lahgacha, 850 km. uzunlikda. Uchinchisi - Karmadan Laxgacha, uzuvligi 990 km.

G'arbiy Turkistondan Sharqiy Turkistonga oltita yo'l bor.

1. Andijon-Koshg'ar yo'li (Ergashtom uzra), 554 km.
2. Pishpak-Koshg'ar yo'li (Norin ustidan), uzunligi 683 km.
3. Pishpak-Oлмаota-G'ulja (Hurgus ustidan), 854 km.
4. Simay - Chunchuchak yo'li, 640 km.
5. Zaysan - Sarsumba (sharsamba) yo'li, 256 km.

6. Zaysan - Chunguchak yo'li ham 256 km.

Bu yo'llar rasman savdo (karvon) yo'llaridir. Demak, boshqa yo'llar ham bor. Bu yo'llar juda qulay va yil bo'yi ochiq yo'llardir. Bundan boshqa G'arbiy va Sharqiy Turkiston orasida Ili va Qora Irtish suv yo'li ham bor. (12-bet).

Jurnaldagi «Sharqiy Turkistonda ko'tarilish» (15-19 betlar) maqolasida o'ttizinchi yillarda xitoylik mustamlakachilarga qarshi turkistonliklarning isyonida, bu milliy ozodlik kurashida o'ttiz besh ming kishi qurbon berilgani aytiladi.

«Ruslikka qarshi Turkiston yoshlari» (20-25 betlar) maqolasi mavzusi sarlavhasidan ham ko'rinib turibdi; mustamlaka zulmidagi turkistonliklar qanday mazlum bo'lgani, jismoniy og'irliklar qatorida ma'naviy zulmlar chekkani dalillar, qiyoslar bilan aytiladi. Jumladan, eskidan rus mustamlakachiligiga qarshi ruh ota-onalardan bolalarga irsiy sifatda o'tib kelayotgani, o'qish-o'qitish ishlarida ham bu hol mavjudligi, masalan, 1927 yil hukumat shu xususda «ziyoli va ziyonli masalasi»ni qo'zg'agani, oqibatda ko'p ziyolilar, talabalar, o'qituvchilar surgun qilingani, otib o'ldirilgani ta'kidlanadi.

«Turk g'azitachilig'i» (33-36 betlar) maqolasida 1910-yillardan Turkistonda jadidchilarni qattiq ta'qib qilingani, 1911 yilda faqat bittagina «Qozog'iston» gazetasi chiqqani, 1912 yilda esa butun Turkistonda ikkita gazeta - biri «Buxoroyi sharif», ikkinchisi «Tujjor» nashr etilgani aytiladi. «Buxoroyi sharif»-ni chiqarganlar bu gazetaga ilova tarzida «Turon»ni ham haftada ikki topqir nashr eta boshlaganlar. «Buxoroyi sharif»ni fors tilida chiqarishgandi, u faqat madrasalarga, so'ngra Eron va Afg'onistonga ham tarqalardi. Turkistondagi bu nashrni yuzda to'qson to'qqiz xalq o'qimayotgaligi anglaganlar, masalan, Istanbuldagi «Turk yurti» jurnalida bu nashrni o'z ona tili-turk tilida bosilishi istagi, orzusi va duosida bo'lingan bir maqola ham chiqqan. Shu muammoni hal qilaroq «Buxoroyi sharif»ning noshirlari unga ilova tarzida «Turon»ni tashkil etdilar va uning ilk sonida shunday yozdilar: «Oylardan beri nashrina muvaffaq bo'ldig'imiz «Buxoroyi sharif» g'azitasi Turkiston markazi bo'lg'on Buxoro tuprog'inda ko'p aholini bebahra buroqdi (qoldirdi - T. D.). Tojik qondoshlarimiz foyda bergan bo'lsada, o'zbek qondoshlarimiz mahrum qoldilar. Qiyos bulunursa, umum Turkiston aholisining kada birisida fors tilini bilmas ekan» (35-36 betlar).

Bu ikki gazeta Turkistonda eng ko'p tarqalgan, ko'p o'qilgan, iqtisod, madaniyat, diniy-tarixiy bilgilar bergan nashrdir. Ikkalasi ham 1913 yil boshidan to'xtatilgan.

«Yosh Turkiston»ning 1934 yilgi 53-sonida «Rusiya muhojirot siyosatina bir qush boqingi» nomli maqola berilgan, muallifi «Yosh turkistonli». Uning yozishicha, Olmoniyada Sharqiy Ovrupa o'rganuvchi «Sharqiy Ovrupo» degan katta bir jamiyat tuzilgan, shu nomda bir necha dorilfununlar, institutlar ishlab turgan. Ularni Olmon davlati va boy olmon sanoatchilar moddiy quvvatlantirib, doimo yordam bergan. Ularning kundalik, haftalik, oylik nashrlari, kitob nashriyotlari bor. Bu jamiyatga mansub olimlar Sharqiy Ovrupodagi barcha davlatlar, xususan, Rusiya tarixi, siyosati, madaniyati, iqtisodiga oid qimmatli asarlarni juda ko'p chiqargan. Shulardan biri Gerhard vo'n Mendening 127 sahifalik «Sovet Ittifoqidagi o'rganish» deb atalgan asardir. Bu kitob Rusiyaning avvalgi va keyingi davrlarda o'z mustamlakalariga ruslarni ko'chirib keltirish siyosatini tadqiq etishi bilan juda muhimdar. Muallif bu asarni yozarkan, rus manbaalaridan, o'zi mansub Breslav Sharqiy Ovrupo institutidagi materiallardan unumli foydalangan.

Mende kitobining birinchi bobida birinchi jahon urushidan oldingi Rusiyadagi ko'chishlar haqida belgilar bergan. Ikkinchi bobda esa, urushdan keyingi yillar, harbiy kommunizm va yangi iqtisodiy siyosat davridagi ko'chishlar o'rganilgan va shu tarzda

bobma-bob rus mujigining qanday maqsad va qanday siyosatlar natijasida Rusiyaning qo'li ostidagi mustamlaka yerlarga tarqalgani ko'rsatilgan.

«Yosh Turkiston»dagi maqola muallifi Mende kitobi haqida fikr yuritib, uning rus mujiklarining ko'chirilishi yerga bo'lgan ochlik, degan tushunchasi uncha to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Bu ko'chishlarning asli sababi nimada edi, nimalar tufayli paydo bo'ldi, degan savolga javob beraylik, deydi. Va shunday yozadi: «Ma'lumki, rus mujiklari «yerga suvsab», «pomeshchik» atalgan yer egalariga qarshi asrlar bo'yuncha isyonlar qilg'onlar. Rus mo'norxiyosi haddi zotinda oqsuyaklar rejimi edi. Chor birinchi Nikolay o'zini «Rusiyaning birinchi io'mashchigi» deb atag'on edi. Butun Rusiya davlati 130 ming oqsuyakning hokimiyati ostida edi. Bo'nlar Rus chorlig'i taxtig'a sadoqatla xizmat etardilar. Rus chorida ularning manfaatini, boshlicha yerlarini ko'rumoq majburiyatinda edi. Rusiyada keng yerlarga ega bo'lg'on alpovutlarning o'z o'rmon, to'qaylaridan qishloqlarning yerga tushub yotqon cho'plarni to'plashlarig'a ruxsat etmaganliklari bir tarafda tursun, hatto o'nlar qishloqlarning sig'ir-buzovlarini o'rmonning bir chetidan haydab o'tishlariga ham musoada etmaslar edi. Mujiklar yersizlikdan tovuqlarinida bog'lab qo'ymoq majburiyatinda edilar. Mana bunday hollar rus alpovutlarig'a qarshi rus qishloqlarining dushmanlig'ini kun sayin orttirdi. Mujiklar alpovutlarning yerlariga ko'z tika boshladilar. Bu hol muhojirot siyosatini chiqardi» deydi maqola muallifi. Mendening gapidan ko'ra bu haqiqatga yaqinroq, bizningcha ham. Muallifning jumaldagi keyingi fikrlari esa bu mavzuni yanada teranroq anglatadi. Unda ta'kidlanishicha, Rusiya davlatining mujiklarni ko'chirish siyosatidan tutgan ikki maqsadi bo'lgan: biri - mujiklarni ko'chirish bilan ular dushman bo'lib qolgan yer egalari va oqsuyaklarning mulkini qo'rimoq, janjaldan qutulmoq; ikkinchisi - o'sha yalangoyoq mujiklarni g'ayrv-rus millatlarning tuproqlariga yerlashtirib, u o'lkalarda rus davlatining mujiklardan iborat soqchilarini yaratmoq. «Rus davlati ayniqsa bizning Turkistonda shu ikkinchi maqsadiga tezrak erishmakni ko'p istar edi. Ichki Rusiya Olmoniyadan bir necha daf'a buyuk bo'lg'oni holda, aholisi taxminan bir 1/4 topqir ortiq edi. Demak ichki Rusiya yerga boy edi. Muhojirot siyosati rus qishloqlarig'a yer bo'lmag'onliqdan emas, balki rus alpovutlarining yerlarini mujiklarga bermasdan, mujiklarni ichki Rusiyadan chiqarib, g'ayrirus o'lkalarga tarqatib, ularni Rus davlatining soqchisi qilib qo'ymoq tilaganidan kelib chiqmishdir» deydi muallif.

«Yosh Turkiston»da yozilishicha, olmon olimi Mende o'zining kitobida rus davlati ana shu siyosatni amalga oshirish uchun qancha-qancha oltin sarflaganini raqamlar bilan tushuntirib bergan. Masalan, chor Rusiyasi 1896 - 1906 yillarda mujiklarning chet o'lkalarga ko'chirilishi uchun 2,5-3 million miqdorda oltin so'm sarf etgan, 1907 yilga kelib bu miqdor 13 million oltin so'mga yetgan. 1912 yilda esa bu miqdor 26 million 481 ming oltin so'mni tashkil etgan. Rusiya hukumati mujiklarni Turkistonga, Qofqozga ko'chirilishi juda muhimligini ta'kidlab, bu ajratilgan, mujiklarga yerlashish uchun qarz sifatida berilgan pullarning yarmini kechganini ham ta'kidlandi muallif.

Bu - bir tomondan qaraganda ko'rinadigan nuqta. Ammo mustamlaka qilingan yurtga har bir g'olib-mustamlakachi o'z aholisini yoki o'ziga sodiq to'dalarni ko'chirib keltirgan. Bu ishni tarixda arablar ham (arablar va forslarni ko'chirib keltirib) muvaffaqiyat bilan bajargan. Bizning imperator bobolarimiz ham dunyoning to'rt tarafiga muvaffaqiyat bilan yurishlar va ko'chirishlar qilganlar. Dunyoning hayoti shunday bo'lib kelgan. Faqat buni tarixan to'g'ri o'rganish, to'g'ri o'rgatish, to'g'ri xulosa chiqarish, shunga qarab o'z hayotini qura bilish kerak.

Shu nuqtai nazardan qaralsa, men yuqorida keltirgan dalillar (ba'zi kimsalar talqin



etmakchiday «ekstremizm» emas, dunyoning istalgan davlatida qabullangan tarix, tarixni o'rganishdir xolos), bilgilar, menimcha, bugunda yerli axoliga ham, tarixda ko'chirib keltirilganlarga ham foydalidir. Qay shaklda foydali? Birinchidan, yerli aholi bu tarixni o'qib, anglab, o'zlarini asrlab ezgan zolimlarning nasllariga oshig'ich dushmanlik ko'zi bilan qarashdan o'zlarini tiyishni o'rganadilar, bu mustamlakachi davlat siyosati ekanini, mustaqil davlatda bu zulmlarga chek qo'yilishi mumkinligini tushunadilar. Zotan, bugunda o'nlab mustaqil jumhuriyatlar tuzilgani, ularning o'z milliy bayrog'i, qonunlari, tuproqlarida o'z ona tillari davlat tili ekani ham bu mavzuni yanada yorqinroq anglata oladi. Endi, xo'sh, eski mustamlakalarga majburan ko'chirib keltirilganlarning bugungi nasllariga qay shaklda bu yozuvlarimiz foydali-buni ochiqalay. Chor Rusiyasi va sovetlar davrida har bir ko'chirib keltirilgan inson yerli aholiga bir qul, o'zining xizmatkori, o'zidan past, huquqsiz aholi deb qarardi va bunda to'la haq-huquqqa, imkoniyatga ega edi. Bu dunyoqarash hozirgacha o'z ko'lkasiyai ularning ongidan olgani yo'q, zotan bu bir-ikki yilda amalga oshadigan o'zgarish emas. Ammo bu hol ham ularning endilikda o'zlarini avvalgiday tutishga haq bermaydiki, nizolar chiqaradiki, buni ham tushunmoq kerak. Xullas, eski mustamlaka yerlariga tarqagan, bugunda mutlaqo mustaqil davlatlarda yashayotgan ko'chirib keltirilganlarning avlodlari endi o'zlari yashayotgan tuproqlari hurmati, shu davlat odamlari bilan teng ekanliklarini, ulardan ortiq emasliklarini, shu davlat qonunlari ichida, shu davlat insonlari ichida do'stlarcha yashash majburiyatida ekanliklarini anglashlari uchun bu tarixiy tushuntirishlarimiz foyda berajak. Ular bu tuproqlarda hukmron emas, balki qachondir bir hovuch rus oqsuyaklari manfaati uchun qul (krepostnoy) qilingan, ezilgan, huquqlari toptalgan, vahshiylarcha ona yurtlaridan haydab-ko'chirilganlarning, ikki imperiyaning ixtibosiz «soqchilari»ga aylangan bir avlodlarning nasllari ekanliklarini angalayajaklar, bunga ko'ra o'zlarini tutajaklar. Lekin, shuni ham ta'kidlashni istardimki, bu mavzuni yoritishdan maqsad - kimlargadir yo'l ko'rsatish emas, bunday vallomatlik da'vosidan uzoqdamiz, niyatimiz bitta tarixiy haqiqatni o'rganish.

Ma'lumki, Mustafo Cho'qay «Yosh Turkiston» bosh muharriri sifatida ham, bir tarixchi, siyosatchi sifatida ham ko'p ishlar qilgan. Ovrupodagi barcha tillarda uning maqolalari, kitoblari bosilib turgan, shuningdek, u jurnalning har bir sonida o'z asarlari bilan qatnashgan. Biz shu o'rinda uning «Yosh Turkiston»da bosilgan «Baynalminal sovet bo'yunbog'i va sovet cho'chqalari» maqolasi xususida fikr yurit-moqchimiz.

Mustafo Cho'qayning bu maqolani yozishiga, menimcha, Turkistonda yuritilayotgan sovet mustamlakachilik siyosati, yerli millat vakillarining arzimagan, bo'htonli sabablar bilan qamash, osish, surgun qilish hodisalari undagan. Yana shu jurnalda bosilgan, «Turkiston xabarlari» turkumida berilgan maktublardagi voqealar ham Cho'qayni bu mavzuda yozishga chorlagandir, deb o'ylayman.

## **15-Mavzu: V. V. Bartol'dning hayoti va O'rta Osiyo tarixini urganishidagi tadqiqotlari.**

### **Reja**

1. V. V. Bartol'dning hayoti va ilmiy faoliyani.
2. V. V. Bartol'd ilmiy safari va tadqiqoti.
3. V. V. Bartol'd O'zbek arxeologiya tugragi asoschisi.
4. V. V. Bartol'dning sharq xalqlari tarixidaga oid asarlari va ilmiy merosi.

**Tayanch iboralar:** Vasiliy Vladimirovich Bartol'd. V. R. Rozen. «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston», «Turkistonni sug'orish tarixidan», «Ulug'bek va uning davri», «O'rta Osiyoda qadimdan to ruslar kelganiga qadar o'tgan davrda paxtachilik», «Turkistonning madaniy hayoti». O'zbekboy Boqijonboy.

Vasiliy Vladimirovich Bartol'd 1869 yil 3 (15) noyabrda Peterbo'rgda "burjua oilasi"da dunyoga keldi. Uning otasi aslida rigalik bo'lib, birja dalloli edi, onasi Peterbo'rgdagi bir bank xo'jayinining qizi bo'lgan.

V. V. Bartol'dning eslashicha, otasidan meros qolgan mablag' uning ilm bilan mashg'ul bo'lish va o'z ma'lumotini oshirish hamda ilm yo'lidagi sayohatlar uchun kerak bo'lgan barcha xarajatlarning yuziga borib o'tirmaslik imkonini bergan.

V. V. Bartol'd maktabda o'qib yo'rgan chog'laridayoq Shrq xalqlari tarixi bilan qiziqib qoldi. 1887 yilda u Peterbo'rgdagi 8-gimnaziyani oltin medal bilan tamomlaydi. Usha yilning ko'zida Peterbo'rg universiteti Sharq tillari fakul'tetining arab-fors, turk, tatar bo'limiga o'qishga kiradi. Bu erda u usha zamonning ko'zga ko'ringan sharqshunos olimlari N.I.Veselovskiy, K.P.Patkanov, V. D. Smirnov, V. R. Rozen kabilardan leksiya tinglaydi.

Universitetda V. V. Bartol'dning ilmiy qiziqishlari asosan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining o'rta asr tarixiga qaratildi. Olimning aytishiga qaraganda, uning tarixga qiziqishini oila a'zolari ham ma'qullashgan. Otasining ma'lumoti keng (u usha zamon kommersiya bilim yo'rtini tugallagan edi) bulmasa ham, ilmning qadriga yetar, o'g'lining bolalarcha bajargan dastlabki sodda tajribalarini, undagi tarixchiga xos uncha- muncha talant uchqunlarini ko'rib, o'g'lining ilmga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Sharq tillarining zo'r bilimdoni va mutaxassisi, o'rta asr sharq yozuvlari yodgorliklarini chuqor tahlil qilish usullarini mohirona egallagan akademik V. R. Rozen yosh Bartol'dning sevimli o'qituvchisi va yaqin ustози edi.

Fakultet o'qituvchilari V. R. Rozen, N. I. Veselovskiy va boshqalar V. V. Bartol'dda odatdan tashqari qobiliyat borligini, uning arab, fors va turk tillarini yaxshi va dadil egallayotganini hamda tadqiqot ishlariga moyilligi borligini tez orada payqab qolishdi. Birinchi ko'rsdalik chog'idayoq V. V. Bartol'd yaxshi o'qiyotgan talabalar orasida o'z qobiliyati bilan V. R. Rozenning e'tiborini o'ziga tortadi. U fakultetda o'qitilayotgan barcha zaruriy fanlarni zo'r tirishqoqlik bilan o'rganib, nisbatan juda erta mutaxassislikka alohida muhabbat va qiziqish paydo bo'iladi. Ikkinchi ko'rsdan boshlab esa uning kelgusida Sharq tarixchisi bo'lib etishishi ravshan bo'lib qoladi.

V. V. Bartold hayoti va ilmiy faoliyatining katta bir davri Turkiston, xususan O'zbekiston va Toshkent bilan bog'liq. U faqat 1893—1928 yillar orasida Toshkentga yetti marta kelib ketdi va uning har bir safari katta, ko'p hollarda yechimini kutib yotgan ilmiy va ilmiy-tashqiliy masalalar bilan bog'liq edi.

Olim Toshkentda dastlab 1893—1894 yillarda, ya'ni o'zining Turkistonga qilgan birinchi ilmiy safari vaqtida bo'ldi. V. V. Bartold o'lkaga o'shanda Rossiya Fanlar akademiyasi va Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari fakul'tetining yo'llanmasi bilan kelgan edi. Ushbu safardan kuzatilgan maqsad, olimning o'z so'zlari bilan aytadigan bo'lsa «O'lkaning o'tmish tarixiga oid mavjud yozma axborotlarga qo'shimcha tarzda o'sha yerlarda qadimda istiqomat qilgan odamlarning qoldiqlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash va imkoni boricha

qadimiy shaharlar va qal'alarning qoldiqlarini tavsif etish»dan iborat bo'lgan. Boshqa so'z bilan aytganda, qadim zamonlarda turkiy xalqlarning Urxun-Yenisey bo'ylari va Oltoydan Chu va Ila vodiylari orqali O'rta Osiyo bilan bog'langanliklarini tekshirishga aloqador edi.

Bartol'dning sobiq ittifoq davrida bosilib chiqqan sharxshunoslikka oid asosiy nashrlarda aktiv qatnashishi va samarali ilmiy-adabiy faoliyati, ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanadi.

Akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869—1930) Turkistonning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi, ijtimoiy-iktisodiy va madaniy hayotiga oid «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston» (1900), «Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarning qadim zamonlardan to XVII asrgacha bo'lgan ahvoli haqida ma'lumotlar» (1902), «Turkistonni sug'orish tarixidan» (1914), «Ulug'bek va uning davri» (1918), «O'rta Osiyoda qadimdan to ruslar kelganiga qadar o'tgan davrda paxtachilik» (1924), «Turkistonning madaniy hayoti» (1927) kabi o'nlab zo'r ilmiy va amaliy qimmatga ega bo'lgan asarlar yozib qoldirgan ulkan sharqshunos olimdir. Shuni aytish kifoyaki, olim chop ettirgan 685 asarning qariyb yarmi, aniq qilib aytadigan bo'lsak 320 nafari, Turkistonning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tahliliga bag'ishlangan. Bundan tashqari, V. V. Bartold respublikamizda, xususan uning poytaxti Toshkentda ilmiy, ilmiy-pedagogik va o'lkashunoslik muassasalarini ta'sis etish va ularning faoliyatini rivojlantirish ishiga ham munosib hissa qo'shdi.

«Akademik V. V. Bartol'd asarlarining ro'yxati» dan ma'lum bo'lishicha (bu ro'yxat 1892 yildan to 1930 yilgacha yozilgan asarlarni o'z ichiga olgan bo'lib, olimning shaxsan ko'zatuvi va qo'shimchalari bilan tuzilgan), uning 350 ta asosiy asarlaridan 136 tayin sobiq ittifoq xokimiyati davrida 1918-1930 yillar mobaynida nashr etilgan. Bunda, xar vaqtdagidek, uning O'rta Osiyo tarixiga oid asarlari birinchi o'rinda to'radi.

1916 yilda V. V. Bartol'd O'rta Osiyoga oxirgi marta safar qiladi. Uning bu safardan ko'zlagan asosiy maqsadi ayrim mahalliy Sharq qo'lyozma asarlar bilan tanishish edi.

Toshkentda Bartol'd Sharqshunos A. A. Semenov va O'zbekboy Boqijonboy to'plagan qo'lyozma asarlar bilan tanishadi. Xususan, Boqijonboy qo'lida qashqar tarixiga oid XVII asrda Shomahmud Cho'ras ismli mirza tomonidan kuchirilgan eng nodir kitob bor edi. Bartol'd bu kitobni egasidan so'rab olib, Petrogradga olib ketadi va uning fotonusxasini Petrograddagi Osiyo muzeyiga topshiradi. Qo'qonda esa u o'zining sobiq talabasi Sharqshunos M. F. Gavrilov to'plagan qo'lyozmalar bilan tanishadi. Bu qo'lyozmalar orasida Xudoyorxon hukmronligi tarixi (1845—1858) to'g'risida, «Xudoyorxon g'alabalari haqida kitob» hamda Amin Ahmad Roziyning «Etti sho'tam» va Muhammad bin Amirxon shoh (taxallusi Mirzond)ning «Ozodlik bog'i» kabi asarlarining eng yaxshi ko'chirmalari, ayniqsa, Bartol'd diqqatini o'ziga jalb etadi.

Bartol'd Buxoroda bo'lganida bir qancha qo'lyozma va tosh bosma asarlar to'playdi. Bu asarlar va umuman, Bartol'd Turkiston safari vaqtida qo'lga kiritgan boshqa asarlar markaziy kitob xazinalariga va avvalo, Petrograddagi Osiyo muzeyiga topshiriladi.

V. V. Bartol'd, jumladan, yana katta O'rta Osiyo ekspeditsiyasiga rahbarlik qiladi. Ekspeditsiyaning samarali faoliyati tufayli 1926 yilda sobiq ittifoq Fanlar

akademisining antropologiya va etnografiya muzeyiga O'rta Osiyo aholisining hayoti va urf-odatlarini o'zida aks ettirgan 200 dan ziyod etnografik eksponat to'plandi. Bartol'dning tashabbusi bilan turkman qabilalari tekshirilib, Turkmanistondagi mayda xalqlar (jamshidiylar, xazarlar, barbarlar, bulujlar) o'rganib chiqildi.

1926 yilda Bartol'd turkologlarning Boku shahrida chaqirilgan Butunittifoq I sezdida qatnashib, «Turkiy xalqlar tarixini o'rganishning hozirgi ahvoli va bu sohadagi dolzarb vazifalar» degan temada doklad qildi. Akademik S. F. Oldenburgning guvohlik berishicha, Bartol'd bu dokladida turkiy xalqlar tarixiga oid hozirgi jami bilimlarning to'la manzarasini qisqa tarzda juda mohirona bayon qilib berdi.

Basharti Bartol'd faqat o'z shaxsiy manfaatini va o'z yaqinlarining xotirjamligini ko'zlab, o'zining akademiklik vazifasidan tashqarida sodir bulayotgan narsalarga befarq qaraganida edi, yuqorida keltirib o'tilgan ishlar qilinmagan bo'lardi.

Bartol'd turkiy qabilalar va xalqlarning o'tmishi va xozirgi ahvolini o'rganish ishlarini kuchaytirish va birlashtirish maqsadida SSSR Fanlar akademiyasi sistemasida tashkil etilgan turkologiya kabinetiga 1928 yil 1 oktyabrdan boshlab direktor qilib tayinlanadi. Olim bu kabinet ixtiyoriga o'zining shaxsiy kutubxonasidan 500 ga yaqin kitobni sovg'a qiladi. Mazkur iliy muassasa 1930 yilgacha, ya'ni to sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining sharqshunoslik instituta tarkibiga qo'shilguniga qadar mavjud bo'lgan.

1930 yilda sovet sharqshunosligida muhim bir tashkiliy tadbir amalga oshirildi. Chunonchi, Osiyo muzeyi, Budda madaniyati instituta, Turkologiya kabineta va sharqshunoslar kollegiyasi bitta yagona yirik ilmiy tadqiqot muassasasi bo'lmish sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutiga birlashtirildi. Bu yangi institut tarkibiga V. V. Bartol'd va unga zamondosh barcha yirik sharqshunoslar kiritildi.

Bundan tashqari, Bartol'd muzey hamda tarixiy san'at va tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish ishlari bo'yicha O'rta Osiyo davlat muassasalari (Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris) bilan juda yaqin aloqada edi. Bu muassasalar Bartol'dni o'zlarining eng bilimdon ustози va maslahatchisi deb bilishardi. O'rta Osiyoda birinchi universitetning ochilishi uchun olib borilgan tayyorgarlik ishlarida, sovet Sharqi xalqlari yozuvida yangi turkcha alifbeni yaratishda Bartol'd aktiv ishtirok etadi.

Bartol'd inqilobdan keyin 1920 yilning yozida birinchi bor O'rta Osiyoga keladi. Bu yerga u moddiy madaniyat tarixi akademiyasi va RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan joylarda qadimgi yodgorliklarning ahvoli bilan tanishish, ularni bundan keyin tadqiq qilish planlarini tuzib chiqish hamda Toshkentdagi yangi ochilgan Turkiston Davlat universitetida Sharq tarixi kafedrasini tashkil etish va unda shu sohadan bir qancha leksiyalar o'qish uchun safarbar qilingan edi. Bu vazifalarning hammasini Bartol'd o'ziga xos ishchanlik, halollik bilan va ishning moxiyatiga chuqur kirib borgan xolda astoydil bajardi.

1920 yilda Bartol'd Turkiston Davlat universitetining tarix-filologiya fakultetida Turkiston tarixidan bir qancha leksiyalar o'qidi. Bu leksiyalar konspekti 1922 yilda Toshkentda alohida nashr qilindi. Shuni aytish kerakki, bu konspekt, o'z mazmuniga ko'ra, faqat o'quv qo'llanmasigina emas, aslida,

Turkiston xalqlari o'tmishining qadimiy zamonlardan boshlab, to XIX asrgacha bo'lgan tarixining ilmiy obzorini ishlab chiqish yo'lidagi dastlabki jiddiy qadam edi.

1920 yil 14 noyabrda Bartol'd Turkistonni tarixiy- madaniy o'rganishning birinchi galdagi vazifalari, degan temada doklad qildi. Shuningdek, u 1920 yil sentyabr oyida boshlangan Buxoro ekspeditsiyasida qatnashdi. Ekspeditsiya vaqtida Bartol'd qadimgi mahalliy yodgorliklarni va san'at obidalarini ko'zdan kechirdi va ularni muxofaza qilish choralarini belgiladi(bu ekspeditsiyada Bartol'ddan tashqari E. K. Betger, V. L. Vyatkin, P. E. Kuznezov, D. I. Nechkin va A. E.Shmidtlar ham qatnashgan edi). Ekspeditsiya natijasida 330 ta Sharq qo'lyozma yodgorliklari ko'zdan kechirildi va bir joyga to'plandi.

1925 yilning yozida V. V. Bartol'd V. L. Vyatkin bilan birgalikda qadimgi mahalliy yodgorliklarning ahvolini aniqlash va restavratsiya qilish ishlarining borishi bilan tanishish maqsadida Buxoro, Samarqand va Shahrisabz arxeologik ekspeditsiyasida qatnashdi.

Bundan tashqari, u Fanlar akademiyasining topshirig'iga muvofiq, mahalliy Sharq qo'lyozmalarini to'plash ishlariga va ularning ayrimlarini tavsiflashga ko'proq e'tibor berdi.

Bartol'd 1927 yilda O'rta Osiyoda bo'lganida Toshkent shaxrida Turkistonning mug'ullar bosqini davridan keyingi tarixi va O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar tarixi bo'yicha leksiyalar o'qidi, «O'rta Osiyoda eron tillari to'g'risidagi masalaga doir» degan temada doklad qildi. Sredazkomstaris va boshqa bir qancha ilmiy o'lkashunos jamiyatlari va muzeylarining ish planlarini muhokama qilishda qatnashadi, Toshkent va Buxorodan tashqari Xivada ham bo'ladi.

Bartol'd O'rta Osiyoga so'nggi bor 1928 yilda keladi. Bu safar u mahalliy ilmiy o'lkashunoslik muassasalari va tashkilotlarini qayta tuzish, ularning ish planlarini muhokama qilish va qadimgi yodgorliklarni o'rganish hamda ularni tiklash ishlariga doir masalalarni xal etishda aktiv qatnashdi.

1918 yilda Bartol'dning Ulugbek to'g'risidagi monografiyasi bosilib chiqadi. Bu kitob, aslida, revolyutsiyadan ilgari yozilgan bo'lib, ma'lum darajada, «Mug'ullar bosqini davrida Turkiston» asarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Avtor bu asarida ham o'z an'anasiga amal qilib, kitob mavzuiga oid bo'lmagan materiallarni ham qamrab olgan. Chunonchi, dastlabki ikki bob Chig'atoy davlatiga hamda Temur saltanatiga, oxirgi qismi esa Ulugbekning vafotidan keyingi davr voqealariga bag'ishlangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Bartol'd bizga qoldirib ketgan ana shu monografiyada bayon etilgan ma'lumotlardan tashqari Ulugbekning to'liqroq tarjimai xoli ilmiy adabiyotda xozirgacha vujudga kelgani yo'q. Bartol'd Ulugbekning fandagi xizmatlarini aslo kamsitmagan holda olim-Ulugbek faoliyatini podsho Ulugbek faoliyatidan aniq ajratib ko'rsatdiki, bu xol olimning katta xizmatidir. U Ulugbekni davlat arbobi sifatida ham tavsiflaydi.

Bartol'd O'rta Osiyoning ulug shoiri va o'rta asr mutafakkiri Alisher Navoiyga bag'ishlab monografiya ham yaratdi. Bu asar, o'z navbatida, Ulugbek haqidagi tadqiqotning davomi bo'lib, sovet navoiyshunosligida muhim manba hisoblanadi. Bartol'dning jahon adabiyotida yuqsak baholagan va keng tanilgan bu asari ustida mufassal gapirib o'tishning hojati bo'lmasa kerak. Dastlabki asl manbalar asosida yaratilgan bu asarda o'z zamonasining yirik siyosiy arbobi

bulmish Navoiyning ilmiy biografiyasi juda aniq va turli xil ifoda etilgan. Bu asar yana shuning uchun ham qimmatliki, Navoiy biografiyasi Sulton Xusayn davlati hayotining keng fonida bayon qilingan.

V. V. Bartol'dning Navoiy haqidagi asari bosilib chiqqishdan buyon o'tgan yil mobaynida, albatta, undagi ko'p narsalar eskirdi yoki fanga keyinchalik ma'lum bo'lgan yangi faktlar asosida to'ldirildi. Lekin, shunga qaramay, akademik E. E. Bertels so'zlari bilan aytganda, V. V. Bartol'd kitobining ayrim joylariga ma'lum o'zgartishlar kiritilgan bo'lsa ham, unda umuman olganda, Navoiyni o'rganish tarixida birinchi bor uning biografiyasiga bog'liq bo'lgan va faqat dastlabki manbalardangina olingan faktlarning ancha to'liq majmuasi aks ettirilgan. Shuning uchun Bartol'dning bu asari Navoiy hayotini va u yashagan zamonni o'rganishda yana ko'p yillar muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Bartol'd O'rta Osiyo tarixiga doir yana bir qator ilmiy maqolalar ham yozdi. «Sug'd va to'xar tillari masalasiga doir», «Buxoro va uning atrofidagi qadamjolar», «Turk va mug'ullarning dafn marosimlari masalasiga doir» (1921), «Samarqand yodgorliklari to'g'risida yangi ma'lumotlar» (1921), «Kubas minorasi tarixiga ma'lum bo'lgan musulmon-fors me'morchiligining birinchi yodgorligidir» (1922), «O'rta Osiyoda ruslar kelguniga qadar bo'lgan davrdagi paxtachilik», «1924 yil yozida Samarqandda olib borilgan arxeologik ishlar to'g'risida» (1925) kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Bartol'd umrining oxirgi yillarida sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining topshiririga binoan, o'zi nashrga tayyorlagan va keyinchalik jahon fanida keng shuhrat qozongan eski qo'lyozma asar noma'lum avtor tomonidan yozilgan «Xudad al-alam» («Dunyo chegarasi») nomli forscha geografik risolaning.. fototipik nashri (fotorasmi tushirilgan oyna plastinkadan kuchirib bosilgan) bosilib chiqdi. Bu risola arab klassik geograflari maktabining qarashlarini aks ettirgan bo'lib, «Tumanskiy qo'lyozmasi» nomi bilan (qo'lyozmani topgan kishi A. G. Tumanskiy edi) Sharqshunoslik tarixiga kirgan.

Bartol'd umrining oxirgi yillarida (1920—1930) O'rta Osiyo tarixidan yozgan «Temuriylar tarixi bo'yicha yangi manba», «Xorazm tarixi bo'yicha yangi maktab», «O'rta Osiyoda ot va aravada yo'rish to'g'risida» maqolalari vafotidan keyin bosilib chiqdi.

V. V. Bartol'd zurayib ketgan buyrak kasalligi azoblarini mardonavor yengib, o'zini nechog'lik bardam tutishga o'rinmasin, bari bir, og'ir dard bora-bora o'z ishini qildi. U 1930 yil 19 avgustda o'zi davolanayotgan Erisman kasalxonasida vafot etadi.

Bartol'd asarlari ko'p hollarda o'zidan keyingi avlod olimlarining yangi, qushimcha tadqiqotlarida dastlabki marra bo'lib qoladi, ularga ishonchli ilmiy muljal beradi. Bizning zamonimiz tadqiqotchilari Bartol'd asarlaridagi u yoki bu qoidalarga qushilmagan chog'larida ham, bu qadalar ilmiy munozaralarga sabab bo'lganida ham, Bartol'd asarlarining qimmati yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Chunki mazkur hollarda bu o'lkan ilmiy meros ilmiy tafakkurni olga siljitishga, uni uyg'otishga, unga jonli, ijodiy xarakter, tinimsiz izlanish va kashfiyotchilik xarakteri baxsh etishga yordam beradi.

Bartol'd asarlari kutubxonalarning chang bosgan javonlariga xarakatsiz, vaqti tugagan o'lik yo'q bo'lib tushmadi, balki ular Sharq xalqlarining ko'p asrlik tarixiy-madaiiy o'tmishini yanada kengroq, chuqurroq, har tomonlama bilish

ishiga xamon xizmat qilmoqda va yana o'zoq yillar xizmat qilajak. Marhum Sharqshunos olim qilgan ishlarning ulug'ligi ham shunda.

Shubhasizki, V. V. Bartol'dning ilmiy asarlari bundan keyin ham uzoq yillar o'z qimmatini yuqotmay, fanga xizmat qilishda davom etajak. «Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini har taraflama tashkil qilish ham katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir», chunki «Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyatini rivojlantirishga o'lgan hissa qushdilar va hozirgi jahon taraqqiyotida ham muhim rol uynamoqdalar».

1960 yilda SSSR Fanlar akademiyasi tarix fanlari bo'limining byurosi V. V. Bartol'd asarlarini nashr qilish to'g'risida qaror qabul qildi va bu vazifani amalga oshirish SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti zimmasiga yuklandi.

Bartol'd asarlari quyidagi tuqqiz jildga unta kitob bo'lib bosildi:

I jild. Mug'ullar bosqini davrida Turkiston.

II jild. 1-qism. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha umumiy ishlar. Kavkaz va Sharqiy YEvropa tarixi bo'yicha ishlar.

II jild. 2-qism. O'rta Osiyo tarixining ayrim problemalari bo'yicha ishlar.

III jild. Tarixiy geografiya bo'yicha ishlar.

IV jild. O'rta Osiyo va unga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarning arxeologiyasi, numizmatikasi, epigrafikasi va etnografiyasi bo'yicha ishlar.

V jild. Turkiy va mug'ul xalqlarining tarixi va filologiyasi bo'yicha ishlar. Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq tarixi bo'yicha ishlar.

VI jild. Islom va arab xalifaligi tarixi bo'yicha ishlar.

VII jild. Eron va Afroniston tarixi va filologiyasi bo'yicha ishlar.

VIII jild. Manbashunoslik bo'yicha ishlar.

IX jild. Sharqshunoslik tarixi bo'yicha ishlar.

Bu ro'yxatning o'ziyoq olim ilmiy qiziqishlarining kengligidan va ilmiy merosining ko'p qirraligidan darak berib to'ribdi.

Bartol'd Sharq xalqlari yaxshi kelajakka erishishlari mumkinligiga o'zicha qizg'in va astoydil ishonardi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. "Prezident I.A.Karimovning Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi".// Xalq so'zi. 2006 yil 3 noyabr.
2. Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика Бартольда //Средняя Азия в отечественном востоковедении. Ташкент: Фан. 1981. – 223 с.
3. Лунин Б.В. Историография общественных наук в Узбекистане, Библиографические очерки. Ташкент: Фан, 1974. – 384 с.
4. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент: Наука, 1965. – 408 с.
5. Axmedov B. "Tarixdan saboqlar" -T., 1996i.
6. Bronshtein A. "Metodika istoricheskogo issledovaniya". Rostov, 1971g.
7. "Vostochnoye istoricheskoye istochnikovedeniye i spetsialniye distsiplini".Vip. 1. –M., GVVL, 1989g.
8. Axmedov B. "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari". - T.: O'qituvchi, 2001i.

9. Axmedjanov G.A. “Rossiyskaya imperiya v Sredney Azii. Istoriya i istoriografiya kolonialnoy politiki sarizma v Turkestane (1867-1917)”. –T.: Fan. 1995i.
10. Ahmedov B.A. “Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII vv. Pismenniye pamyatniki”. – T., 1985g.
11. Axunova M.A., Lunin B.V. «Istoriya istoricheskoy nao’qi v Uzbekis-tane». - T.: Fan, 1970g

## **16-Mavzu: TURKISTONNING XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHIDAGI TARIXI MANBASHUNOSLIGI.**

**Tayanch iboralari:** O’rta Osiyo. Buxoro. Qo’qon. Xiva. Turkiston. Avliyoota. Chimkent. Toshkent.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi bosqinchilik siyosatining eng asosiy obyektlari O’rta Osiyodagi Buxoro amirligi , Qo’qon va Xiva xonliklari bo’ldi. Ularning o’z holicha mustaqilligi , o’zaro hamjihatlikning yo’qligi, aksincha mintaqada birinchilikni qo’lga kiritish uchun avj olgan ichki kurashidan foydalangan Rossiya birin-ketin ularni o’ziga bo’ysundirdi. Chorizmning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O’rta Osiyoga nisbatan amalga oshirgan strategik rejalari, mustamlakachilik negizlari bosqinchilik bilan chambarchas bog’liq bo’lganligi sababli bu bosqin XIX asrning birinchi yarmidayoq uning uchun zamin tayyorlashdan boshlanganini , keng ko’lamli qidirish ishlarini olib borish, Qo’qon xonligining hududiy yaxlitligini vaqti-vaqti bilan buzib turish , uning chegaralariga qo’pol ravishda bostirib kirish, Sirdaryoning quyi oqimlaridagi Raim (1847), Oqmachit (1857), G’arbiy Sibir tomondagi Kopal (1847), Olmaota yaqinidagi Verniy (1854) va boshqa strategik jihatdan qulay bo’lgan mudofaa inshootlarini zabt etish bilan qo’shib olib borildi.

Harbiylarning tez suratlar bilan kuchayib borgan bosqinchiligi Rossiya tashqi ishlar vazirligi tomonidan bir muncha vaqt “so’ndirildi” , chunki u o’z hususiyatiga ko’ra xalqaro vaziyatga , G’arb bilan Sharqning jamoatchilik fikriga quloq solishga majbur bo’ldi , shiddatli harakarlardan tiyilib turish haqida ogohlantirildi. Rossiya Tashqi Ishlar Vazirligi tayyorgarlik bosqichini cho’zishni diplomatik agentlar, elchixonalar, missiyalar, ilmiy va savdo ekspeditsiyalari orqali (ular “O’rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni jonlantirish” maqsadida doimiy ravishda Sharqqa yuborib turilardi) mintaqada sinchkovlik bilan keng ko’lamda razvedka ishlari olib borishni talab qildi. Tashqi ishlar vazirligining Osiyo deportamenti bu kabi ishlarning bevosita tashkilotchisi bo’ldi. Unga harbiy vazirlik, moliya vazirligi va boshqa idoralar faol yordam ko’rsatdilar. Masalan , 1858 yili birdaniga uchta ekspeditsiya tuzildi: sharqshunos N.V.Xanikov boshchiligidagi “ilmiy” ekspeditsiya Eron va Hirot vohasiga; CH. Valixonov boshchiligidagi savdo ekspeditsiyasi Qashg’ar (Janubi-Sharqiy Turkiston)ga va diplomatik ekspeditsiya Xiva hamda Buxoro xonliklariga yuboriladigan bo’ldi. Bu ekspeditsiyaga Londondagi rus harbiy agenti , O’rta Osiyoga hujum qilish siyosatining tarafdori, polkovnik N.P.Ignatiev boshchilik qildi. Buxoro va Xivada rus savdosini kengaytirish va yaxshilash, xonlik ishlariga “inglizlarning zararli aralashuvi”ni barbod qilish va ularni o’z tomoniga jalb etish; rus savdo kemalarining Amudaryo bo’ylab erkin suzib yurishiga xonliklarning roziligini olish. IIB yo’riqnomasida: “Sizlarga yuklatiladigan ishlarning eng muximi Amudaryo bo’ylab ochiq kema qatnovini



yulga quyishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun imkoni bo'lgan barcha vositalar bilan harakat qilishingiz kerak",-deyilgan edi.

Harbiy vazirlik yul-yulakay topografik statistik va "umuman harbiy ma'lumotlar"; Amudaryo , turkmanlar "ularning harbiy kuchi" va Xivaga munosabati , Xivadan va Buxorodan Eron va Afg'onistonga boriladigan yullar , Xiva ,Buxoro va iloji boricha Balxning harbiy kuch va vositalari to'g'risida (har jihatdan) ma'lumotlarni toplashni topshirdi.

Podsho qo'shinlari keng bosqinchilik harakatining tayyorgarlik bosqichi ayni vaqtda O'rta Osiyo xonliklarini iqtisodiy ekspluatasiya qilish bilan qushib olib borildi. Bu yangi savdo bozorlari va xom- ashyo manbalariga ehtiyoj sezayotgan Rossiya savdo – sanoat doiralari tomonidan hukumat siyosatining to'la qullab-quvvatlanayotganligini bildirar edi. Rossiya fabrikantlari va zavodchilari O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirilayotgan "qat'iy" siyosatni olqishlab , uni Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olishga chaqirdilar. Qo'qon xonligining 40-45 yillardayoq bosib olingan ayrim xududlari ular tomonidan Rossiya voqeligining ajralmas qisimlaridan biri bulib qolgan qandaydir mavjud narsa deb qaralar, ularning iqtisodiy ko'rsatgichlari va ulardan darhol foyda chiqarib olish imkoniyatlari o'rganilardi. Rossiya to'qimachilik magnati A.Shipov O'rta Osiyo xom ashyosidan foydalanib, ip-gazlama ishlab chiqarishni kengaytirish Rossiya uchun foydali ish bo'lar edi, deb o'ylardi. Shipov o'z fikrining isboti sifatida Amerika paxtasiga qaramlikdan qutulish maqsadida Hindiston va Avstraliyada paxta yetishtira boshlagan Buyuk Britaniyani misol qilib keltiradi. U "O'rta Osiyoda paxta yetishtirishni qayta tiklash va takomillashtirish uchun butun kuch-g'ayratini sarf etish"ga chaqirdi. Chunki ip-gazlama sanoati yangi sarmoyalar yaratishga eng ko'p qulaylik tug'dirardi. "Sarmoyalar yetishmayotgan davlatda bu ayniqsa muximdir ", deb yozgan edi.

Rossiyada sanoat kapitalizmining rivojlanishi Amerika Qo'shma Shtatlaridan paxta keltirishga to'la-to'kis bog'liq edi . 1861-1864 yillardagi fuqarolar urushi tufayli to'qimachilik tarmog'I halokat yoqasiga kelib qoldi: 1860-1861 yillarda Amerikadan paxta keltirish 6, O'rta Osiyodan keltirish 3 baravarga qisqardi; bir pud paxtaning narxi 4-5 so'mdan , 7 rubl 50 tiyinga ko'tarildi va oshib borib, 1862 yilda 12-13 so'mga, 1864 yilda 22-24 rublga yetdi.

Chorizmning maqsadlarini xoloskorlik deb niqoblash orqasida esa, amalda uning haqiqiy niyatlariga mos keladigan uchta narsa –mintaqani bosib olish, mustamlakaga aylantirish va ruslashtirish hamda yaqin kelajakda "yangi rus Turkiston "ni tashkil etish rejasi yashiringan edi. Bu g'oya 60-yillarning oxirida chor qo'shinlari tomonidan Turkiston, Avliyoota , Chimkent va Toshkent bosib olingandan keyin hamda 1865 yilda Turkiston viloyati tashkil etilgandan so'ng faollik bilan targ'ib etila boshladi. Masalan,chorizmning "yarim norasmiy" organi bo'lgan "Moskovskie vedomosti" gazetasi ko'pgina maqolalarida "davlatimiz g'aznasining qimmatbaho pullari ana shu yangi chekka o'lkaga sarf etilishi va u yerdagi harajatlar butunlay Rossiyaning mahalliy mablag'lari hisobidan to'lanishi"ga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb bayon qilgan edi.

Rejalarga muvofiq , chorizmning harbiy harakatlari tufayli o'z hududlarining muayyan qismidan ajralgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasiga qaram davlatlar bo'lib qoldi. Buxoro amirligidan tortib olingan Xo'jand , O'ratepa, Jizzax , Samarqand, Kattaqo'rg'on 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligining Zarafshon okrugini tashkil etdi. Xiva xonligi Amudaryoning butun o'ng sohilidan ajraldi, bu yerlar Amudaryo bo'limi nomi bilan Turkiston tarkibiga kiritildi(1873).

Har ikkala xonlik Rossiya bojxona tizim tarkibiga kiritildi, ularning iqtisodiyoti chorizm manfaatlariga to'la-to'kis bo'ysundirilgani va Rossiya savdogarlari hamda burjuaziyasining mutlaq hukumronligi ta'minlashini bildirar edi. Rossiya tazyiqi bilan Buxoroning asosiy valyutasi hisoblangan tanga zarb etishning to'xtatilishi tufayli amirlik mustaqil harakat doirasi yana ham ko'proq toraydi. Tanganing qiymati doimiy ravishda o'zgarib turganligini baxona qilib, chor hukumati 1901-1903 yillarda eski zarb etilgan tangalarning bir qismini va Buxoro amiri 1902 yilda zarb qilgan 24 mln. yangi tangani sotib oldi. Ahvol shu bilan tugadiki, amirlik rus kredit belitlari, oltin va kumush tangalar keltirildi, ular sekin-asta Buxoro bozoridan mahalliy pulni siqib chiqardi.

1868 yilgi savdo shartnomasiga muvofiq Qo'qon xonligi ham chor hukumati tomonidan nazorat qilinadigan, Rossiya maxsulotlari sotiladigan bozor va xom ashyo manbaiga aylantirildi. Biroq, Buxoro va Xivadan farqli o'laroq, Qo'qon ichki siyosiy adovatlar, xalq isyonlari va qo'zg'olonlari bilan larzaga kelgan bo'lib (bular tarixiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan), chor qo'shinlarining bosib olish natijasida Turkiston general-gubernatorligi asosini tashkil etdi. Turkistonni boshqarish strategiyasi harbiy harakatlar jihatidan deyarli baravar bo'lgan ikki tamoyilni bir-biriga muvofiqlashtirishga majbur bo'ldi. Bularning biri – iloji boricha tezroq mintaqada Rossiya tartiblari va qonunlarini o'rnatishga ko'maklashish, ikkinchisi- o'z turmush tarzi, an'analari, diniy an'anaviy poydevorida tub o'zgarishlar bo'lishini mutlaqo o'ziga singdirolmaydigan mahalliy aholi bilan munosabatlarni qanday qilib yulga qo'yishdan iborat edi. Davlat va uning Turkistondagi vakili bo'lgan mustamlakachi ma'muriyat u yoki bu siyosatni tanlab, unga amal qilishlari lozim edi. Boshqaruvning asosiy tamoyillari metropoliyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga tayandi va shularga muvofiq ravishda chorizmning quyidagi asosiy vazifalari belgilab chiqildi: Turkiston xalqlarining yangi rejimga qarshilik ko'rsatishining barcha shakillarini harbiy yo'l bilan bostirish va bu xalqlarni zo'rlik bilan mustamlakachilik tizimiga moslashtirish; xonlar, beklar, mahalliy ayonlar boshchiligidagi avvalgi hukumronlik mehanizmlarini yo'qotish; mahalliy aholining turmushi, urf-odatlarini va rasm-rusumlariga aralashmaslik; Turkistonga "aholini to'g'ri joylashtirish"ni tashkil etishga yordamlashish; mintaqaning tabiiy boyliklaridan foydalanishning arzon tizimini ta'minlash.

Ko'p sonli arxiv xujjatlari, estaliklar, yozishmalar va boshqa materiallarning guvohlik berishicha, mustamlakachilarning aksariyat ko'pchiligi mahalliy sharoit va aholining kayfiyati bilan hisoblashmasdi, chor armiyasining kuchi va qudratiga va o'lkadagi boshqaruvning zo'ravonlik usullariga tayanib, ko'proq sinab ko'rish va xatolardan iborat ichki his-tuyg'u asosida harakat qilishardi. Ulardan biri K.P.Kaufman bo'lib, u 1867 yildan 1882 yilgacha Turkiston ma'muriyatiga boshchilik qilgan. U Turkiston bilan ilk tanishuvidan keyin harbiy vazir Milyutinga "... musulmonlar o'zlarini shu qadar sovuqqonlik bilan tutib, oliy hokimiyat vakillariga shu qadar beparvo, hatto hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalarki, bu borada qandaydir o'zaro kelishuv mavjud bo'lsa kerak deb taxmin qilish mumkin... Men aql- idrokli kishilarning kayfiyati yaxshi emasligi, rus hokimiyatini yoqtirmasligiga asoslanib, bu yerda undan halos bo'lish uchun qulay fursatdan foydalanib qolishga xozirlik haqiqatdan ham mavjud ekanligiga aminman", -deb yozgan edi. Chorizm mintaqaning yer maydonini to'liq chegaralab chiqdi. Aholiga uch toifadagi- sug'oriladigan, lalmi va ishlov berilmaydigan yerlar biriktirib qo'yildi. Ularga og'ir soliqlar solindi. Mahalliy aholidan "ortiqcha yerlarni" shafqatsizlarcha zo'ravonlik bilan tortib olish hisobiga Rossiyadan aholini ko'chirib keltirish muammolari hal qilindi. Paxta chorizm uchun strategik jixatdan muxim ekin

bo'lib, uning paxta sohasida AQSHdan mustaqil bo'lishini taminlash jihatidan sug'oriladigan yerlar paxta yetishtirish uchun qayta taqsimlandi. Chorizm bosqinchiligining hali boshlang'ich davridayoq kun tartibiga qo'yilgan mintaqaga "aholini to'g'ri joylashtirish" va uni yanada jadalroq ruslashtirish masalasi alohida kuch bilan avj oldirildi. Ma'naviy sohada musulmon ruhoniylariga, maktablar, madrasalar, islomning ijtimoiy institutlariga qarshi qo'poruvchilik faoliyati kuchaytirildi, ayni vaqtda, rus-tuzem, cherkov-qavm, yakshanbalik va boshqa maktablarning, provaslav cherkovlari, soborlar, ibodatxonalar, monastrlar va turli missiyalarning faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat maydoni kengaytirildi.

Rossiya imperiyasi Davlat Kengashining a'zosi, 1908-1909 yillarda Turkiston o'lkasini taftish qilgan senator K.K.Palanning hisobotida keltirilgan fikr: "Rus hukumati o'z fuqarolariga kirgan boshqa qabilalarni tinchlantirish haqida qayg'urib, mazkur qabilalarning ahloqiy tushunchalari sohasiga zo'ravonlik bilan kirib borish va mamlakatdagi urf-odatlarini o'zgartirish niyatida emaslikligini e'lon qilish bilan cheklandi... Shu bilan birga, hozircha o'z kuchida qoldirilgan huquqning, vaqtinchalik tartibi hamisha nazarda tutildi, chunki agar Qur'onda qonun kuchi beriladigan bo'lsa, aholi aytib o'tilgan qonunning izohlovchisi bo'lgan o'z ruhoniylari tazyiqi ostida bo'ladi, rus davlatiga hamisha begona bo'lib qoladi". Ya'ni rus hukumati Turkiston aholisining ongi, uning ijtimoiy munosabatlari ko'p asrlar mobaynida islom ahkomlari va an'analari bilan belgilab kelinganligi, uning tarkibiy qismi bo'lmish shariat-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, qonun-qoidalarining, huquqiy va ahloqiy an'analarning butun bir majmuidan iborat ekanligini his qilib, bu jamiyatni tabiiy-tarixiy rivojlanish yo'lidan zo'rlik bilan boshqa tomonga burib yuborishni rejalashtirdi. Bu uchun Kaufman davridayoq "diniy urf-odatlar va marosimlarga aralashmaslik to'g'risida"gi shovqin-suronlar, safsatalar bilan ruxoniylarning yerlari davlat mulki deb e'lon qilindi va ular arzimagan pulga chor generallari, yuqori amaldorlari, savdogarlari va yangi kapitalistlarga sotib yuborildi, shaxarning ruslar istiqomat qiladigan qisimlarini va boshqa ob'ektlarni qurishga ajratib berildi.

Shunday qilib, garchi chorizmning mahalliy jamiyat ma'naviy hayotiga tazyiqi yetarli darajada kuchli bo'lsa ham bu jamiyat chetdan bo'lgan ta'sirni osongina va jon-dili bilan qabul qildi va unga moslashib quya qoldi, degan gap emas. Biroq, dunyoning u yoki bu mustamlakachi tuzulma hukum surgan hamma joyida bo'lgani kabi moslashuv jarayoni asosan iqtisodiy sohada ro'y berdi. Turkiston jamiyati qarshilik ko'rsata-ko'rsata o'zgartirilgan hayot sharoitini qabul qilishga unga moslashishga majbur bulgan edi. Chunki Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachiligi ayniqsa, XIX asming oxiri-XX asming boshlarida faqat rus mustabid hokimiyatining siyosiy hukumronligiga emas, shu bilan birga, Rossiya kapitalining iqtisodiy hukumronligini ham anglatar edi. Yer ishlari va davlat mulki vaziri Krivosheinning yozishicha, u zarur bo'lgan paxtani ham, boshqa ko'pgina iqtisodiy va siyosiy boyliklarni ham berardi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi ma'murlarining O'rta Osiyodagi strategik rejalarning bevosita mualliflari va ijrochilariga "murojaat qilish"ga imkon beradigan turli manbalarni o'tmishga qiyosan taxlil qilish va bir asr avvalgi jarayonlarning mohiyatini teran idrok etish mazkur rejalarning begona hududlarni bosib olish, u yerda mavjud bo'lgan ijtimoiy hayot qonunlari va an'analarni izdan chiqarish, mahalliy jamiyatning diniy-ma'naviy negizini barbod qilish, milliy madaniyat va ta'limni obro'sizlantirish va sekin-asta betaraflashtirish, pirovarda natijada "yangi, rus Turkistoni"ni barpo etishni nazarda tutuvchi mustamlakachilik "qadriyatlarni"ni zo'ravonlik bilan singdirishga

qaratilganini ko'rsatadi. Jamiyatning ilm-ma'rifatli qatlamlari chetdan tiqishtirilgan davlat tuzumining yaramasligiga tobora yaqqolroq ishonch hosil qilib, o'z mamlakatlarini o'zlari boshqarishga qodir ekanliklarini borgan sari chuqurroq anglab yeta boshladilar, o'z vatanlarining milliy ozodligi va siyosiy mustaqilligi uchun kurash olib borish zarur, degan fikriga keldilar. Ular dastlabki milliy tashkilotlar va uyushmalarning tamal toshini qo'yidilar, qarshilik ko'rsatishni umummilliy manfaatlariga javob beradigan darajaga ko'tarishga intildilar.

## **17-MAVZU: XX ASR BOSHLARINING MUHIM SIYOSIY VOQEALAR VA ULARNING MANBASHUNOSLIGI.**

### **Reja**

1. Turkistonda sovet tuzumining o'rnatilishini aks ettiruvchi manbalar.
2. XX asrning 30-90 yillari O'zbekiston tarixi bo'yicha manbalar.

**Tayanch iboralari:** Kapitalizm. O'rta Osiyo. Rossiya imperiyasi. Fevral-burjua demokratik inqilob, Muvaqqat hukumat, Sho'roi Islom, Sho'roi Ulamo, Ta'sis majlisi, Turkiston sovetlarining s'ezdlari, Turkiston avtonomiyasi, sovetlar dekratlari, Istiqlol kurashchilari, Buxoro, Xiva.

XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirar edi va har bir siyosiy voqea shu hududda yashovchi xalqlarning hayotida o'z aksini topadi. XX asr jahon tarixida burilish yasadi. Kapitalizm imperializmga aylanib borib, ko'pgina xalqlarni ayovsiz ekspleatatsiya qilardi. Qashshoqlik va boshboshdonlik turli xil ijtimoiy inqiloblarga olib keldi. Rossiya rivojlanish jihatdan eng qoloq kapitalistik davlatlardan biri edi va ijtimoiy taraqqiyot jihatidan halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Rossiya imperiyasining qiyofasini 1904-1905 yillardagi Rus-Yapon urushi ko'rsatib berdi, bu urushda Rossiya sharmandalarda mag'lub bo'ldi. Mag'lubiyatdan so'ng 1-chi rus inqilobi (1905-1907yy.) bo'lib o'tdi. Shundan so'ng, Rossiya 1-chi jahon urushigacha tortiladi. Uzoq davom etgan urushda ishtirok etish, iqtisodiy qoloqlikka olib keldi. Bu yangi ijtimoiy portlashga olib keldi. 1917 yilda bolsheviklar qonuniy Muvaqqat hukumatni ag'darib, hokimiyatni egalladilar va yangi davlat apparatini tuzdilar.

Turkiston ham bu siyosiy voqealardan chetda qolmadi. 1905-1907 yillarda Samarqandda social-demokratik partiya tashkil etildi, temir yo'l deposi ishchilari namoyishlar uyushtirdilar. Rus hukumati ishchilarining 8 soatlik ish kuni haqidagi talabini qondirdi. Shuningdek, yirik xalq qo'zg'olonlari 1916 yilda Turkistonning muhim sanoat markazlarida bo'lib o'tdi.

(Og'zaki ravishda o'sha davrning siyosiy vaziyatini tushuntirish kerak).

Bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan mustaqil rivojlanishga bo'lgan intilishlar yo'q qilindi. Sovet hukumati Rossiya imperiyasining boshqa tomoni edi, hattoki chegaralar ham o'zgarmadi. Yangi sovet, to'g'rirog'i kommunistik hukumat tezlash metodi yordamida socialistik asoslarni yaratmoqchi bo'ldi va buning uchun quyidagi masalalarni hal qilish lozim deb hisobladi: 1. Ishlab chiqarishni industriallashtirish; 2. Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish; 3.

Madaniy inqilob. Bu masalalarni amalga oshirishning aniq chegaralarini ko'rsatib berdi. Stalin rahbariyati o'zlari xohlagan narsani haqiqat deb ko'rsatishga urinib, 30-yillarning oxirlarida socializm qurilganligini e'lon qildi.

Tez orada mamlakat 6 yil davom etgan 2-chi jahon urushiga tortiladi. Urushdagi g'alaba Stalin hokimiyatni mustahkamladi va uning repressiya mashinasi qaytadan ishga kirildi.

(Bu ma'lumotlarni dalillar asosida izohlab, og'zaki ravishda aytilishini unutmash kerak).

Siyosiy tizimda hech qanaqa o'zgarishlar ro'y bermadi. Shaxsga sig'inishning tanqid ostiga olinishi demokratik o'zgarishlarga olib kelgandek ko'rinsada, lekin ular vaqtinchalik xarakterga ega edi. Siyosiy rahbariyat jamiyatni demokratlashtirishni o'ylamasdan, aksincha kommunistlar partiyasi o'rnini mustahkamladi. 80-yillar boshida hokimiyat tepasiga demokratik fikr yurituvchi rahbarlarning kelishi bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotning barcha tarmoqlarida qayta qurish boshlandi. Bu kommunistik tizimning parchalanishi bilan tugallandi.

I. Turkistonda sovet tuzumining o'rnatilishini aks ettiruvchi manbalar.

1917 yil 29 fevralda Rossiyada demokratik inqilob g'alaba qozondi. 2 martda podsho taxtdan voz kechdi va Muvaqqat hukumat tuzildi. 1917 yil mart-aprel oyi siyosiy – uyg'onish davridir. Asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida Jadidlar harakat qildi. Aynan ular mitinglar tashkil etib, buning natijasida «Sho'roi Islom» nomi ostida mahalliy xalq deputatlar kengashini tashkil qildi. 7-15 aprelda Ishchi va Soldat deputatlarining 1-chi Butun Turkiston Kengashi s'ezdi faoliyat ko'rsatdi. Turkistonda siyosiy, diniy, davlat tashkilotlarining tashkil etilishi masalalari juda murakkab. Misol uchun «Sho'roi Islom» va «Sho'roi Ulamo» vakillarining asosiy qismi ruhoniylardan iborat bo'lib, ular «Sho'roi Islom»chilar bilan birgalikda harakat qilmadilar, bundan esa keyinchalik bolsheviklar mohirona foydalandilar. Bolsheviklar ularni bita-birga yo'q qildilar. Shuningdek, islomchilarning o'z qatorlarida ham birlik yo'q edi.

Turkiston musulmonlarining 1-chi siyosiy partiyasi faoliyatiga ham alohida e'tibor berishimiz lozim. Turkiston federatlari partiyasi turkistonning davlat statusi, uning markaz bilan munosabatlari masalalarini muhoqama qildi. Bu Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy va bir qator boshqa mutaxassislar milliy-hududiy prinsip asosida avtonom demokratik respublika tuzish masalasini asoslab beridlar. Bu O'zbekiston tarixchi olimlarining ilmiy ishlari chop etildi. Bu davrga oid eng muhim manbalar, Sovet hokimiyati tomonidan e'lon qilingan dekretlar.

(«Er haqida», «Tinchlik haqida» dekretlarning mazmunini tushuntirish lozim. Bu masalalarning yangicha talqinida).

O'sha davrining muhim manbalari Sovetlar s'ezdining Partiyaning qarorlari. Chunki hujjatlarga qarab u yoki bu masalaning ahvoli haqida bilish mumkin. Asosiy o'rinni Turkiston mustaqilligi uchun kurash to'g'risidagi masala mustaqilligini tarafdorlarining repressiya qilinishi yoki o'zoq muddatga qamoqqa olinishi bilan to'g'allandi. Bu savollarga javob berish uchun «Fan va turmush», «Xalq so'zi», «Pravda Vostoka» ro'znomalarining 1988-1995 yilgi sonlarini ko'zdan kechirish lozim, masalan: «Pravda Vostoka»ning 1988 yil № 15-17 sonlarida «Fayzulla Xo'jaev» maqolasi chop etilgan. Unda 1937 yil 41 yoshida

repressiya qilingan. O'zbekistonning ko'zga ko'ringan davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning hayot yo'li qisqacha ochib berilgan. Maqolada kommunistik ideologiyaning ta'siri sezilsada, bu qonunsiz ravishda reabilitatsiya qilingan ishlarini oqlashga tashlangan dastlabki qadam edi. Sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan manbalar har doim ham o'sha davr voqealarini to'laqonlicha yoritmaydi. Chunki u kommunistik g'oyalar tasiriiga kiritib qo'yilgan edi. Shuning uchun ham 80 yillar oxiri 90-yillar boshlarida chop etilgan maqolalar muhim faktor bo'lib xizmat qiladi.

II. XX asrning 30-90 yillari O'zbekiston tarixi bo'yicha manbalar.

Bu mavzuning boshlangich bosqichi shunisi bilan murakkabki, bu davrda Stalin shahsiga sig'inish vujudga keldi va rivojlandi. Urushgacha bo'lgan davrini nisbatan murakkab deb baholash mumkin. Stalin besh yilliklari, masalalarining echilishiga notug'ri yondoshish va h.k.

Tavsiya etaman: 1989 yil № 9 «Politicheskoe obozrenie» jurnalining 77-83 betlari. A. Tyurinning «Osujdenie derevni: videt istinnie prichini» maqolasi («Qishloqning qashshoqlashuvi, asl sabablarini ko'rishi»).

Tavsiya etaman: 1. «Nedelya» gazetasi 1988 yil № 41. YU. Refanovning «Мы dumali chto tak i nado» («Biz shunday bo'lishi kerak deb o'ylardik») maqolasi. 2. «Oktyabr» jurnali 1988 yil №12. D. Valagnovning «triumf va tragediya» kitobidan Stalinning siyosiy portreti. 3. Raman Gul «Qizil marshallar» (Krasnie marshali). Masalan: «Molodaya gvardiya», 1990 yil. Bu maqoladan Tuxachevskiy, Voroshilov, Blyunker, Kotovski taqdirlarini bilib olish mumkin.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Turkistondagi istiqlool uchun qurolli harakatni sovet hokimiyati organlari qanday kutib oldilar?
2. Markaz bilan Buxoro va Xorazm Respublikalari rahbariyati pozitsiyalari o'rtasidagi ziddiyat nimadan iborat bo'ldi?
3. 20-yillarning oxirida ma'muriy-bo'yrukbozlik tizimining mohiyati qanday va u O'zbekiston iqtisodiy siyosatida qanday aks etdi?
4. Totalitar tartibotning mustahkamlanib borishi O'zbekistonning 30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga qanday ta'sir o'tkazdi?